

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

VALIYEVA NOIBA ABBOSXANOVNA

**XITOY TILIDA “BAXT” KONSEPTINING
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDА IFODALANISHI**

Toshkent–2024

УЎК:811.531+811.512.133:81'1

КБК: 81.2-5 (5Хит) + (5Узб)

ISBN 978-9910-8913-8-0

Valiyeva, Noiba

Xitoy tilida “baxt” konseptining frazeologik birliklarda ifodalanishi: monografiya / N.Valiyeva. – Toshkent:, 2024. – 140 b.

Frazeologik birliklar misolida an'anaviy “五福 [wǔfú] baxt” modelining xitoyliklar milliy lisoniy ongidagi o'zgarishlar ta'sirida shakllangan zamonaviy modelini yoritib berishdan iborat. Ushbu monografiyadan tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

Saodat Nasirova

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Mavjuda Bolibekova

Dotsent, PhD

Sabohat Hashimova

filologiya fanlari doktori, professor

*Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2024-yil 8-iyundagi 10-sonli majlisi bayoni asosida
nashrga tavsiya etilgan.*

© Valiyeva N.A.

© Toshkent davlat

sharqshunoslik universiteti, 2024.

ISBN 978-9910-8913-8-0

KIRISH

Jahon tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida muayyan xalqning milliy-madaniy, tarixiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, hayotiy tajribasining yorqin in'ikosi bo'lgan frazeologik birliklarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish, ularni til va inson, til va ong, lisoniy faoliyat mexanizmi, til egasi bo'lgan shaxsning lisoniy ongi, ruhiyati, madaniyati, nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit kabi omillar bilan bog'-liqlikda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. So'nggi yillarda kognitiv tilshunoslik asosi bo'lgan konsept, freym tushunchalari, xalqning olam lisoniy manzarasi bilan bog'liq ishlarda turli yondashuvlar kuzatilmoqda.

Dunyo tilshunosligida kognitiv nuqtayi nazardan turli tillarda *baxt* konseptining paremiyalarda, badiiy matnlarda verballahushi borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xitoy tilshunosligida “五福 [wǔfú] *baxt*” konsepti maqol, matallar miqyosida lingvistik, falsafiy, lingvomadaniy, yondashuv asosida o'rganilgan. Shuningdek, mazkur konseptning qadimgi Xitoy bezaklari san'ati va me'mor-chiligidagi o'ziga xos xususiyatlariga oid ma'lumotlar ham tahlil etilgan. Millatning madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy hayotidagi barcha jabhalarda namoyon bo'luvchi, xalqning dunyoqarashini ifodalovchi baxt tushunchasi frazeologik birliklarda aniq namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar xalqning kumulyativ tajribasini o'zida aks ettingani, uning urf-odati, madaniyati, olam lisoniy manzarasini o'rganishdagi asosiy manbalardan biri bo'lgani sababli mazkur mavzu doirasida turli tillarda lingvomadaniy, qiyosiy, chog'ishtirma yo'nalihidagi ilmiy ishlar olib borilgan. Shu ma'noda *baxt* tushunchasini frazeologik birliklar misolida tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sharq tillarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, xitoy tilining leksik-morfologik, sintaktik, kognitiv, lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish masalalari ham kun tartibidan o'rin olgan. 2023-yil 18-mayda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat tashrifi bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo'lgani O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi keng qamrovli siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy aloqalar-

ning rivojlanib borayotganligini dalilidir. Mazkur tashrif doirasida gumanitar soha muhokama qilinar ekan, ta’lim va turizmda hamkorlikni faollashtirish, o‘zaro madaniyat, san’at va kino kunlarini o‘tkazish, an’anaviy tibbiyot bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish zarurligi haqida yakdil fikr bildirildi. Ta’lim va turizmda hamkorlikni faollashtirish xitoy tilini o‘rganishdagi barcha yo‘nalishlarini qamrab olib, ikki xalqning bir-birini yaxshi tushunishiga, do‘stona munosabatlarning yanada chuqurashiga xizmat qiladi. Bu esa xitoy tili madaniyatini chuqurroq tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Bugunga qadar o‘zbek xitoyshunosligida hozirgi xitoy tili bo‘yicha muayyan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ayni tildagi “baxt” konseptining xitoy lisoniy manzarasida tutgan o‘rni, xitoy tilidagi frazeologik birliklarning milliy mental ongidagi talqini, frazeologik birliklarni lingvokognitiv xususiyatlari maxsus monografik planda tadqiq etilmagan.

Ma’lumki, so‘nggi chorak asr mobaynida chet ellikkarga xitoy tilini o‘qitish dunyoda, shu jumladan, Xitoyning o‘zida ham keng quloch yoydi. Shu bilan birga kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan til va ong, inson va uning ruhiyati, jamiyatning sotsium lisoniy manzarasiga ta’sirini o‘rganish ham so‘nggi o‘n yillarda tilshunoslikda yangi yo‘nalish sifatida tendensiyaga aylandi. Xalqning kumulyativ tajribalarini o‘zida aks ettiruvchi frazeologik birliklarga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilishga oid ishlarga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Hozirgi kunga qadar xitoy tilidagi “五福 [wǔfú] baxt” modelining farzeologik birliklar doirasidagi zamonaviy ko‘rinishi anketa so‘rovnomasini orqali sotsiolingvistik jihatdan o‘rganilmagan. Zamonaviy xitoy tilshunosligida Xitoy jamiyatida “baxt” tushunchasini idrok etish modeli maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan, bu esa tadqiqot ishi dolzarbligining yana bir asosidir.

Monografiyada frazeologik birliklar misolida an’anaviy “五福 [wǔfú] baxt” modelining xitoyliklar milliy lisoniy ongidagi o‘zgarishlar ta’sirida shakllangan zamonaviy modelini yoritib berishdan iborat. Shu nuqtai nazardan monografiyada zamonaviy

tilshunoslikda xitoy tilidagi baxt tushunchasi, ya’ni “五福 [wǔfú] *baxt*” borasidagi tadqiqot tahlil, “五福 [wǔfú] *baxt*” modelini tashkil etuvchi komponentlar semantikasini o’rganish orqali “五福 [wǔfú] *baxt*” modelining tadrijiy rivoji, leksikografik manbadagi va “*baxt*” ma’nosini ifoda etgan 250 ta frazeologik birlik asosida “五福 [wǔfú] *baxt*” modelining komponentli va komponentsiz turlari yoritilgan, shu bilan birga manba asosida “五福[wǔfú] *baxt*” modeli komponentlari ifodalanmagan frazeologik birliklarni nishon makon (target domain) va asos makon (source domain) yordamida guruhlar ajratib tahlil qilingan. Undan tashqari xitoy tilidagi baxt modelini so‘rovnama asosida sotsiolingvistik tadqiq qilish natijasida xitoyliklarning milliy lisoniy ongidagi zamonaviy baxt modeli ko‘rsatib berilgan.

Xitoy tilidagi frazeologik birliklarning semantikasi, lingvomadaniy xususiyatlarini sotsiolingvistik yondashuvdan kelib chiqib tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan anketa so‘rovnomasi boshqa tillardagi tadqiqotlar uchun amaliy yordam berishi, iboralarni tadqiq etish zamonaviy xitoy tili va millati lisoniy ongi, tafakkurini o’rganishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XITOY TILIDA “五福[WŪFÚ]” KONSEPTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Zamonaviy tilshunoslikda tushuncha, konsept va model: o‘zaro munosabati va chegaralari

Insoniyat yaralibdiki, til uning dunyoqarashi va madaniyati rivojida katta rol o‘ynaydi. Aynan til yordamida har bir inson anglash va tafakkur qilish jarayonini ifodalaydi. Tarixdan bizga ma’lumki, “biror-bir xalqni yo‘q qilmoqchi bo‘lsang, uni tili, madaniyatidan boshla”, degan naql bor. “Til – har bir etnosni indentifik ko‘rsat-kichidir¹” degan ta’rifdan ko‘rish mumkinki, til – xalqning madaniyat, ma’rifat ko‘zgusidir. Zamonaviy tilshunoslikda XX asrning oxiri - XXI asr boshlariga kelib antroposentrik qarashlar birlamchi hisoblanib turli yangi lingvistik sohalar, tarmoqlar yuzaga keldi. Shulardan biri kognitiv tilshunoslikdir. Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi². Kognitiv tilshunoslik kognitologiya fanining tarkibiy qismi sifatida, u 1956-yilda paydo bo‘lgan. Kognitiv tilshunoslik axborot texnologiyalari taraqqiyoti oqibatida yuzaga kelgan «sun’iy intellekt» tizimi vositalariga oid mushohada, savollarga javob izlovchi³ fan o‘laroq vujudga kelgan. Keyinchalik fan sifatida o‘rganila boshlagan degan fikrlar ham mavjud. Dunyo lingvistikasida kognitiv tilshunoslik inson ongi va lison bilan bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ularini ifodalovchi

¹ Кубрякова Э.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики// Вопросы когнитивной лингвистики. – Москва, 2004. – С.10.

² Abduazizov AA. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010, – С. 43.

³ Эшбоева Т.С. Cognitive analysis of the concept «woman»’ in the French language// Молодой ученый Международный научный журнал № 30 (320) / 2020. – Р.312.

til birliklarini leksik-semantik talqin etish muammosini ustuvor vazifa qilib qo‘yuvchi yo‘nalishlardan sanaladi.

Rus filologi E.S.Kubryakova “kognitiv” tushunchasi psixologiyadan kirib kelgan bo‘lib, u rus tiliga “bilishga taalluqli” ma’nosida tarjima qilinadi”⁴ deb yozgan bo‘lsa, A.P.Babushkin “kognitologiya turli fan sohalari chorrahasida yuzaga kelgan fan”⁵ ekanligini ta’kidlab o‘tgan va uning tadqiqot sohasi bilimni to‘plash, qo‘llash usullarini tadqiq qilish sifatida belgilanish kerakligi haqida yozib o‘tgan. Amerikalik olimlar G.Lakoff, Ronald Langaker, Rey Djekendoff esa o‘z tadqiqotlari bilan uning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan⁶. Demak, kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishida inson ongi, dunyoni bilihi, voqelikni aks ettirishi va tafakkuri alohida o‘rin egallaydi. Kognitiv tilshunoslik psixologiyadagi tushuncha va konsept birliklari bilan ish ko‘radi. Konsept tushunchasi asosida ma’no va obraz yotadi⁷. Konseptning yuzaga kelishini S.G.Vorkachev shunday izohlaydi: “Konseptning paydo bo‘lishi uning an’anaviy mantiqiy mazmunini ko‘rib chiqish va uni psixologik talqin qilish, o‘tgan asrning oxirida gumanitar bilimlarning ilmiy strukturasi o‘zgarib, tizimli-struktur paradigmalar o‘rnini antroposentrik, funksional paradigma egallashi, insonga nisbatan hamma narsaning o‘lchovi (markazi), maqomi berilib, uning koinot markaziga aylanishi, tilshunoslarning tadqiqot markaziga tilning immanent tuzilishidan uning fynksional shartlarga o‘zgarishi bilan bog‘liq⁸”.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi dunyo manzarasini va lisoniy ong tuzilishini *modellashtirishdir*. Uning asosiy vositasi ope-

⁴Кубрякова Е.С. 1994 – Начальные этапы становлени когнитивизма. Лингвистика – психология – когнитивная наука // Вопр. языкоznания. – М., 1994. – № 4. – С.34-37.

⁵ Бабушкин А.П. Концепты разных турнов в лексике и фразеологии и методика их выявления. // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2001. – С 52–58.

⁶George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. The University of Chicago Press. 2003, – 193 p.

⁷Abduazizov AA. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010, – B.19.

⁸ Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. –Краснодар КТУ, 2002. – С.142.

rativ xotira birlklari bo‘lib, bular: freym (stereotipli vaziyatlar, ssenariy), konsept (so‘z ifodalovchi barcha ma’nolarning yig‘indisi) va geshtalt (so‘z bilan bog‘liq barcha ma’nolari yig‘indisi)⁹. Aynan shu 3 vosita orqali dunyoning lisoniy manzarasini shakllantirish va o‘rganishda foydalaniladi.

Konsept olam lisoniy tasvirining asosi bo‘lib, ma’lum bir tilning turli so‘zлари va iboralari ma’nosiga o‘ralgan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui, individual lingvistik shaxsiyatlarni tushunishing umumiyl mahsuli, odam tomonidan qabul qilinadigan va anglanadigan hamma narsani ongda shakllantiruvchi va til yordamida aks ettiruvchi hodisadir. Konsept ideal, u ongda universal subyekt kodi birlklari bilan kodlangan (USK, N.I.Jinkin tomonidan keltililgan). USK birlklari shaxsiy sezgi, tajriba asosida shakllangan individual obraz va tushunchalardir. Har qanday lingvistik belgi, ya’ni so‘z, frazeologik birlik, gap konseptni ifodalashi mumkin.

Konseptning xususiyatiga ko‘ra bir nechta turlari mavjud:

- freym – odatiy (stereotip) vaziyatning statik tasviri bo‘lib, umumiyl mazmuni asosiy va fakultativ xususiyatlarning majmuasiyi, ya’ni tugun va terminallarni tashkil etadi (M. Minskiy);
- ssenariy – stereotipik vaziyatning dinamik ruhiy tasviri, ssenariy – harakat belgisiga ega stereotipik epizod yoki fazo-vaqt dinamikasidagi ramka;
- geshtalt (nemis. geshtalt – “tasvir, tuzilish, yaxlit shakl”) shaklidagi yaxlit struktura aks ettirilgan denotativ vaziyatning turli xil sezgi va ratsional elementlariga e’tibor qaratadi¹⁰.

Konsept termini birinchi bo‘lib faylasuf S.Askoldov tomonidan XX asrning birinchi choragida, ya’ni 1928-yili ilmiy muomalaga kiritilgan. Ko‘pgina manbalarda “konsept lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” so‘zining kalkasidir” deya ta’rif berilgan.

V.N.Yarseva tahriri ostidagi “lingvistik ensiklopedik lug‘at (Лингвистический энциклопедический словарь)da quyidagicha

⁹Маслова, В. А. Когнитивная лингвистика: учеб. пособие [Текст] / В. А. Маслова. – Мн.: Тетра Системс, 2004. – С. 256.

¹⁰ Кречетова И.Ю. Новое в лингвистике: учебное пособие / Кречетова И.Ю. – Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2005. – С. 33.

ta’rif keltirilgan: Konsept (lot. conceptus – idrok etish, anglash) ongning strukturaviy-mazmuniy birligi, fikrlash obyekti haqidagi bilimlar, g‘oyalar yig‘indisini aks ettiradi. Uni o‘rganishda kognitiv, lingvokonseptologik, semantik-kognitiv, psixolingvistik va lingvomadaniy kabi yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga, “konsept” va “tushuncha” so‘zлari ma’no jihatidan bir-biriga yaqin hisoblansada, ular o‘rtasidagi farqni ilg‘ab olish qiyin emas, “tushuncha tafakkurning mantiqiy shakllaridan biri hisoblanib, insonlar u yordamida voqelikni anglaydilar”¹¹. M.V.Pimenova ham mazkur ikki so‘zning farqini aytib o‘tgan: So‘zning leksik ma’nosini va konseptning farqi ularning kategoriyalarida ko‘rinadi, ya’ni so‘zning leksik ma’nosini tilning semantik maydoni birligi hisoblanadi, konsept esa inson tafakkuri mahsuli bo‘lib, nutq orqali fikrni bayon qilish jarayonini amalga oshirishda ishtirok etadigan ifoda shakli hisoblanadi. Konsept termini so‘z ma’nosining mohiyatidan kengroqdir, chunki konseptlar millat tarixinining rivojlanishi mobaynida ham o‘z strukturasi va uni tashkil qiluvchi belgilarni yo‘qotmaydi¹². Konsept va tushunchaning asosiy farqi shundan iboratki, tushuncha lisoniy ong mahsuli bo‘lsa, konsept mental ong natijasidir. Shu bilan birga, bu ikki so‘zning ma’no jihatidan bir-biridan farqini V.B.Zusman bergen ta’rifdan ham bilib olish mumkin: konsept potensial subyektivlikdan iborat, tushuncha esa hamma turdagи subyektivlikni qarama-qarshi qo‘yadi¹³.

Demak, konsept subyektiv, ya’ni doim shaxs bilan bog‘liq mental hodisa, tushuncha esa umumiyl, barchaga tushunarli bo‘lgan lisoniy qonuniyatdir. Mazkur ikki so‘z bir qarashda bir-biridan farq qilsa-da, aslida ular o‘zaro aloqador.

¹¹ Лингвистический энциклопедический словарь, –Москва, 1990. – 685 с.

¹² Пименова М.В. Концептуализация и объективация истины и правда// Язык. История. Культура: К 50-летию Кемеровского Государственного Университета и 25-летию юбилею кафедры исторического языкознания и славянских языков КемГУ: Тез.док. – Кемерово, Графика, 2003. – С.6–17.

¹³ Зусман В.Б. Концепт в системе гуманитарного знания: понятие и концепт// Вопросы литературы. Сб.науч.тр. – Москва, Академия пед.наук, 2003.– №2. – С.3–29.

Model – (fran.modele, lot.modulus) “o‘lchov” ma’nosini anglatadi. Tilshunoslikda model sun’iy ravishda yaratilgan, soddalash-tirilgan, takomillashtirilgan aqliy yoki haqiqiy qurilma. Lingvistikada model, asosan, mavhum va ideallashturilgan bo‘ladi¹⁴.

Model bilan konseptga izoh berar ekanmiz, G.Lakoffning “Women, fire, and dangerous things” nomli kitobida fikrlar, asosiy manbalar keltirilganini aytib o‘tish joiz: “Bilimlarimizni ideallashtirilgan kognitiv modellar yoki IKMlar deb ataladigan tuzilmalar nuqtayi nazaridan tartibga solamiz va kategorik tuzilmalar hamda prototip effektlar ushbu bilimlarning qo‘srimcha mahsulotidir. Biz kognitiv modellar haqidagi g‘oyalarni to‘rtta manbadan olganmiz: Fillmorning freym semantikasi, G.Lakoff va M.Jonsonning metafora va metonimiya nazariyasi, R.Langakerning kognitiv grammatiskasi va G.Fokonyening mental bo‘shliqlar nazariyasi¹⁵”. Ayni paytda model haqidagi g‘oyalalar bir necha tilshunoslар ishlariga tayangan holda keltirilgani ham aytib o‘tiladi.

E.S.Kubryakova va boshqalarning “Kognitiv terminlarning qisqacha lug‘ati” (Краткий словарь когнитивных терминов)¹⁶ nomli lug‘atda kognitiv model xususida to‘xtalib o‘tilgan va mazkur model uch holatda ko‘p ishlatilishi aytilgan: “Kognitiv model (kognitiv model; kognitives modell; modclc cognitif) - kamida uchta ma’noga ega atama:

1. Til – kognitiv jarayonining turlaridan biridir. Unda til va uni anglash bilim, saviyaga bog‘liq va kognitiv lingvistikada bu yagona tur hisoblanmaydi.

2. Til ma’lumotlarini qayta ishlash jarayonida matnni tushunish modeli. Aynan aqliy qurilish matn modellari, tushunish kognitiv modeli yoki matnni qayta ishlash kognitiv modelini, individual vaziyatlar kognitiv modelning qayta shakllantirilishini

¹⁴ Ярцева В. Н. Глав.ред., Лингвистический энциклопедический словарь, – М., 1990, – С.304.

¹⁵ Lakoff J. Women, fire, and dangerous things. The university of Chicago press, 1987, – Р. 275.

¹⁶ Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов, факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, – М., 1990, – С.56.

talab qiladi. Kognitiv model qurilishida nutq, vizual idrok etish kabilardan iborat kognitiv modellashtirish axborot jihatidan mustaqil modullarning tarkibini o‘zaro ta’sir mexanikasi hamda arxitekturasini aniqlaydi.

3.Tilda kategoriyalash jarayonining xususiyatlari: Masalan, G.Lakoff ma’lumotlariga ko‘ra¹⁷ kognitiv modelning to‘rt turi mavjud, ular: propozitsion, sxematik (majoziy), metaforik va metonimik; aslida u fikrlash mexanizmlarini va inson ongining kontseptual tizimini shakllantirishda tafakkurning asosi sifatida tasvirlaydi. Bunday tushunchalar kognitiv lingvistikadagi turli yondashuvlarni (sinonimlar: kontseptual maydon, sahna, sodda model – “folk model”) birlashtiradi va ma’nosini aniqlashtirish uchun manba bo‘lib xizmat qiladigan bilimlar tuzilishiga mos keladi. G.Lakoffning fikriga ko‘ra, “tajriba realizmi” (“experiential realism” yoki eksperimentalizm) doirasida kognitiv model nazariyasi empirik ma’lumotlarni tavsiflash uchun turkumlashtirish, yangi ma’no va sababning an’anaviy qarashlaridan foydalanishi kerak va quyidagi taxminlarga asoslanadi:

- bevosita kontseptual tizimlarimizning asosiy qismi bo‘lib, jismoniy-sotsial ma’umotlarni qabul qilish, tana harakatiga asoslangan shaxsning ijtimoiy tajribasi;
- majoziy fikr xususiyat kasb etadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajribaga tayanmagan tushunchalar, metafora, metonimiya va “mental tasvirdan foydalanib, tashqi voqelikni aks ettirish yoki ifodalash;
- fikr geshtalt xossalariiga ega, shuning uchun atomistik emas; tushunchalar kontseptual “qurilish bloklari” ni yonma-yon qo‘yish, ya’ni qat’iy qoidalarga amal qilmaydigan umumiy tuzilishga ega;
- fikrlash mexanik manipulyatsiyadan ko‘proq narsadir, u mavhum belgilari va ekologik tuzilishga ega. Kognitiv qayta ishslash samaradorligi (masalan, o‘rganish va yodlash) kontseptual tizim-

¹⁷ Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. The university of Chicago press, 1987, – P. 275.

ning umumiyligi jihatiga bog‘liq va unda qaysi tushunchalar aynan hozir ishtirok etishi muhimdir¹⁸.

Demak, kognitiv modelni yuqoridagi uch holatda ko‘rish mumkin va mazkur ilmiy ish doirasida uchinchi, ya’ni G.Lakoffning fikriga qo‘shilgan holda, tilda kategoriyalash jarayoni xususiyatlariga asoslanib, ikkinchi bobda frazeologik birlıklarni tahlil etamiz.

Shu bilan birga, N.Boldirev ham o‘zining “Kognitiv lingvistikating konseptual maydoni” (Концептуальное пространство когнитивной лингвистики)¹⁹ nomli maqolasida freymga izoh berib o‘tar ekan, “freym har doim ma’lum bir komponent va uning boshqa komponentlar bilan o‘zaro aloqasini tizimli ifodalovchi, odatda, tez-tez qaytariluvchi holatlarni anglatuvchi bilimlar jami bo‘lib, xuddi kognitiv model kabi”, muayyan strukturaga ega ekanligi va bu bilan konseptdan farq qilishini, ayni paytda, o‘zaro bir-birini taqozo etishini ta’kidlaydi.

Xitoy lisoniy tafakkurida “五福[wūfú] baxt” haqida tasavvurlar va uning konsept sifatida shakllanishi

Har bir millatning milliy mental ongidagi o‘zgarishlarni, olamning lisoniy tasvirini o‘rganishda paremiyalar katta o‘rin egallaydi. Shuningdek, “baxt” tushunchasini xalqning kummulyativ tajribalarini o‘zida jam qilgan frazeologik birlıklar misolida tadqiq etish mazkur jarayonda alohida o‘rin tutadi til materialida. Xitoyliklar lisoniy ongida baxtga bo‘lgan munosabatni 五福 [wūfú] tushunchasida kuzatish mumkin, biroq uning so‘z sifatida umumiyligi lug‘aviy ma’nosini 福 [fú] iyeroglifi aks ettirib, baxt, omadni ifodalaydi. Konfutsiylikning asosiy qonunlaridan biri “Marosimlar kitobi²⁰”da (miloddan avvalgi IV-I-asrlar) shunday deyiladi: “福 [fú] - bu omad”. Undan

¹⁸ Краткий словарь когнитивных терминов, Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова. – М., 1997. – С.22.

¹⁹ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики, //Вопросы когнитивной лингвистики. – М., 2004. – С.18–36.

²⁰ Roy D. T., Tsien T. H. Ancient China: Studies in Early Civilization. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1978. – P.97.

tashqari 福 [fú] iyeroglifining yashirin ma’nosi bo‘lib, u tijoratdagi farovonlik, hayotdagи barcha hodisalarning to‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanishini ifodalaydi. I.M.Oshanin tahriri ostidagi “Katta xitoycharuscha lug‘at” (Большой китайско-русский словарь)да 福 [fú] iyeroglifi “farovonlik”, “duo va qurbanlikka keltirilgan taom”²¹ kabi ma’nolarni anglatishini ko‘rish mumkin. Xitoyda katta bayramlar yaqinlashganda, ayniqsa, Xitoy yangi yili arafasida qizil rangli qog‘ozga siyoh bilan yozilgan suratlar yoki mazkur iyeroglif tasvirlangan turli tabriknomalarning devorlarda, eshiklarda ilib qo‘yganini ko‘rish mumkin. 福 [fú] iyeroglifi, hatto kiyim-kechak, sovg‘alar, o‘yinchoqlar va zargarlik buyumlariga tushiriladi. Bularning barchasi xitoyliklar 福 [fú] iyeroglifi o‘ziga omad va baxtni chaqirishiga ishonishlaridan dalolat beradi. Qadimdan xitoyliklar 福 [fú] iyeroglifiga o‘zgacha munosabatda bo‘lishgan, baxt va barcha turdagи farovonlik tushunchalarini o‘z ichiga olgan bu iyeroglif xitoyliklarning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liqdir va ular dunyoning sodda tasvirini, olamning lisoniy manzarasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Qadimgi Xitoyda u 福气 ([fúqi] - *baxtli bo‘lmoq*), 福运 ([fú yùn]²² – *baxtli (chiroyli) taqdir*) ma’nosini anglatgan. Hozirda esa zamonaviy xitoy tilida yoshlar ko‘pincha 福 [fú] iyeroglifini tor ma’noda 幸福 ([xìngfú] – *baxt*) ko‘rinishida ishlatadi. 福 [fú] iyeroglifi xitoyliklar tomonidan juda ko‘p foydalanilgan va to‘xtovsiz rivojlangan, shu sababdan ham Xitoy madaniyatida 福 [fú] iyeroglifi fenomenining butunlay barqaror yaxlit tizimi shakllangan”²³.

Qadimgi xitoy etimologik lug‘ati “细说汉字”²⁴ [xì shuō hànzì] da yozilgan so‘zlarga muvofiq 福 [fú] baxt iyeroglifi bo‘lib, mazkur iyeroglifning chap qismida odamlarning Osmon ma‘bululari va ajdodlari bilan bog‘liqligi ramzi bo‘lgan mehrob saqlanib qolgan, o‘ng tomonida esa idish o‘rniga bir raqami, og‘iz va dala

²¹ Большой китайско-русский словарь. Т. 1–4. –М.: Hayka, 1983;1984. – С.1062.

²² http://www.kitaichina.com/se/txt/2016-02/05/content_712836.htm

²³ http://www.kitaichina.com/se/txt/2016-02/05/content_712836.htm

²⁴ 左民安,《细说汉字:1000个汉字的起源与演变》,九州出版社 2005-3. 608-页.

tasvir etilgan. Bunda bir raqami tom, ya’ni uyni, og‘iz esa bu o‘sha uyda yashovchi insonni, dala esa ishlov berilgan yer, ya’ni oziq-ovqatni bildirishini taxmin qilish mumkin. Buni quyidagicha ham izohlash mumkin, ya’ni og‘iz – inson, dala – oziq-ovqatni bildirib, bir inson baxti uchun oziq-ovqat va kiyim-kechak yetarli ekanini ko‘rsatmoqda. Oziq-ovqat ming yil avval bo‘lgani kabi hozirda ham inson uchun zarur bo‘lgan eng asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Demak, baxt deganda qadimgi xitoyliklar Tangri va ma’bdularning homiyligini tushunganlar. Bu iyeroglifda aynan Tangri o‘rnatgan axloqiy prinsiplarga rioya etib, ham ma’bdularni, ham ajdodlarni e’zozlab yashagan inson hayot uchun lozim bo‘lgan – uy-joy va oziq-ovqat kabi ne’matlarning barchasiga ega bo‘lishi, aynan baxtga erishishini ifodalayotganini kuzatish mumkin.

甲骨文 [jiāgǔwén] (miloddan avvalgi XIV–XI asrlarga tegishli Shang davrining ikkinchi yarmi), ya’ni toshbaqa qobig‘i va suyaklardagi folbinlik yozuvlarida 福 [fú] iyeroglifiga quyidagicha ta’rif keltirilgan: mazkur iyeroglif ikki qismdan iborat bo‘lib, chap tomonda 示 [shí] qurbongohni, o‘ng tomonda esa sharob tutib turgan ikki qo‘l, ya’ni insonlar qurbongohga sharob quyib, ma’bdularga iltijo qilayotgani ifodalangan. Shunday qilib, ular osmondan, Tangridan, ma’bdulardan baxtni so‘raganlar.

Shu kunga qadar evolyutsion shaklda rivojlanib kelayotgan 福 [fú] iyeroglifi zamonaviy Xitoyda bir necha alohida bo‘laklardan iborat: 衣 [yī], — [yī], 口 [kǒu], 田 [tián]. 衣 [yī] iyeroglifi omad va martabani ifodalab, 福 [fú] iyeroglifiga quyidagicha talqin berilgan: 一口田, 衣祿全 [yīkǒu tián, yī lù quán] ya’ni o‘z dalsiga ega, omadli, baland martabalarga erishish²⁵.

I.M.Oshanin²⁶ tahriri ostida nashr qilingan “Katta xitoycharuscha lug’atda” (Большой китайско-русский словарь. 1983-1984) lug’atda 福[fú] iyeroglifiga quyidagi izohlarlar berilgan:

²⁵ O‘sha manba.

²⁶ Большой китайско-русский словарь. Т. 1–4. М.: Hayka, 1983-1984. – С.1062.

福(2815) [fú] – baxt I ot 1) baxt, farovonlik; baxtli; 享~ baxtdan bahramand bo‘lish; ~运 baxtli taqdir; 2) duo, marhamat (ne’-mat), osmondan yuborilgan marhamat, baxt tilamoq; 托~ (muloyim.) Sizning duolaringiz ila; 3) muloyim.: to‘liqlik, do‘mboq: 他变了~了 u semiribdi; 4) qadimi: qo‘llarni bukib ta’zim qilmoq (ayol kishining ta’zimi); 5) qadimi: qurbanlik qoldiqlari, qurbanlikka keltirilgan taom; ~酒 qurbanlik sharobi qoldig‘i, ~胙 qurbanlik go‘shti qoldiqlari.

II fe’l 1) baxt tortiq qilmoq, bag‘ishlamoq, duo qilmoq; ~善祸淫 [shàn huò yín] yaxshilarga ketma-ket baxt ato etish, yomonlarga ofat (qilmish- qidirmish); ta’zim qilmoq (ikki qo‘lini bukkan holdagi ayol kishining ta’zimi nazarda tutilmoqda) ~了~ [ayol] u ikki qo‘lini bukib ta’zim qildi.

III atoqli. 1) geografik qis. a) Fuzyan; ~海关 Fuzyan bojxonasi (Sanduaoda); ~橘 fuzyan mandarini (meva navi); b) Fujou shahri; 2) Fu (familiya) .

福 fú (幸福) baxt; yaxshilik; ezgu amal (幸运) omad. 身在~中不知~ shēn zài ~zhōng bùzhī ~ siz farovonlikda yashaysiz, lekin uni qadrlamaysiz (tushunmaysiz); nima bo‘lsa ham doim norozi bo‘lmoq.

Demak, 5000 yillik xitoy tafakkurida 福[fú] iyeroglifining o‘rni katta va beqiyosdir. Xitoy an’anaviy madaniyatida 寿[shòu], 祿[lù], 喜[xǐ], 财 [cái] (baxt, martaba, uzoq umr, quvonch, boylik) tushunchalari orasida birinchi o‘rinni 福[fú] iyeroglifi egal laydi. Keyingi to‘rtta iyeroglifdan farqli, nomoddiy va o‘ziga xos ma’noga ega. Biroq frazeologik birliklarni tahlil qilish jarayonida 福[fú] iyeroglifi va qolgan to‘rtta iyeroglif o‘zaro bog‘liqligi hamda biri ikkinchisini taqozo qilishi kuzatiladi. Albatta, xitoy xalqi mental ongida baxt deganda 福[fú] iyeroglifi tasavvur qilinsada, biroq frazeologik birliklarda “baxt”ni ifodalash uchun yana 寿 [shòu] uzoq umr, 祿[lù] martaba (mansab), 喜[xǐ] quvonch (tantana,

oila bilan bog‘liq marosimlar), 财 [cái] boylik kabi komponentlar mavjud. Demak, xitoy tilida baxtni 福 [fú] iyeroglifi bilan berilsa-da, biroq “to‘liq baxt”ni, aynan 五福 [wǔfú] anglatadi.

Xitoy lisoniy manzarasida sonlar, ayniqla, birlik sonlarning har biri ramziy ma’noga ega. Xitoy tilida o‘rniga qarab birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlar ijobiyligi yoki salbiyligi ifodalay boshlagan. Xitoy madaniyatining taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan dunyoqarashlar, falsafiy oqimlar, buddizm, daosizm, Konfutsiy ta’limoti ta’sirida birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlar xalq mentalitetida ijobiyligi yoki salbiyligi holat bilan assotsiatsiyalashgan. Natijada bu sonlar ishtirokidagi iboralarda ham salbiyligi yoki ijobiyligi sonlarning qo‘llanuviga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan. Aksariyat hollarda ijobiyligi tasavvurga ega son ishtirokidagi iboralar inson hayoti va faoliyatida ma’qul baholanadigan vaziyatlar, fazilatlar, xatti-harakatlarni izohlashda qo‘llaniladi²⁷.

Xitoyliklarning baxtga bo‘lgan munosabati bir necha ming yillik xalqning kummulyativ tajribalaridan kelib chiqqan. Baxt tushunchasi xitoyliklar milliy mental ongida 五福 [wǔfú] bilan bog‘liq bo‘lib, milliy bayramlarida ham 五福临门 [wǔfú línmén]²⁸ kabi qizil qog‘ozdagi yozuvlarni uchratish mumkin. Xitoyliklarning barchasi 五福 [wǔfú], ya’ni to‘liq baxt o‘z ichiga beshta iyeroglifni olishi va u barchaga baxt olib kelishiga ishonadilar.

Qadimdan besh soni 五[wǔ] sirli, sehrli (jodu) tushunchasiga ega bo‘lgan, zotan, borliq tuzilishining modeli besh qismli hisoblangan: shimol, janub, g‘arb, sharq, markazda esa – Samo osti. Bundan tashqari, dunyoning asosini besh unsur tashkil etishi haqidagi ta’limot ham bu son bilan chambarchas bog‘liq²⁹.

²⁷ Мавлянова У. Х. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил: филол.фун.номз... дисс. – Т., 2020. – Б 39.

²⁸ Sung V. Five-fold happiness: Chinese concepts of luck, prosperity, longevity, happiness, and wealth. 9050 Shaughnessy Street, Canada: Raincoast Book. – Canada., 2002. – P.54.

²⁹ Мавлянова У. Х. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил: филол.фун.номз... дисс. – Т., 2020. – 155 б.

Xitoy tilida tabiat unsurlari bilan aloqador ekani hamda besh tarafni ifodalagani sabab besh soniga bo‘lgan munosabat o‘ziga xosligini kuzatish mumkin. Xitoyliklarning dunyoga bo‘lgan munosabatida falsafiy jihatdan butun borliqni, koinotni In va Yan kuchlari tashkil qiladi va ularning o‘zaro uyg‘unligi orqali olamda tinchlik yaralishi haqida qarashlar mavjud. Aynan In va Yan suratidan besh iyeroglifi shakli kelib chiqadi³⁰. Demak, dunyo yaralishi va uni ushlab turuvchi kuch, tabiatdagi o‘zaro mushtaraklikni anglatgani bois ham besh iyeroglifi xitoyliklar milliy ongida boshqa sonlardan yuqoriroq o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari, quyidagi qarashlarni ham ko‘rish mumkin: “beshta asosiy rang (ko‘k, qizil, sariq, oq, qora), qadimgi Xitoy musiqasida ham besh ton mavjud. Bu raqamning dunyoni harakat, rivojlanish va o‘zgarishlarga olib borishiga ishonib, xitoyliklar uni tibbiyot (beshta ichki organlar va beshta his qilish organi), astrologiya bilan bog’laydi: beshta asosiy sayyoralar (五星³¹ [wǔxīng]: Jupiter, Mars, Saturn, Venera, Merkuriy. Quyosh va oy bu ro‘yxatga kiritilmagan. Chunki ular in va yan tamoyillarining aniq timsoli hisoblangan³²”. Shu bilan birga, aynan besh soni bilan bog‘liq, ya’ni beshta komponentni o‘z ichiga olgan bir necha atamalarni kuzatish mumkin. Masalan: 五行[wǔxíng], 五伦[wǔlún], 五纬[wǔwèi], shuningdek, bevosita baxt haqidagi qarashlar bilan bog‘liq 无为[wúwéi], 三多[sānduō] kabilardir. 五行[wǔxíng], 五伦[wǔlún], 五纬[wǔwèi] kabilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri baxtni ifodalamasa-da, biroq ular o‘rtasida qisman bog‘liqlik mavjud. Buni quyidagi izohlarda ham kuzatish mumkin.

五行[wǔxíng] besh unsurni ifodalab, o‘z ichiga tuproq, yog‘och, metall, olov, suvni qamrab oladi. Mazkur atama dunyo yaralishidagi asosiy model sifatidagi qarashlar ham mavjud. 五行

³⁰ Ан С.А., Ворсина О.А., Песчанская Е. В. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012/4 (32). – С.66–70;

³¹ <https://bkrs.info>.

³² O’sha manba.

[wǔxíng] energiya, harakat o‘lchovi, ya’ni beshta energiyadir. 五行[wǔxíng] bizning davrimizgacha qadim zamonlardan avloddan-avlodga o‘tish orqali ramzlar ko‘rinishida yetib kelgan tizimdir³³.

五伦³⁴ [wǔlún] konfutsiychilikda insonlararo munosabat-larning asosiy me’yorlarini ifodalaydi. Bunday munosabatlar bir necha qatlamlarga bo‘linadi: hukmdor va saroy a’zolari, ota va o‘g‘il, katta va kichik (aka-uka), er va xotin. Mazkur beshlik ham qisman baxt konseptini o‘z ichiga olib, aynan 祸由恶作, 福自德生 [huò yóu è zuò, fú zì dé shēng] insondagi yomonlik, musibatlar manbayi, insondagi yaxshi xislatlar baxt manbayidir, ya’ni go‘zal axloq baxtli hayotga yo‘l ochadi. 三多[sānduō] (asosan duo yoki tabrik so‘zlarda) xitoyliklar milliy mental ongida ko‘pchilik orzu qilgan uchtadan tilaklarni o‘z ichiga oladi:

- omad, uzoq umr va avlod qoldirish (asosan o‘g‘il farzand);
- yozuvchi uchun ko‘p o‘qib ilm olish, ijod qilish va davra suhbatlaridagi muhokamalarda ishtirok etish;
- olim uchun ilmi yuksaltirib borish, mulohaza qilish va fikrlarini boshqalarga to‘g‘ri yetkaza olish.

Yuqoridagi barcha tilaklarni aynan 五福[wǔfú] komponentlari o‘zida mujassamlaydi. Garchi besh iyeroglifi uchramasa-da, biroq mazkur tushuncha ham baxt bilan bog‘liq. Aynan 五福 [wǔfú]ning barcha komponentlari konnotativ ma’nosи bilan bog‘lash mumkin.

无为 [wúwéi] (Daoizmning harakatsizlik ta’limoti: “noharakat”; so‘zma-so‘z, “hech qanday harakat”), ya’ni bu yerda harakat deganda, “koinotning tabiiy yo‘nalishiga to‘g‘ri kelmaydigan hatti-harakatni qilmaslik³⁵” tushuniladi. Xitoy falsafasida,

³³ Dana K.A. Influence of Usin philosophy on the etymology and semantics of the Chinese language (on the example of certain groups of words) // Russia-China: history and culture. Kazan: 2020. – P.35.

³⁴ <https://baike.baidu.com/item>.

³⁵ <https://www.britannica.com/topic/wuwei-Chinese-philosophy>


ayniqsa, miloddan avvalgi IV va III asrlardagi ilk daosizm faylasuflari (道家[dàojiā]) amaliyoti alohida ahamiyatga molik. Ayrim xitoy mutafakkirlari (miloddan avvalgi 475–221) doimiy ravishda vujudga keladigan dinamik olamni tasavvur qilganlar. Daochilarining fikriga ko‘ra butun kosmos yo‘lining (道[dào]) tinimsiz tebranishlari orqali o‘z-o‘zidan (自然 zìrán) ochiladi. Koinotdagi barcha narsalar, shu jumladan, odamlar ham bu kosmik yo‘lga mos keladi, agar to‘siq bo‘lmasa, baxtli bo‘lib, gullab-yashnaydi. Biroq, insonlar mantiqiy fikrlash, til, madaniyat va hukumat orqali bu tabiiy yo‘nalishga aralashib, sun’iylik uchun o‘z-o‘zidan voz kechadi. Bunday qarashni paremiyalarda ham kuzatish mumkin: 在生一日，胜死千年 [zài shēng yī rì, shèng sǐ qiānnián] ming yillik o‘limdan bir kunlik hayot yaxshi, ya’ni inson ga taqdim etilgan hayotdan qoniqish va rohatlanishni ifodalamoqda. Yana bir misol keltirib o‘tsak, 知足常乐 [zhīzú cháng lè] inson hayotidan qanoatlansa baxtli bo‘ladi. Ushbu tushuncha, asosan, shukronalik bilan umr kechirishni, har bir inson hayotida uchragan yaxshi va yomonliklardan minnatdor bo‘lishlishni anglatadi.

Keltirilgan tushunchalar baxt bilan bevosita va bilvosita bog‘liqdir. Xitoyliklar azaldan baxtni ifodalash va uni anglashga harakat qilgan. Shu sabab, 五福 [wǔfú] “to‘liq baxt” model sifatida o‘rganiladi va komponentlari tahlilga tortiladi.

Yuqoridagi misolda ko‘rsatilgandek xitoy tilida “baxt” ma’nosini tarjimada ifodalovchi iyeroglyph bitta bo‘lsa-da, biroq umumiylar baxt tushunchasi, u bilan bog‘liq tasavvurlarni tushuntirib beruvchi 五福 [wǔfú] hisoblanadi. Dastlab, 五福 [wǔfú] tushunchasi qadim Xitoyning Djou (mil.av.1046-256) sulolasiga davridagi Shujing kitobida keltirilgan. “五福 [wǔfú]” xitoy tilida beshta ne’mat ma’nosini anglatib, Xitoy xalqining lisoniy tasvirida baxtni ifodalaydi. 書經 [shūjīng] dagi (Hujjatlar kitobi) 《書·洪范》 Hóng Fàn epizodiga(bob) nazar tashlasak, beshta ne’matning

ma’nosи “sog‘lik”, “uzoq umr” (壽[shòu]), “boylik” (富[fù]), (康寧 [kāngníng]), “ezgulikka bo‘lgan muhabbat” (攸好德[yōu hǎo dé]) va “tinch o‘lim”dir (考終命[kǎozhōngmìng])³⁶. 壽[shòu] uzoq umr va 富[fù] boylik birlamchi, 康寧[kāngníng] xotirijamlik va sog‘liq, 攸好德[yōu hǎo dé] ezgulikka bo‘lgan muhabbat, ya’ni inson yaxshi fazilati nazarda tutilgan, 考終命[kǎozhōngmìng] keksalikdagi tabiiy o‘lim, bu shaxsiy hayotning ajratilgan davrini ham ruhiy, ham ijtimoiy qulaylik, taqdirni qabul qilish va xotirjamlik bilan yakunlash deb talqin qilinadi. 《書·洪范》：“五福：一曰壽，二曰富，三曰康寧，四曰攸好德，五曰考終命。”³⁷ [shūjīng]-ning (Djou sulolasi, mil.av.1046-256) 洪范[Hóng fàn] o‘ramida (bob) 五福 [wǔfú] haqida aytib o‘tilganini kuzatish mumkin:

(1-model)




Biroq yillar davomida hukumat, jamiyat yangilanishi bilan 五福 [wǔfú] komponentlari ham o‘zgarib borgan va Xan sulolasi (mil.av. 206-220-yillar) davriga kelib, faylasuf Huan Tan (mil.av. 43-28-yillar) tomonidan yozilgan 新論[xīn lùn] “Yangi munozaza-

³⁶ Roy D. T., Tsien T. H. Ancient China: Studies in Early Civilization. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1978. – P.67.

³⁷ <https://confuciusinstitute.unl.edu/The/Documents.pdf>

ralar” deb nomlanuvchi kitobiga ko‘ra besh ne’mat komponentlari biroz boshqasiga o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Bular: 富 [fù] boylik, 壽[shòu] uzoq umr, 貴[guì] hukumatdagi farovonlik, 安樂 [ānlè] xotirijamlikda yashash (sihat-salomatlikni ham ifodalaydi) va 子孫眾多[zǐsūn zhòngduō] unumdorlik (avlod qoldirish). 新論 [xīnlùn] “Yangi munozaralar” deb nomlanuvchi kitobida kel-tirilgan “tug‘ish va unumdorlik” ma’nosi bilan Shujin kitobida qayd etilgan “tinch o‘lim” ma’nosi bir-biriga zid bo‘lib, bunda jamiyat qarashlari o‘zgarganini kuzatish mumkin. Biroq 貴 [guì] ning ma’nosni Shujin kitobida tilga olingan 倚好德 [yōu hǎo dé] ma’nosini emas, balki “davlat va jamiyatdagi vakolati va o‘z ulushini taqsimlash” semasini bildiradi³⁸.

(2-model)



桓譚(Huán Tán) 《新論》：“五福：壽、富、貴、安樂、子孫眾多 Xan sulolası davrida (mil.av. 206-220-yillar) faylasuf Huan Tan (mil.av. 43-28-yillar) 新论 xīnlùn asarlarida qayd etgan. 壽 [shòu] uzoq umr va 富[fù] boylik birlmachi, 貴[guì] hukumatga

³⁸ Joseph Needham. Science in Traditional China: A Comparative Perspective. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1981. – 267 p.

itoat, farovonlik komponenti Konfutsiylik 五伦[wǔlún] qarashlari sabab 安樂[ānlè] farovonlikda, xotirijamlikda yashash yuqoridagi xotirijamlik va sog‘liq komponenti bilan o‘xshash. 子孫眾多[zǐsūn zhòngduō] unumdorlik (avlod qoldirish) beshinchi komponent ikki misolda bir-biriga zid. Jamiyatni tanatos³⁹ qarashlardan erosga o‘z-garganini ko‘rish mumkin. Demak, 五福 [wǔfú] komponentlari o‘zgarsa ham, ayrimlari tub ma’nosini saqlab qolgan, ba’zilari esa jamiyat va hokimiyat o‘zgarishi bilan o‘z o‘rnini boshqa iyerog-lifga bo‘shatib bergen. Aynan to‘liq baxt modelini kuzatish orqali ham Xitoy xalqi milliy mental ongidagi o‘zgarishlardan voqif bo‘lamiz.

Min sulolasi (1368-1644) davriga kelib, 五福 [wǔfú] komponentlari tartibi va tarkibi o‘zgargan. Bu quyida keltirilgan misolda yaqqol ko‘zga tashlanadi: 福 [fú] baxt, farovonlik birlamchi komponent, 祿 [lù] martaba (ilm) bilimga bo‘lgan ehtiyoj, 寿 [shòu] uzoq umr uchinchi komponentga aylangan, 喜 [xǐ] quvonch, marosim (oila bilan bog‘liq marosim, keyinchalik barcha misollarda **oila** deb berilgan), 财[cái] boylik (savdo). Yuqorida keltirilgan ikki misolda 寿 [shòu] uzoq umr va 财 [cái] boylik komponentlari birlamchi ekanini anglashiladi. Biroq so‘nggi misolda, ya’ni Min sulolasi davridagi modelda biri uchinchi, ya’ni biri esa beshinchi o‘rinda aks etgan. Bundan jamiyatdagi xalqning lisoniy manzarasidagi o‘zgarishlar baxtga bo‘lgan munosabatning komponentlar o‘zgarishiga ularning iyerarxiyasiga ta’sir ko‘rsatadi, degan fikrga kelish mumkin⁴⁰.

³⁹ <https://voluntary.ru/slovare/bolshoj-tolkovyj-sociologicheskij-slovar.html>.

⁴⁰ Valieva N. Evolutionary development of the concept “happiness” in chinese language (on the example of models) // Asian Journal of Multidisciplinary Research Volume - 10, Issue- 4, 2021. – P.707.

王树邨- 福祿寿喜财 (Wáng Shùcūn , Min sulolası 1368-1644)
 (3-model)



Yuqoridagi keltirilgan modeldan komponentlar tarkibi va iyerarxiyasi katta o‘zgarishga uchraganini ma’lum bo‘ladi. Zamanaviy Xitoyda aynan mazkur model ommabop hisoblanib, bayram tabriknomalari, devor suratlarida uchratish mumkin. Masalan, 五福临门 [wǔfú línmén] iborasi xitoyliklar orasida, ayniqsa, Xitoy yangi yilda *baraka*, *baxt* tilash mazmunida ishlatiladi. Xitoyliklar har bir oila a’zosi 福[fú] (baxt,omad)ga yetishishiga umid qiladilar, 祿[lù] iyeroglfini, ya’ni o’z oila a’zolariga ishlarida sharaf yoki mavqega ega bo‘lishlariga, shunda ular farvonlikka erishishlari mumkinligiga, 寿 [shòu] esa uzoq umr ko‘rishlariga umid qilishni ifodalaydi. 喜 [xǐ] yosh yigit-qizlarga turmush qurishga yoki erxotinlarga farzand ko‘rishga ishora qiladi. Xitoyliklar 财 [cái] biznes, savdo yoki hosilni yig‘ib, ko‘p boylik orttirish imkonini beradi, deb umid qiladilar⁴¹. Yuqoridagi misoldan ham mazkur model “wufu”ni, ya’ni to‘liq baxtni ifodalashi va xitoyliklarning katta qismi orasida mashhur ekanini ko‘rish mumkin. “五福 [wǔfú]”

⁴¹ Sung, V. (2002). Five-fold happiness : Chinese concepts of luck, prosperity, longevity, happiness, and wealth. 9050 Shaughnessy Street, Canada: Raincoast Book. P. 18–19; 32–35; 70–71; 94–95; 156–157; 210–211.

to‘liq baxt modeli ekani, uning komponentlari miqdori o‘zgarmasada, biroq ma’nolari o‘zgarishi ilmiy ishning birinchi bobida ko‘rsatib o‘tilgan. Aynan osmon ne’matlarini ifodalovchi frazeologik birliklar xitoyliklarning milliy mental ongida to‘liq baxtga bo‘lgan qarashlari yaqqol namoyon etishini tahlillar davomida kuzatildi.

Zamonaviy tilshunoslikda xitoy tilidagi 五福 [wǔfú] baxt konseptini o‘rganishga doir yondashuvlar

Mazkur fasl doirasida ikki xil 五福 [wǔfú] ga oid rus tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan bajarilgan ilmiy ishlardagi yondashuvlar tahlil qilinadi. Li Syanxua, I.B.Smirnovlarning “Xitoy maqol va matallarida “baxt” konsepti” (Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках) nomli ishda keltirilgan 五福 [wǔfú] komponentlarini ko‘rib chiqsak: o‘z ichiga beshta asosiy komponent 长寿 [chángshòu] uzoq umr, 财富 [cái] boylik, 美德 [měidé] go‘zal xulq, 健康 [jiànkāng] sog‘liq, 自然死亡 [zìrán sǐwáng] tabiiy o‘lim (qariganda vafot etish)ni oladi. Mazkur modelning birinchi komponenti 长寿 [chángshòu] uzoq umr ekani ko‘rsatilgan. Xitoyliklar uchun uzoq umr ko‘rish yer yuzidagi beshta ne’matning birlamchisidir: 人间五福, 唯寿为先 [rénjiān wǔfú, wéi shòu wèi xiān] dunyoda baxtning besh turi bor, ularning birinchisi uzoq umr ko‘rish yoki yana bir misol: 人生七十古来稀 [rénshēng qīshí gǔlái xī] yetmish yil yashashning o‘zi baxt. Undan tashqari maqollarda uchraydigan turna zoonimi uzoq umr ko‘rish misoli sanaladi. Turna yer yuzidagi parrandalar shohi bo‘lib, u uzoq umr ko‘radi, shu bilan birga ruhlarni osmonga eltuvchi jonzot sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tomonga ham nazar solingan bo‘lib, Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligidagi o‘zgarish haqida yozib o‘tilgan. Shuningdek, qariyalarga hurmat o‘zgacha ekanini quyidagi misollardan ham ko‘rish mumkin: 家有一老, 如有一宝 [jiā yǒuyī lǎo, rú yǒuyī bǎo] Qarisi bor uyni parisi

bor, 百善孝为先 [bǎi shànxiào wèi xiān] Ota-onaga hurmat ko‘rsatish birinchi insoniy fazilatdir, 合家欢, 老人安 [Héjiāhuān, lǎorén ān] Ahil oilada keksalik ham sokin o‘tadi.

Mazkur konseptning ikkinchi komponenti sifatida 财富 [cái fù] boylik berilgan. “Boylik xitoyliklar tomonidan falsafiy jihatdan tal-qin qilinib, bu ham moddiy farovonlik, ham ma’naviy, ham intellektual boylik⁴²” degan fikr keltirilgan. Shu bilan birga xitoyliklar milliy madaniyatida boylikni ifodalovchi ramzlar mavjud bo‘lib, ulardan biri qo‘llarida oltin baliq va lotus guli ushlab turgan bola hisoblanishi ta’kidlangan. Katta miqdordagi boylik tushunchasi kutilmagan bo‘lishi, boshqalari esa insonni harakatiga bog‘-liqdir. Aynan shu qarashlarni ham qayd etilgan maqolada keltirilgan misollarda ko‘rish mumkin: 大富由命, 小富由勤 [dàfù yóu mìng, xiǎo fù yóu qín] Katta boylik taqdirdan, kichik boylik harakatdan, 生死有命.富贵在天 [shēngsǐ yǒu mìng fùguì zài tiān] O‘lim va hayot bari asli taqdiri azaldan, boylik esa Tangridan. Ayni paytda boylik bilan bog‘liq maqollarda moddiy qoniqish hissi ham baxtning konnotativ ma’nolaridan ekanligini ko‘rish mumkin, biroq muallif bu nuqtayi nazarni ilgari surmagan. Shunday bo‘lsa-da, ta’kidlanganidek boylik nafaqat moddiy, balki madaniy, ma’naviy hamdir. Masalan: 财是福之苗, 钱是人之胆 [cái shì fú zhī miáo, qián shì rén zhī dǎn] Boylik baxtning boshi, pul insonga ishonch bag‘ishlaydi. Ishdagagi boshqa bir misolda esa ma’naviy yetuklik ham boylik ekaniga ishorani ko‘rish mumkin: 和气生财 [héqì shēngcái] Boylik go‘zal qalb hisobiga o‘sadi, 不贪财, 祸不来 [bù tāncái, huò bù lái] Xasis bo‘lmasang, falokat senga yaqinlashmaydi. Boylik barqaror emasligi Xitoy madaniyatini ko‘rsatuvchi maqollarda ham aks etgan: 荣华草上露, 富贵瓦上霜 [rónghua

⁴² Ли Цианъхуа. Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках /Ли Цианъхуа, И. Б. Смирнов // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С. Пушкина. Серия Филология / гл. ред. В. Н. Скворцов. – СПб.: ЛГУ имени А.С. Пушкина, 2013. – № 3. – С.175–185.

cǎo shàng lù, fùguì wǎ shàng shuāng] Boylik xuddi tosh ustidagi shudring kabidir.

Mualliflar boylik bilan bog‘liq maqollarni lingvomadaniy hijatdan yoritishga harakat qilgan.

美德 [měidé] go‘zal xulq uchinchi komponent bo‘lib, xitoyliklar milliy xulq-atvorini namoyon qiluvchi asosiy axloqiy normalarini ifodalaydi. Ushbu komponent, asosan, Konfutsiy va Lao Tzi qarashlari ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, ularning asarlarida keltirilgan izohlar, misollarda kuzatish mumkin. Rus tilshunoslari ham aynan shu jihatini ta’kidlab o‘tishgan va quyidagi misolni keltirishgan: “Nega davlatni boshqarish uchun odamlarni o‘ldirish kerak? Yaxshilikka intilsang, xalq mehribon bo‘ladi. Oliyanob insonning axloqi shamol kabidir, pastkash kishining axloqi may-saga o‘xshaydi. Chunki shamol esgan joyda maysalar egiladi⁴³”. Konfutsiy qarashlari Xitoy milliy madaniyati qarashlarida, mental ongida chuqur iz qoldirgan va bu maqollar, matallar va frazeologik birlıklarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fazilatga Konfutsiy talqini ham yozib o‘tilgan bo‘lib, quyidagi fikr keltirilgan: fazilat bu Konfutsiy talqinida axloqiy va huquqiy normalarning keng majmui va marosimlar 礼 [lǐ] insonparvarlik qoidalarini o‘z ichiga olgan tamoyillar, 仁 [rén] odamlarga g‘amxo‘rlik qilish shu, ota-onalarga hurmat ko‘rsatish 孝 [xiào], hukmdorga sadoqat 忠 [zhōng], mas’uliyat 义 [yì] va boshqalar. Konfutsiychilik qarashlari jamiyat ongiga, kundalik hayotiga kuchli ta’sir qilganini ifodalovchi bir necha misollar mavjud: 但存方寸地，留与子孙耕 [Dàn cún fāngcùn de, liú yǔ zǐsūn gēng] Farzandlarda yaxshi fazilatlarni tarbiyalash, ularga yer bergandan yaxshiroq, 不要做你不想为自己给别人 [bùyào zuò nǐ bùxiǎng wèi zìjǐ gěi biérén] O‘zingga ravo ko‘rmasang, birovga ham qilma. Mazkur komponentning konnotativ ma’nolari qatorida birovga yomonlik qilmaslik, mehnatsevarlik, hamdo‘stlik, kamtarlik kabi hislatlar keltirib o‘tilgan: 儉是聚宝盆,

⁴³ Титаренко М. Л. История китайской философии / пер. с кит. – М.: Прогресс, 1989. – С. 56.

勤是摇钱树 [jiǎn shì jùbǎopén, qín shì yáoqiánshù] kamtarlik bu qop to‘la boylik bo‘lsa, mehnatsevarlik mevali daraxtdir, Daochilik tamoyillariga ko‘ra inson yaxshilikni birovga ko‘rsatish uchun emas, balki yaxshilik qilish kerakligidan barchaga rahmdil bo‘lishi lozim: 君子施恩不望报 [Jūnzǐ shī ēn bù wàng bào] Haqiqiy inson yaxshilik qilib unutadi ya’ni javob qaytishini kutmaydi. Insonlar ning hamjihat bo‘lishi, birlashib ish qilishini ifodalovchi misollarni ham kuzatish mumkin: 人心齐，泰山移 [rénxīn qí, tàishān yí] Hammaning maqsadi bir bo‘lsa, Tayshanni ham ko‘chirish mumkin.

Demak, har bir inson go‘zal xulqqa ega bo‘lishi jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi zarur, zero jamiyat taraqqiy etsa, insonlar ham rivojlanib, go‘zal hayot, totuvlik va baxtga erishadi. Ilmiy ishimiz doirasida tahlil qilingan baxt modeliga doir mazkur qarashlar 喜 [xǐ] komponentga oid frazeologik birliklarda uchraydi.

To‘rtinchi komponent sifatida sog‘liq 健康 [jiankang] berilgan. Albatta sog‘liq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu sababli, ilmiy ishda baxt modeli komponentlaridan biri ekani aytib o‘tilgan. Sog‘liq beba ho ne’mat ekaniga ishora qiluvchi keltirilgan misollar: 身安抵万金 [shēn ān dǐ wàn jīn] Sog‘liq ming tillo turadi, 无病即神仙 [wú bìng jí shénxiān] Inson kasal bo‘lmasa, u avliyo kabi baxtlidir. Bundan tashqari g‘am-qayg‘u Xitoy madaniyatida ham, xristian dini vakillari orasida ham yomon natijalarga olib kelishi, salomatlikka ta’sir ko‘rsatishi haqida aytib o‘tilgan. Misollar:

食多伤胃，愁多伤身 [shí duō shāng wèi, chóu duō shāng shēn] Ko‘p ovqat oshqozonga zarar, ko‘p qayg‘u sog‘liqqa.

Beshinchi komponent 自然死亡 [zìrán sǐwáng] – tabiiy o‘lim (qariganda vafot etish). “Albatta inson uzoq umr ko‘rsa, hayotidan qoniqish hissi bo‘lsa va tabiiy o‘lim bilan vafot etsa, xitoyliklar milliy mental madaniyatida o‘sha inson baxtli hayot kechirgan bo‘ladi” kabi qarashlar mavjudligini ilmiy ishda keltirilgan misollardan ham kuzatish mumkin: 长江从来没有弹回，人将永远无法恢复他的

青春 [chángjiāng cónglái méiyōu dàn huí, rén jiāng yǒngyuǎn wúfǎ huīfù tā de qīngchūn] Yanszi daryosi hech qachon ortga qayt-maganidek, inson hech qachon yoshligini qaytara olmaydi, 人生百岁, 终须一死 [réns héng bāi suì, zhōng xū yīsǐ] O'lim – bu hayot-ning oxiri, garchi yuz yil bo'lsa ham. Mazkur misolda ham xitoy-liklarning o'lim qonuniyatlariga falsafiy jihatdan yondashishi va bu muqarrarligi ifodalangan. Shu bilan birga, mazkur ishda zamonaviy Xitoyda baxtga bo'lган munosabat va baxt indeksi ma'naviy holat va jismoniy holatidan qoniqish, oilaviy hayot, ijtimoiy mavqe, hayot sifati, ijtimoiy muhit kabi asosiy jihatni o'z ichiga olgan holda o'rganilgani ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, mazkur ishda maqol va matallarda yuqorida keltirilgan modelning ifodalanishi, lingvomadaniy jihatdan ushbu ma'nolarni ko'rsatuvchi ramzlar, Xitoydagi baxt indeksi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Baxt konseptini o'rganish inson hayoti davomidagi masala bo'lsa ham, hozirgacha yagona fikrga kelinmagan, balki unga bo'lган yondashuvning turlicha ekani, shu bilan birga V.Tatarkevich qarashlariga asosan “baxt” obyektiv va subyektiv ekani ham mazkur masala ochiq qolayotgandir. Biz ham ilmiy ishimiz doirasida “baxt” masalasini frzaeologik birliklar miqyosida tahlil qilib, hozirgi Xitoy milliy mental ongida tahlilga tortgan modelimiz qay darajada mos ekanini o'rganishga harakat qildik.

Baxtning tushuncha sifatidagi ko'rinishi S.A.An, O.A.Vorsina, Y.V.Peschanskayalarning “Xitoy madaniyati falsafasida “baxt” tu-shunchasining ko'р ma'noliligi/ Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры⁴⁴” nomli ishda keltirib o'tilgan. Bular: 福 [fú] baxt, 祿 [lù] martaba (карьера), 寿 [shòu] uzoq umr, 喜 [xǐ] quvonch va 财 [cái] boylik kabi komponent-lardir. Mazkur ishda ham har bir komponentga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, falsafiy yondashuv ko'proq kuzatilgan. Birinchi

⁴⁴ Ан С.А., Ворсина О. А., Песчанская Е. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры// Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств, 2012 – №4 (32). – С.66-70.

komponent 福 [fú] – baxt berilgan bo‘lib, unga nisbatan qadimgi falsafiy asarlarda qanday ta’rif, yondashuvlar keltirilgani ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, Lao Tzining (mil.av. VI asr) fikricha, baxt va baxtsizlik bir-birini taqozo qiladi va yonma-yon yuradi. Bu ikkisiga erishish qiyin, lekin inson o‘z harakati orqali kutgan natijasini qo‘lga kiritadi kabi qarashlar keltiriladi. Undan tashqari legizm nazariyotshunosi Han Fey (mil.av. III asr), Sun sulolasasi shoiri Ouyan Syu (1007-1072) kabi tarixiy shaxslarning fikrlari keltirib o‘tilgan.

Ikkinchi komponent sifatida 祿 [lù] – martaba (каръепа) iyeroglifi keltirilgan va unga quyidagicha ta’rif berilgan: “祿 [lù] iyeroglifi deganda shon-shuhrat, ijtimoiy mavqe va foyda ketidan quvish nazarda tutiladi. Mazkur iyeroglif baxt iyeroglifidan rivojlanadi va bunga sabab uning qadimgi sharhi “Shouwen jiezi” da (eramizning I-II asrlari) berilgan bo‘lib, uning tarjimasi “Xitoy ramzlarining kelib chiqishi” deb ataladi. Mazkur lug‘atga muvofiq, 祿 [lù] –bu 福 [fú] iyeroglifining ekvivalenti bo‘lib, unda “祿 [lù] bu 福 [fú]” deb yozilgan. Shan sulolasining (mil.av.1600-1027-yillar) va Djou sulolasining (mil.av. 1045-221-yillar) hukmronligi davrlarida qirollik sovg‘asini, iltifotini olish 祿 [lù] deb qabul qilingan, ya’ni biri bo‘lsa ikkinchisi paydo bo‘lgan va bu ikki tushunchani farq qilinishini tasdiqlaydi. Shuning uchun aynan feodal jamiyatda martaba qanchalik baland bo‘lsa, olinadigan pul ham shuncha katta bo‘lgan natijada “yuqori martaba – katta oylik” degan aforizm shakllangan. Binobarin, 福 [fú] ga ega bo‘lsang, 祿 [lù] ga ham egasan, ya’ni 祿 [lù] 福 [fú] ning tarkibiy komponenti hisoblanadi”.

Uchinchi komponent 寿 [shòu] – uzoq umr iyeroglifi bo‘lib, aynan “to‘liq baxt”ning asosi ekani ta’kidlangan. Xitoyliklarning o‘limdan keyingi hayotgan ishonishi ham ta’kidlangan.

To‘rtinchi komponent 喜 [xǐ] “quvonch” yoki “marosim” ma’nolarini ifodalab, unga quyidagicha izohlar berilgan, ya’ni “Min va Qin sulolalari hukmronligi davrida (XIV-XX) Jin va Chu hududlarida o‘z qarindoshlari va yaqinlarini himoyasi uchun Tangriga iltijo qilish va qo‘snilarga dimlangan guruch tarqatish an’a-

nasi keng tarqalgan. Farzand tug‘ilganidan boshlab har bir marosimda 喜 [xǐ] iyeroglifi mavjud bo‘ladi” kabi.

Beshinchi komponent 财[cái] boylik iyeroglifi sanaladi. Mazkur komponentni yoritishda Sima Tzyan (mil.av.145-90) qarashlari keltilgan bo‘lib, xitoyliklarning pulga bo‘lgan munosabati ochib berilgan. Asosan, “Insonlar boylik uchun, qushlar esa ovqat uchun yashaydilar” maqoli Xitoy jamiyatida keng qo‘llanilishini ifodalagan.

S. An, O.Vorsina, Y.Peschanskiylarning tadqiqotida “to‘liq baxt”ning aynan qayd etilgan komponentli modeli keng ommaga yaxshi tanish ekani, bayramlarda faol qo‘llanishi ta’kidlab o‘tilgan. Tadqiqotimizda ham ushbu fikrga qo‘shilgan holda, aynan yuqoridaagi komponentlarni o‘z ichiga olgan “baxt” konsepti tahlilga tortilgan.

Yuqorida faqat ikki xil “五福 [wǔ fú] baxt” ni kuzatdik, biroq umuman olganda “baxt” konsepti modellar ko‘rinishida tahlil qilinsa, xitoyliklar mental ongida ko‘rsatib beruvchi tilida namoyon bo‘lgan uning bir necha turini uchratish mumkin. Masalan, 尚書 [Shàngshū] Konfutsiylik tarkibiga kiruvchi “Besh kitob” yoki yana “Shujin” deb ataladigan xitoy mumtoz kitobida yozilishicha “baxt” konsepti quyidagi iyerogliflardan iborat: 長寿 [chángshòu] uzoq umr, 富貴 [fùguì] boylik, 康寧[kāngníng] xotirijamlik, 好德 [hǎo dé] yaxshi fazilatlar, 善終 [shànzhōng] tabiiy o‘lim⁴⁵. Bu yerda ham beshta komponent kuzatilsa-da, komponentlar birinchi ko‘rsatilgan modelga yaqinligini ko‘rish mumkin. Masalan, 善終 [shànzhōng] tabiiy o‘lim va 自然死亡 [zìrán sǐwáng] tabiiy o‘lim (qariganda vafot etish) komponentlari ma’no jihatidan bir-biriga yaqin, biroq iyerogliflar vaqt, zamonga ko‘ra farqlanadi.

Yuqorida misollarga qo‘shimcha tarzda ilmiy ishimiz tahlili jarayonida aynan mazkur komponentni qisman ifodalovchi frazeologik birlik uchradi: 安居乐业 [ān jū lè yè] Baxtli turmush va barqaror mehnat, tinch-totuv va mamnun bo‘lib yashash tinch hayoti va mehnatidan zavqlanish.

⁴⁵ Лань Сяньлинь. Искусство благопожеланий Китая. Счастье / Сяньлинь Лань. – Цзянси: Искусство, 2004.

安居乐业源于《老子》：“甘其食，美其服，安其俗，乐其业。邻国相望，鸡犬之声相闻，民至老死，不相往来。”安居乐业，是指社会生活安定，人们乐于工作，精神、物质生活丰富。而老子讲的是“老死不相往来”的安居乐业。

Ānjūlèyè yuán yú “lǎozi”：“Gān qí shí, měi qí fú, ān qí sú, lè qí yè. Lín guó xiāng wàng, jī quǎn zhī shēng xiāng wén, mǐn zhì lǎosǐ, bù xiāng wǎnglái.” Ānjūlèyè, shì zhǐ shèhuì shēnghuó āndìng, rénmen lèyú gōngzuò, jīngshén, wùzhí shēnghuó fēngfù. Ér lǎozi jiǎng de shì “lǎosǐ bù xiāng wǎnglái” de ānjūlèyè.

Mazkur frazeologik birlik Laozi asarlarida uchraydi. U shunday jamiyatni tasavvur qilganki, odamlar o‘z hayoti, kiyim-kechaklari, urf-odatlari va ish sharotilaridan mamnun bo‘lib, qo‘shni davlat umuman aloqa qilolmaydilar, hatto bir tosh otish masofasida bo‘lsa ham. Hozirgi kunda, asosan, tinch, ma’naviy va moddiy hayotdan mamnun jamiyatni ifodalashda qo‘llanadi.

Demak, Laozining orzusiga ko‘ra, insonlar hayotidan shunchalar mamnun ekanligi, boshqa qo‘shni davlat ishlariga aralashmasligi yoki ularning boyliklariga ko‘z olaytirmasligi kerak.

Uzoq umr komponenti biz tahlil qilgan ikkinchi modelda uchraydi va mazkur misollardan Xitoy jamiyatida keksalarga bo‘lgan hurmatni ko‘rish mumkin. Xitoyliklar milliy mental ongida inson uchun yashash, uzoq umr ko‘rish eng oliy saodatdir.

Biz tomonimizdan tahlil qilingan frazeologik birliklarda ham mazkur qarashni ko‘rish mumkin: 双福拱寿 [shuāngfú gǒngshòu] – qo‘shaloq baxt (baxt va uzoq umr), 人寿年丰 [rénn shòu nián fēng] uzoq umr va mo‘l hosil, hosildorlik.

Umuman olganda qayd etilgan ilmiy izlansihlarda maqol va matallar miqyosida bajarilgan bo‘lib, ma’lum bir til materialiga asoslanib “五福 [wǔ fú] baxt” komponentlari tahlili amalga oshirilgan, mazkur ilmiy ish doirasida esa frazeologik birliklar misolidagi tahlillarni va hozirgi zamon nuqtayi nazarida yangi modellarni ikkinchi va uchinchi boblarda kuzatish mumkin.

Xitoy tilida frazeologik birliklarni tavsiflash mezonlari

Muvaffaqiyatli hayot yo‘li sifatida “baxt” konsepti qadim zamonlardan buyon jamoatchilik ongida mavjud bo‘lib, deyarli ko‘pgina konseptlarning ham tor ma’noda, ham keng ma’noda komponentlariga “mos”dir. Biroq aynan “baxt” konsepti aniq ichki mohiyatga ega, baxt haqidagi qarashlar etnomadaniy tarzda belgilanadi. Farq bir jamiyatni ikkinchisiga solishtirilganda kuzatiladi. Ushbu tafovutlarni xalqning komulyativ tajribasi asosida yuzaga kelgan frazeologik birliklar reprezentatsiyasida ko‘rish mumkin. Iboralar qadimgi davrlarda shakllangan bo‘lib, o‘sha davrdan beri jamiyat bilan hamohang bog‘liqdir. Ular xuddi oyna kabi etnik jamoa ruhiy olamini o‘zida aks ettiradiki, xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, turmush tarzi va axloq haqidagi qarashlarini qamrab oladi. Demak, “baxt” konsepti madaniyatning konstanti desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Xitoy tili frazeologik birliklarida “baxt”ning reprezentatsiyasini ko‘rib chiqar ekanmiz, bevosita ibora tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. A.Hojiyevning “Tilshunoslik termilarining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif keltirilgan: “Tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik. Turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi⁴⁶”. A.E.Mamatov yozishicha, “Frazeologizm – bu tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, umumlashgan ma’no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, turg‘un leksik-semantik birlikdir⁴⁷”. Tilda frazeologizmlarning qanchalik ko‘p bo‘lishi o‘sha til imkoniyatlarining shunchalik kengligidan dalolatdir. O‘zbek tilshunosligida ko‘pgina mutaxassislar ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, A.Mamatov,

⁴⁶ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллии энциклопедияси, 2002. –Б.64.

⁴⁷ Маматов А., Б.Болтаева Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқики, – Т., 2018. – Б.45.

Sh.Rahmatullayev, A.G’aniyev⁴⁸ kabi olimlarning ishlarida frazeologizmlar maxsus o‘rganilgan. Ularning ilmiy ishlari frazeologik birliklarga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, lekin fikrlari va qarashlari bir-biridan farqlidir.

Rus tilshunosi V.A.Maslovaning fikricha, frazeologik birliklar “xalq madaniyati taraqqiyotining uzoq jarayonini semantikasida aks ettirib, madaniy munosabat va stereotiplarni, mezon hamda arxetiplarni mustahkamlaydi, avloddan-avlodga o‘tkazadi⁴⁹”.

Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarga nisbatan tan olin-gan yagona va mukammal qarash mavjud emasligi ushbu masala doirasida doim bahs-munozara bo‘lishiga olib keladi va ularning xarakterli xususiyatlarini o‘rganishga undaydi.

Tildagi turg‘un iboralarni o‘ziga xos qomus, desa bo‘ladi. Ularda kishilik turmushi, xalq tafakkurining serqirra tomonlari o‘z ifodasini topgan. Ayni chog‘da, frazeologik birliklar semantikasi va tuzilishiga ko‘ra o‘ta murakkab bo‘lib, lingvistikada chuqr va har yoqlama o‘rganishni talab etadi. Ular, bir tomonidan, til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalab, leksemalarga teng tursa, ikkinchi tomonidan, ularning ifoda va mazmun munosabatida nomufoqlik mavjud bo‘ladi⁵⁰. Xitoy tilshunosligida ham frazeologik birliklarga nisbatan keltiriladigan ta’riflar turlicha bo‘lib, ularni o‘rganish hozirgi kunda ham dolzarbdir.

Xitoy frazeologizmlari til paydo bo‘lishining qadim davrlaridan bugungi kunga qadar ajdoddan-avlodga o‘tib yetib kelgan bo‘lib, xitoy lisoniy manzarasi, ya’ni milliy mentalitet, milliy dunyoqarash, urf-odatlar va an’analarni o‘zida aks ettirgan. Xitoy frazeologizmlarning tadqiqi XX asrning 50-60-yillaridan boshlangan bo‘lib, bosh masala sohaning asosiy terminini belgilash hisoblangan. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda avval 成语 [chéng yǔ]

⁴⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. - Тошкент: Университет, 1992. – 1276; Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. – Т., 1985. 162с.

⁴⁹ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2007. – С. 28.

⁵⁰ Li Yamei, Xitoy tilidagi iyerarxik munosabatni ifodalovchi frazeologizmlar: filol.fan.nomz.diss.avtoref, diss.– Toshkent, 2011. – B.55.

(idioma) termini qo'llanishda bo'lgan, keyinchalik 熟语 [shùyǔ] atamasi iste'molga kirgan. 成语 [chéng yǔ] (idioma) termini keng va tor ma'nolarda ishlatilgan bo'lib, birinchi holatda to'rt komponentdan iborat turg'un birikmalar, maqollar, aforizmlar nazarda tutilgan, ikkinchi holda faqat frazeologik birliklar o'rganilgan⁵¹.

"Xitoy ensiklopediyasi, til va yozuv" kitobida⁵² frazeologik birliklarga quyidagicha izohlangan: 成语 [chéng yǔ] ya'ni frazeologik birliklarning katta qismi qadimgi davrlardan meros bo'lib, ulardagi komponentlar zamonaviy xitoy tilidan farq qiladi. Ular orasida qadimiy kitoblardan olingan jumlalar, qadimgi maqollar, iboralar va xalq orasida tez-tez uchrab turuvchi misollar ham mavjud. Ba'zi frazeologik birlik ma'nolarini so'zma-so'z anglash mumkin bo'lsa, ayrimlarini tushunish oson emas, ayniqsa, asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan iboralar, masalan, 汗牛充栋 [hànniú chōngdòng] *bir javon to 'la kitob* (so'zma-so'z ko'p kitob o'qigan inson) kabilar xitoy frazeologik birliklarining ma'lum bir qismini egallaydi. Xitoy tili uzoq tarixga va u bilan bog'liq frazeologik birliklarga ega, 成语 [chéng yǔ] iboralar qadimda turli davrlarda har xil nomlar bilan atalib kelingan. Xitoy tilidagi frazeologizmlarda ko'hna venyan (文言 [wén yán]) tili xususiyatlari saqlanib qolgan. Biroq, zamonaviy xitoy tilida venyan xususiyatlari qisman yo'qolib ketgan, bo'lsa-da, frazeologik birliklar o'sha jihatlarga vorislikni davom ettirmoqda. Iboralar 文言 [wén yán] venyan tilidagi adabiyotlarda mufassal aks ettirilgan. Shuning uchun hozirgi zamon xitoy adabiyotlaridagi frazemalarning ko'p qismi eski tilning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. To'rt iyeroglifdan tashkil topgan 成语 [chéng yǔ] larda fonetik ohang ritmi musiqaga moslashib, tovush, qofiyalar mavjud bo'lib, hozirgi zamon tilining

⁵¹ Мавлянова У. Х. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил: филол.фун.номз. ... дисс. – Т., 2020. – Б. 55.

⁵² 中国大百科全书, 语言文字, 北京: 中国带百科全书出版社, 1998, 10, 36–页.

tekis va siniq ohanglariga moslashib keladi⁵³. Bu ham xitoy tilining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

“Zamonaviy xitoy tili lug‘ati”da frazeologik birliklarga quyidagicha ta’rif beriladi: “Uzoq yillar davomida keng qo‘llanilib, chuqur ma’noga ega bo‘lgan so‘z birikmali⁵⁴”.

Xitoy tilshunosligi lug‘atida izohlashicha: “Chuqur ma’noga ega, ixcham, keng qo‘llanadigan, tayyor ifodaga mansub lingvistik birlik. Masalan, “狐 假 虎 威 [hújiāhǔwēi]” (*Odamlarni o‘z hokimiyati bilan qo‘rqtish*), “一叶知秋 [yī yèzhīqiū] (*Barglar to‘kilib - kuz kelmoqda*)⁵⁵”

Xitoy tilida 成语 [chéngyǔ] – ya’ni frazeologik birliklar matal va maqollarga o‘xshash bo‘lgani bilan farqli tomonlari mavjud. Masalan, asosiy shartlaridan biri, matal va maqollar xalq orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelsa, frazeologik birliklarning asosiy qismi yozma manbalar orqali yetib kelgan. Ikkinchidan, til shakli nuqtayi nazaridan, frazeologik birliklar deyarli to‘rt belgidan iborat konvensiyalar asosida tuzilgan bo‘lib, iyerogliflarni o‘z xohishiga ko‘ra o‘zgartirish mumkin emas, matal va maqollarda esa buning aksini ko‘rish mumkin, ya’ni ular 4 ta iyerograf bilan chegaralanmagan, yaxlit bir ma’noni ifodalaydi.

Go Sin Yining yozishiga ko‘ra xitoy tilshunosligida frazeologiya hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratilmagan hamda leksikologiyaning bu bo‘limi hali maxsus nomga ham ega emas. Sun Vey Jang frazeologizmlarni: 1) frazeologik birliklar 成语 [chéngyǔ]; 2) ko‘p qo‘llanadigan so‘z birikmali, uch iyeroglifdan tashkil topgan 惯用语 [guànyòngyǔ]; 3) ibora, oxirigacha aytilmagan jumboq, ya’ni topishmoq shaklida keladi 歇后语 [xiēhòuyǔ]; 4) maqol 谚语 [yànyǔ]; 5) aforizmlar hikmatli so‘zlar 格言 [géyán] kabi guruhlarga tasniflagan. Suy Go Qin esa ularni

⁵³ Akimov T. Xitoy tilidagi somatik frazeologizmlar: kelib chiqishi va semantikasi: filol.fan.nomz. ... diss. – T., 2020. –B.62.

⁵⁴ 现代汉语词典. 北京: 商务印书馆, 2012, 1790–页

⁵⁵ 中国语言学大辞典. 江西: 江西教育出版社, 1991. 1174–页

quyidagi: 1) frazeologik birliklar 成语 [chéngyǔ]; 2) ko‘p qo‘llanadigan so‘z birikmalari, uch iyeroglifdan tashkil topgan 惯用语 [guànyòng yǔ]; 3) ibora, oxirigacha aytilmagan jumboq, ya’ni topishmoq shaklida keladi 歇后语 [xiēhòuyǔ] kabi guruhlarga ajratadi. Biroq Yun Sheng, Jan Yun Yan, U Jan Kun, Vang Tsin va Fu Huay Tsin singari xitoy tilshunoslari Sun Vey Jangning tasnifiga yon bosadilar. Xing Fuyi va Vang Guoshenglar frazeologik birliklar deb uchta asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi, ya’ni mustahkam struktura, ma’noning yaxlitligi va ommaviylikni (foydalanishning kengligi) ifodalovchilarni belgilashgan. Frazeologik birliklar xitoy tilshunosligida ko‘p munozaralarga sabab bo‘ladi. Masalan, Yu Min va Xuan Zhixianlar frazeologik birliklar ommaviy tobe iboralar sifatida qaraladi, ya’ni klischelarga o‘xhash⁵⁶ kabi qarashni ilgari suradi.

Xitoy frazeologik birliklarini o‘rgangan olim Shi Shining fikricha, “har bir barqaror birikma yoki frazema tilda uzoq vaqt davomida ishlatilgan va mustahkam o‘rin olgan, konstruktiv shakl va komponentlar tarkibi o‘ziga xos. Gapda idiomalar bilan bir xil vazifani bajaradi.⁵⁷”

成语 [chéngyǔ] so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “tayyor ifoda”, “tayyor shakldagi ifoda” degan ma’noni anglatadi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, xitoy tilshunosligida frazeologiya sohasi hali-hanuz o‘rganishda davom etmoqda.

Darhaqiqat, xitoy tilining frazeologik boyligi diniy, tarixiy, afsonaviy xarakterga ega birliklardan iborat. Demak, xitoy tilida frazeologik birliklar to‘rtta iyeroglifdan tashkil topgan bo‘lb, ularning tarkibi va so‘zlar tartibini o‘zgartirib bo‘lmaydi, ya’ni qat’iy qoida asosida qo‘llanadi. Ma’nosи jihatidan esa iboralar juda ixcham, yaxlit, ba’zan esa asl ma’nosи mavhum bo‘lgan shaklda uchrashi mumkin.

Barcha sohaga tegishli tadqiqotlarning negizida inson, uning atrofidagi olam bilan bog‘liq bilimlar yotadi, til esa aynan mazkur

⁵⁶ 俞敏, 黄智显. 语言学概论. 1956. 198 –页

⁵⁷ 史式. 汉语成语研究. 成都: 四川人民出版社, 1980. 577 –页.

bilim, ma'lumotlarni yetkazib berish uchun eng asosiy arsenal hisoblanadi. Xitoy tilida “baxt” modeli bir-biri bilan chambarchas bog‘langan semantik tizimga ega bo‘lishiga qaramay, uning har bir komponenti tahlili hozirgi kunga qadar dolzarb. Tadqiqot miqiyosida “baxt” tushunchasini rivojlanish bosqichlariga asoslanib, modellarga ajratib chiqildi va barcha beshta komponent frazeologik birliklar misolida tahlil qilindi. Frazeologik birliklar xitoy tilining milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi eng muhim omildir. Shu ma’noda milliy-madaniy xususiyatlar millatning madaniyatini, dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odat va udumlarini, etik va estetik me’yorlarini ifodalovchi, og‘zaki va yozma nutqda ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi iboralar orqali aks etishini kuzatish mumkin. Frzaeologik birliklar xalqning kumulyativ tajribasiga asoslanib, uning barcha sohadagi qarashlarini o‘zida mujassamlaydi. Shu bilan birga tilning qadimiylari va eskirmas mahsuli sifatida o‘rganib kelinadi. Baxtning xitoy milliy lisoniy ongida model sifatida qanday namoyon bo‘lishini, necha ming yillardan beri xalq orasida ommabop, adabiyotlarda ham keng qo‘llanib kelayotgan frazeologik birliklar ochib beradi. Shuningdek, ishning uchinchi bobida sotsiolingvistikaning dala-kuzatuv tadqiqot metodlaridan biri bo‘lgan so‘rovnama orqali baxt modelining zamonaviy ko‘rinishi tahlil qilinadi.

“五福 [WŪFÚ]” MODELINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI

Xitoy tili frazeologik birliklarida baxtning “五福 [wūfú]” komponenti orqali ifodalanishi

Millat tabiiy muhiti, urf-odatlari, tarixi va madaniyati milliy tilida o‘z ifodasini topadi. Frazeologik birliklar esa milliy til madaniyati xazinasi sifatida ijtimoiy reallikni, xalq hayotini tasvirlaydi. Xitoy iboralari so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar o‘rtasidagi til birligi bo‘lib, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: nisbatan o‘zgarmas shaklga (to‘rtta iyeroglidan iborat) ega, ma’no yaxlitligi va bo‘linmasligi.

Frazeologik birliklarda ma’no soddaligi, qat’iy tuzilishi, tasvirning aniqligi tufayli pragmatik funksiyasi keng va ular kundalik hayotda ham, badiiy asarlarda ham muhim rol o‘ynaydi. Ularning ommabopligi sababini ham aynan yuqorida keltirilgan funksiyalarda ko‘rish mumkin.

T.M.Gurevichning fikriga ko‘ra frazeologik birliklar har doim aktualdir: “ham bir necha asrlik tarixni o‘z ichiga olgan, ham yangi paydo bo‘lgan hozirgi zamонавиу тilda qo‘llанадиган frazeologik birliklarni o‘рганиш nafaqat sinxron tadqiqot uchun qo‘l keladi, balki izlanuvchiga milliy madaniyatning ayrim konsept mazmunidagi o‘zgarishlarni kuzatishga ham imkonini beradi...⁵⁸”. Mazkur ilmiy ishda aynan baxt modelining tadrijiy rivoji va hozirgi kundagi ko‘rinishi frazeologik birliklar misolida tahlilga tortilgan. Shu bois, quyida kognitiv tilshunoslik nazariyasi asosida frazeologik birliklarda uchragan metaforalar guruhlarga ajratilgan va ularning tavsifi keltirilgan.

Huang Quan Xinning Wufuga oid besh jildlik lug‘atdan⁵⁹ 250 ta frazeologik birlik yig‘ib olinib, tadqiq etildi. 五福 [wūfú]ning

⁵⁸ Гуревич Т.М. Человек в японском лингвокультурном пространстве. – М.: МГИМО(У) России, 2005. – С.25.

⁵⁹ 黄全信, 中华五福吉祥图典, 福, 华语教学出版社, -北京 2003., – С.245.

birinchi komponenti bo‘lgan 福[fú] iyeroglifi qatnashgan frazeologik birliklar quyidagi guruhga jamlangan:

天官赐福 [tiān guān cì fú] – samo ma’budlarining marhamati, osmon marhamati bilan balolardan saqlanish.

旧俗中有“三官”,天官赐福,地官赦罪,水官解厄。天官又称福神、福星、福判等。天官一身朝服装束,五绺长髯,慈眉善目。或手执如意,或怀抱童子,也有的手托“天官 赐福”的条幅。天官雍容华贵,赐福于民,很受欢迎。

Jiùsú zhōng yǒu “sān guān”, tiān guān cì fú, de guān shè zuì, shuǐ guān jiě è. Tiān guān yòu chēng fúshén, fúxīng, fú pàn děng. Tiān guān yīshēn cháofú zhuāngshù, wǔ liǔ zhǎng rán, címéishànmù. Huò shǒu zhí rúyì, huò huáibào tóngzǐ, yěyǒu de shǒu tuō “tiān guān cì fú” de tiáofú. Tiān guān yōngróng huáguì, cì fú yú mǐn, hěn shòu huānyíng.

Qadimiy rivoyatlarga ko‘ra, uch samo ma’budi bo‘lib, osmon ma’budi duo qiladi, yer ma’budi gunohlarni kechiradi, suv ma’budi esa balolardan asraydi kabi qarashlar mavjud bo‘lgan. Osmon ma’budini yana baxt ilohi, baxt yulduzi, baraka ilohi va boshqa nomlar bilan ham atashadi. Osmon ma’budi go‘zal kiyimli, uzun soqolli va qalin qoshli, mehrli ko‘zları bilan qarab turuvchi qariya sifatida gavdalanadi. Ba’zida qo‘lida yaxshi tilaklar yozuvini ushlagan holda, ba’zida bola quchoqlab turgan, yoki qo‘lida “samo ma’budi marhamati” kabi yozuv bilan tasvirlanadi. Samoviy ma’budlar nafis va dabdabali ko‘rinishda tasavvur qilingan. Ular xalqni marhamati bilan siylaydigan, xalq orasida juda mashhur ma’budlardir.

Ma’lumki, Xitoyda ma’buldar ko‘p bo‘lib, insonlar ularni turlicha tasvirlashgan va tasavvur qilishgan. Har bir tabiiy unsurning o‘z ma’buldari mavjud va rivoyatlarga binoan, ular ham o‘zaro tortishib turishadi. Biroq, agar ma’buldar hamjihat, o‘zaro ahil bo‘lsalar, oddiy xalq ham osoyishtalikka, oxir-oqibat baxtga erishadi kabi qarashlar birlamchidir. Yuqoridagi maqolda ma’bularning insonlarga yordami haqida aytib o‘tilgan bo‘lib, har bir ma’bul

insonning og‘irini yengil qilgan. Demak, ma’budlarni rozi qilish baxtli hayotning bir qismi sifatida qaralgan. Xitoy tilida “baxt” iyeroglifi zaminida ma’bularga qurbanlik keltirish kabi ma’no yotishi bejiz emas. Ushbu misolda ham ilohiy-diniy obrazlar bilan ifodalangan. Shuningdek, mazkur misolda bevosita 五福 [wǔfú] komponenti 福[fú] iyeroglifi qatnashgan bo‘lib, gap baxt haqida ekanini anglash qiyin emas.

福星高照 [fúxīng gāo zhào] – baxti kulgan, omadi kelgan. Bu so‘zma-so‘z “baxt yulduzi baland osmonda porlamoqda” deb tarjima qilinadi.

福神, 源于古代星相崇拜中的福 星,即木星。道教把三官(天官、地 官、水官)中的天官,作为福神信 奉,即“天官赐福”。传说汉武帝时 刺史杨成,因抵制给皇帝进贡侏儒,救百姓于水火之中,被敬奉为降福解 厄的“福神”。

Fúshén, yuán yú gǔdài xīngxiàng chónghài zhōng de fúxīng, jí mùxīng. Dàojiào bǎ sān guān (tiān guān, de guān, shuǐ guān) zhōng de tiān guān, zuòwéi fúshén xìnfèng, jí “tiān guān cì fú”. Chuánshuō hàn wǔdì shí cǐshí yáng chéng, yīn dǐzhì gěi huángdì jìngòng zhūrú, jiù bǎixìng yú shuǐhuǒ zhī zhōng, bèi jìngfèng wéi jiàngfú jié è de “fúshén”.

Baxt ma’budi qadimgi astrologiyaga oid bilimlarga tayanib, xalq orasida omadli yulduz, ya’ni Yupiterdan kelib chiqqan kabi qarashlar mavjud. Daosizmda uch ma’bud (so‘zma-so‘z amaldor) (osmon ma’budi, yer ma’budi va suv ma’budi) orasidan osmon ma’budi omad ma’budi sifatida qabul qilinadi, ya’ni “osmon ma’budi baraka beradi” degan naql mavjud. Afsonaga ko‘ra, Xan sulolasimperatori Vuning amaldori Yang Cheng imperatorga soliq to‘lashga qarshilik ko‘rsatgan, odamlarni olov va suvdan qutqarganligi uchun unga baraka keltiradi, baxtsizliklarni yengillashtiradi deb, “Omad xudosi” sifatida ta’zim qilishgan.

Mazkur frazeologik birlikning talqinida omad va baraka nazarda tutilmoqda, shunday inson tasvirlanmoqda. Boshqa bir manbaga nazar solsak, Qing Venkangning “Qahramonlar va o‘g‘il-

lar afsonasi” 39-bobda shunday jumlalarni o‘qiyimiz “Agar unga qarasangiz, omadli yulduzga loyiq bo‘lasiz⁶⁰”, bu yerda “omadli yulduz”ga ega bo‘lishga ishora qilmoqda, ya’ni afsonalarga binoan har bir inson o‘z omad yulduzi bilan tug‘iladi. Omad ham baxtning komponentlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, misolning birinchi qismida “baxti kulgan”, ya’ni bevosita nishon domenga ishorani ko‘rish mumkin.

“五福 [wǔfú]” modelining 祿 [lù] komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar

祿 [lù] (9505) martaba (каръера) I ot 1) maosh, oylik, ish haqi, moyana; 高官厚 ~ yuqori martaba, yuqori oylik; 2) xizmatdagi farovonlik, martaba, obro‘, baxt, ishda olg‘a qadam bosish; 福 fú ~ baxt va martaba; 他命运没有~ taqdir unga kulib boqmagan;

II fe’l. maosh to‘lash, mukofotlamoq; ~勤 munosiblarni mukofotlash (taqdirlash).

III atoq. Lu familiyasi.

Demak, [祿] lù iyeroglifi: “maosh”, “oylik”, “moyana”, “martaba”, “obro‘-e’tibor”, “mukofatlamoq”, “maosh to‘lash”, “olg‘a qadam bosish” (ishda, xizmatda), “taqdirlash” kabi ma’nolarni anglatib, atoqli nom sifatida ism-sharifni ifodalaydi. Mazkur iyeroglib 五福[wǔfú] modelining ikkinchi komponenti hisoblanadi.

祿 [lù] iyeroglidida shon-shuhrat, ijtimoiy mavqe va foyda ketidan quvish nazarda tutiladi. Mazkur iyeroglib baxt iyeroglididan rivojlanadi va bunga sabab uning qadimgi sharhi 說文解字⁶¹ [shuō wén jiě zì] da (eramizning I-II asrlari) ko‘rsatilgan bo‘lib, uning tarjimasi “Xitoy ramzlarining kelib chiqishi” deb ataladi. Mazkur

⁶⁰ http://chengyu.t086.com/c_b4f4

⁶¹ Sharqiy Xan (milodiy 25-220) sulolasi davrida 許慎 Syu Shen tomonidan tuzilgan eng qadimgi va eng muhim lug‘atlaridan biridir. 說文解字 Shuō wén jiě zì “Oddiy va kompozit iyerogliflarning tahlili”. Kitob millodiy 100-yilda tugatilgan, ammo uni faqat 121-yilda muallifning o‘g‘li 許衝 Syu Chong taqdim etgan.

lug‘atga muvofiq, 祿 [lù]– bu 福 [fú] iyeroglifining ekvivalenti sifatida “祿 [lù] bu 福 [fú]” deb yozilgan.

Qadimda mulozim imператорлар имтихонидан о‘тса, амалдор етib тайинланган, бу esa о‘з-о‘зидан shon-sharaf, обро‘-е‘тиборни англатган. Бунда айнан 祿[lù] iyeroglifi unvonni ifodalagan. Biz buni 福 [fú] ga ega bo‘lsang, 祿 [lù] ga ham erishasan, ya’ni 祿 [lù] 福[fú] ning tarkibiy komponenti hisoblanadi” deb sharhlashimiz mumkin. Shunday qilib, yuksak martaba va katta oylik 祿 [lù] iyeroglifini asosiy tushunchasini о‘зида namoyon etib, yuqoridagi ikki iyeroglif bir-birini taqozo qiladi:

高官厚祿 [gāo guān hòu lù] yuqori lavozim va yaxshi maosh.

《汉书·董仲舒传》：“身宠而载高位，家温而食厚禄。”
《孔丛子·公仪》：“令徒以高官厚禄钓饵君子，无信用之意。”
以头顶上的高冠(官) 和身后的鹿(禄)示高官厚禄。高官 厚禄亦称高位厚禄,是旧时读书人的追求。

“*Hàn shū·dōngzhòngshū chuán*”: “*Shēn chǒng ér zài gāowèi, jiā wēn ér shí hòu lù.*” “*Kǒng cóng zi·gōng yí*”: “*Lìng tú yǐ gāoguān hòu lù diào ‘ér jūnzi, wú xìnyòng zhī yì.*” *Yǐ tóudǐng shàng de gāoguān (guān) hé shēnhòu de lù (lù) shì gāoguān hòu lù. Gāo guān hòu lù yì chēng gāowèi hòu lù, shì jiùshí dúshūrén de zhuīqiú.*

Yuqori lavozim va yaxshi maosh qadimgi davrdagi barcha talabalarning orzusi bo‘lgan. Bayram tabriknomalarida ham boshiga baland bosh kiyimi (shlyapa) kiygan inson yuqori lavozimli amaldorni ifodalaydi, kiyik ham “lu” martaba so‘zi bilan omofon hisoblanib, yuksak martaba, yaxshi maoshni anglatadi.

Demak, qadimgi Xitoyda kiyik yuqori lavozim va maosh ramzi hisoblanadi. Shu bilan birga, kundan-kun martabasiishib, tez orada yuqori lavozimga ko‘tarilishi kerak bo‘lgan shaxsga nisbatan ham ishlataladi. “五福 [wǔfú]” modelining 祿 [lù] iyeroglifi ishtirokidagi bevosita ishora qiluvchi misol faqat bitta frazeologik birlikda uchradi. Aytish joizki, bevosita ishora qiluvchi frazeologik birliklar soni 20 ta tashkil qiladi.

“五福 [wǔfú]” modelining 寿 [shòu] komponenti qatnashgan iboralar

Baxt insonning asosiy qadriyatlaridan biridir. Baxtga intilish har bir insonga xos bo‘lib, tabiatining ajralmas qismidir. Uzoq umr ko‘rish esa eng birinchi ne’matlardan bo‘lib, xitoyliklar nazdida uzoq umr ko‘rgan qariyalar baxtli insonlar hisoblanadi. Qadimdan afsona va asotirlarga binoan xitoyliklar abadiylik ichimligini (eliksir)ni topishga intilgan. Bu haqida frazeologik birliklarda keltilrilgan mevalar, hayvonlar yoki ilohiy obrazlardan bilib olish mumkin. Masalan, shaftoli mevasi aynan uzoq umrni ifodalab, uni iste’mol qilsa, umri uzayishiga ishonadilar va bayramlarda xona devorlariga ham mazkur meva suratlari ilib qo‘yiladi. Quyida 寿 [shòu] iyeroglifining leksik-semantik tahlilini ko‘rib chiqsak:

寿 [shòu] (5231) – uzoq umr ko‘rish, I ot 1) uzoq umr, ko‘p yillik; 福 [fú] ~ baxt va uzoq umr; 三 ~ uch karra uzoq umr (uzoq umr ko‘rish); 2) umr (hayot) davomiyligi, mavjudlik; yoshi; 您高 ~ ? yoshingiz nechida (muloy.shaklda); 3) tug‘ilgan kun: 祝 ~ tug‘ilgan kun bilan tabriklash; 4) tabrik so‘z; 5) boqiy, boqiylik (birga keluvchi so‘zlar: o‘lim, halokatli, dafn); dafn marosimi, tirikligida dafn uchun tayyorlanib qo‘yish; ~宮 qabr.

II fe’l. umrni uzaytirish; abadiylashtirish; ~国 o‘z davlatini abadiylashtirish, qirolligini abadiy qilish.

III atoqli. Shou familyasi.

Mazkur iyeroglif “uzoq umr”, “ko‘p yil”, “hayot”, “yosh” (возраст), “mavjudlik”, “davomiylik”, “boqiylik”, “tiriklik”, “uzoq umr ko‘rish”, “umrni uzaytirish”, “abadiylashtirish” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Atoqli ot sifatida familyani bildiradi.

寿 [shòu] uzoq umr ko‘rish, uzoq vaqt davomida hayot kechirish. 寿 [shòu] va 福 [fú] bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi komponentlar bo‘lib, uzoq yashash – katta yutuq, baxtli taqdir hisoblanadi. Shan (e.a. XVI-XI asrlar) va Djou sulolasiga (e.a. 1066-221-yillar) hukmronliklari davrida uzoq umr ko‘rish – bu to‘liq baxt (五

福 [wǔfú]) tushunchasining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan. Ba’zi ilk bronza yozuvlarida (寿 [shòu] tushunchasi)ga juda yaqin bo‘lgan ma’nodagi so‘zlar topilgan⁶². Daosizmning ta’siri kuchli bo‘lgan xitoyliklar, xristian va buddaviylardan farqli o’laroq, odamlar baxtning beshta tarkibiy qismi mavjud hayotni doimo qabul qilib kelganlar. Ular “o‘limdan keyingi hayotga”, hayot barcha narsa, usiz hech narsa yo‘q, ayniqsa, kundalik, haqiqiy hayotni qadrlash va uzoq yashash istagi borasidagi qarashlarga ishonganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, xitoyliklar uchun uzoq umr ko‘rish, abadiy hayot sirlarini topish kabi xohish-istak ularning hayotdagi maqsadlaridan biri bo‘lgan. Buning isbotini frazeologik birliklarda ham ko‘rish mumkin:

麻姑献寿 [má gū xiànn shòu] uzoq umr (bag‘ishlamoq) (uzoq umr tilash, afsonalarga ko‘ra o‘lmas pari Ma Gu ayollarga uzoq umr va go‘zallik ato etgan); 2) trans. qarimaydigan, abadiy yosh (ayolga nisbatan).

麻姑，是民间传说中的长寿仙 旧俗每逢妇女祝寿时，常有“麻姑献寿”之图。相传农历三月三日西王母寿辰时，麻姑曾在绛珠河畔以灵芝酿酒献给王母。麻姑生时有道术，能履行水上，还能掷未成丹砂，为仙人王方平之妹。

Má gū, shì míngjiān chuánshuō zhōng de chángshòu xiān jiùsú měi féng fùnǚ zhùshòu shí, cháng yǒu “má gū xiàns hòu” zhī tú. Xiāngchuán nónglì sān yuè sān rì xīwángmǔ shòuchén shí, má gū céng zài jiàng zhū hépàn yǐ língzhī niàngjiǔ xiān gěi wáng mǔ. Má gū shēng shí yǒu dào shù, néng lǚxíng shuǐshàng, hái néng zhì mò chéng dānshā, wèi xiānrén wángfāngpíng zhī mèi.

Xitoy xalq og‘zaki ijodida Ma Gu uzoq umr ko‘ruvchi pari. Ma Gu tasvirlangan suratlar o‘tmishda ayollar tug‘ilgan kunlarini nishonlaganlarida xona devorlariga yopishtirilgan. Aytishlaricha, har yili oy taqvimiga binoan uchinchi oyning uchinchi kunida Si

⁶² Ан С.А., Ворсина О.А., Песчанская Е. В. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств, 2012–№4 (32). – С. 67.

Wangmu malikasi tug‘ilgan kuni Ma Gu osmondagи daryo bo‘yida yaltiroq ganodermadan sharob tayyorlaydi. Ma Gu yerdagi yillar davomida suv ustida yurishga qodir. U o‘lmas Vang Fangpingning singlisi.

Uzoq umr ko‘rish va shu bilan navqiron, go‘zal bo‘lib qolish uchun qadimda xitoy ayollar Ma Gu parisi siymosi chizilgan suratlarni xona devorlariga ilib qo‘yishgan, Ma Gu parisiga ishonishgan. Mazkur misolda go‘zallik ham, ayniqsa ayollar uchun baxtning bir qismi ekani anglashiladi.

双福拱寿 [shuāngfú gǒngshòu] qo‘shaloq baxt (baxt va uzoq umr).

《神农经》：“玉桃服之长生不死。若不得早服之，临死服之，其尸毕天地不朽。”桃亦称寿桃，在吉祥图案中喻长寿。蝙蝠取其“福”音，在吉祥图案中喻福。福为吉祥之总，寿为最难得之福，“双福拱寿”寓意幸福、长寿成双 [2,84]。

“Shénnóng jīng”: “Yù táo fú zhī chángshēng bùsǐ. Ruò bùdé zǎo fú zhī, lín sǐ fú zhī, qí shī bì tiāndì bùxiǔ.” Táo yì chēngshòutáo, zài jíxiáng tú'àn zhōng yù chángshòu. Biānfú qǔ qí “fú” yīn, zài jíxiáng tú'àn zhōng yù fú. Fú wéi jíxiángzhī zǒng, shòu wèi zuì nándé zhī fú, “shuāng fú gǒngshòu” yùyì xìngfú, chángshòu chéngshuāng.

Xitoy tilidagi 《神农经》 [Shénnóng jīng] kitobida shaftoli mevasining turli navlari haqida gapirilgan bo‘lib: uni iste’mol qilgan insonlar mangu umr ko‘rguvchilarga aylanadi, o‘lim yoqasida turganlar esa yana jonlanib ketishi yozilgan. Shaftoli uzoq umr ramzi bo‘lib, “baxt” ifodalovchi suratlarda aynan “mangu umr” ma’nosiga ishora qiladi. 蝙蝠[biān fú] iyeroglifi “ko‘rshapalak” ma’nosini ifodalab, ikkinchisi [fú], ya’ni baxt iyeroglifi bilan bir xil talaffuz qilinadi. Mazkur frazeologik birlikda 蝠 [fú] “uzoq umr”ni bildiradi. Demak, xitoy xalqi tafakkurida uzoq umr— eng nodir ne’mat bo‘lib, qo‘shaloq baxt deganda esa aynan uzoq umr va baxt tushuniladi.

Ehtimol, ushbu lingvokultural hodisa nega xitoyliklar ko‘r-shapalak go‘shtini yeishini tushuntirishi mumkin. Yuqoridagi misolda 五福 [wǔfú] modelining ikkita komponenti 福 [fú] va 寿 [shòu] iyerogliflari uchragan va ular bevosita baxtga ishora qiladi⁶³.

福寿双全 [fú shòu shuāng quán] to‘liq baxt va uzoq umr (yaxshi tilaklar)

福为吉祥之首,寿为五福之尊,福寿双全是人们最大的吉祥。图中的蝙蝠,取其“福”音。寿桃或篆寿字,取其“寿”意。钱古称泉,双钱即双泉,与“双全”谐音,合为“福寿双全”。旧时对有福而又长寿的老人,祝颂福寿双全。

Fú wéi jíxiáng zhī shǒu, shòu wèi wǔfú zhī zūn, fúshòu shuāngquán shì rénmen zuidà de jíxiáng. Tú zhōng de biānfú, qū qí “fú” yīn. Shòutáo huò zhuàn shòu zì, qū qí “shòu” yì. Qián gǔ-chēng quán, shuāng qián jí shuāngquán, yù “shuāngquán” xiéyīn, hé wèi “fúshòu shuāngquán”. Jiùshí duì yōufú ér yòu chángshòu de lǎorén, zhù sòng fúshòu shuāng quán.

Baxt – birinchi in’om, uzoq umr – besh ne’matning biridir, baxt va uzoq umr esa insonlar uchun eng katta ne’matdir. Tabrik suratlarida ko‘rshapalak, xitoy tilida “fu” baxt so‘zi bilan omofon bo‘lsa, “shou tao” shaftoli mevasi va “zhuang shou” iyerogliflari uzoq umrni anglatadi. Qadimda pulni “shuang qian” va “shuang quan” iyerogliflari bilan ifodalashgan. Bu yerda “shuang quan” bilan omofon bo‘lib, shu sababli ham keyinchalik mazkur frazeologik birlik “baxt, uzoq umr va baraka”, ya’ni “barakali, baxtli umr” ma’nolarini bildirgan. Qadim zamonlarda duo olib, umri uzoq bo‘lgan keksalar ham barakali, ham umri uzoq bo‘lgan. Barakali uzoq umr ko‘rgan qariyalarga shunday tilak bildirishgan. Mazkur misolda 福 [fú] va 寿 [shòu] ikki iyeroglyph birga kelishini kuzatish

⁶³ Валиева Н. Лексико-семантический анализ фразеологических единиц концепции «счастье» в китайском языке (на материале “中华五福古祥图典”) // IV Международной научно-практической онлайн-конференции «Китайская цивилизация в диалоге культур» (К 90-летию МГОУ 75-летию ИЛиМК), – М, 2021, – С.61.

mumkin. Ikkalasi ham baxt modelining bevosita komponenti bo‘lib, baxt va uzoq umr biri ikkinchisini taqozo qilishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi misollarning bittasidan tashqari qolgan barchasi-da zoonim va fitonimlar ham qatnashgan bo‘lib, ular ma’nolarni bilvosita ifodalagan.

万寿无疆 [wàn shòu wú jiāng] uzoq umr, so‘zma-so‘z tarjimasi: o‘n ming yil umr tilash.

《诗经》中有六处出现万寿无疆。《诗·豳风·七月》：“跻彼公堂，称彼光斛，万寿无疆！”这里的万寿无疆，是指颂祝丰年无穷。后来用为祝寿之词。北宋·欧阳修《圣节五方老人祝寿文》：“亿万斯年，共祝无疆之寿。”

“*Shījīng*” zhōng yǒu liù chù chūxiàan wànshòuwújiāng. “*Shī·bīn fēng·qī yuè*”：“Jī bǐ gōngtáng, chēng bǐ guāng hú, wànshòuwújiāng!” Zhèlǐ de wànshòuwújiāng, shì zhǐ sòng zhù fēngnián wúqióng. Hòulái yòng wèi zhùshòu zhī cí. Bēisòng·ōuyángxiū “shèng jié wǔ fāng lǎorén zhùshòu wén”: “Yì wàn sī nián, gòng zhù wújiāng zhī shòu.”

“万寿无疆” frazeologik birlik “Qo‘shiqlar kitobi”da olti marta uchraydi. “诗·豳风·七月” mazkur asarda esa “uzoq umr” ma’nosи bilan bir qatorda “hosildor yil”ni ifodalagan. Ushbu ibora tabrik so‘zga aylangan bo‘lib, adabiyotda ko‘plab taniqli yozuvchilar va shoirlar tomonidan ishlatilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri 10 000 yil yashashni anglatadi.

人寿年丰 [rén shòu nián fēng] salomatlik va mo‘l hosil, hosildorlik (so‘zma-so‘z: uzoq umr ko‘rish, hosil mo‘l bo‘lishini tilash, odamlarning to‘liq farovonligi va salomatligi haqida):

《诗经》：“如南山之寿，不骞不崩。”人以寿为本，民以食为天。旧时有春联：“人人寿比南山，年年丰衣足食。”横披为：“人寿年丰”。人寿，仁者长寿；年丰，勤者年丰。长寿，是一生最大的幸福；丰收，是一年最大的企盼。

“*Shījīng*”：“Rú nánshān zhī shòu, bù qiān bù bēng.” Rén yǐ shòu wéi běn, mǐn yǐ shí wéi tiān. Jiùshí yǒu chūnlíán: “Rén rénshòu bǐ nánshān, nián nián fēngyízúshí.” Héng pī wèi:

“Rénshòu nián fēng”. Rénshòu, rénzhě chángshòu; nián fēng, qín zhě nián fēng. Chángshòu, shì yīshēng zuìdà de xìngfú; fēngshōu, shì yī nián zuìdà de qǐpàn.

“Qo’shiqlar kitobi”da “xuddi tog‘lar singari keksa yoshga yetib, tog‘-u toshlardek sog‘-salomat bo‘lsinlar”, deyilgan. Uzoq umr ko‘rish odamlarning asosiy tashvishlaridan biri bo‘lsa, uning asosi oziq-ovqatdir. Qadimiy bahoriy baytda “Hamma tog‘lardek umri uzoq bo‘lsin, ust-boshi but bo‘lsin, rizqi baland bo‘lsin” deb yozilgan bo‘lsa, boshqa bir manbada “uzoq umr va har yilgi mo‘lko‘lchilik” kabi tilak aytib o‘tilgan. Demak uzoq umr, hayotdagi eng katta baxt bo‘lsa, yil davomidagi kutilgan baxt – hosil mehnatkashlar uchun mukofoti sanaladi. Ushbu misolda uzoq umr ko‘rish bilan bir qatorda, to‘kin-sochinlikda hayot kechirish nazarda tutilgan.

寿比南山 [shòu bǐ nán shān] janub tog‘lari kabi uzoq umr ko‘rish.

《史记·天官书》：“老人(星) 见,治安;不见,兵起。”老人星司拿国运长短,故历代王朝都将其列入 国家祀典。长寿,是人类千古永恒的追求,故寿星备受人们喜爱,旧时有 联云:“福如东海水长流,寿比南山 松不老。”

“Shǐjì·tiān guān shū”: “Lǎorén (xīng) jiàn, zhì’ān; bùjiàn, bīng qī.” Lǎorén xīng sī ná guóyùn chángduān, gù lìdài wángcháo dōu jiāng qí liè rù guójīā sì diǎn. Chángshòu, shì rénlèi qiāngǔ yǒnghéng de zhuīqiú, gù shòuxing bèi shòu rénmen xǐ’ài, jiùshí yǒu lián yún: “Fú rú dōnghǎi shuǐ cháng liú, shòu bǐ nánshān sōng bùlǎo.”

“史记·天官书” [Shǐjì·tiān guān shū] da shunday jumlalarni o‘qiymiz: “Uzoq umrni ifodalovchi yulduz paydo bo‘lganda, dunyo tinch va osoyishta bo‘ladi, lekin u yo‘qolsa, zo‘ravonlik boshlanadi” deb yozilgan. Uzoq umr yulduzi xalq taqdirini boshqaradi va shuning uchun unga barcha sulolalar qurbanliklar keltirishgan. Uzoq umr ko‘rish insoniyatning abadiy izlanishidir, shu sabab ham uzoq umr yulduzi xitoyliklar orasida qadrdon hisoblanadi.

Qadimda eski bir baytda shunday deyilgan: “Sharq dengizining uzoq oqimi singari baxt, janub tog‘lari qarag‘aylari kabi uzoq umr”.

Xitoyliklar uchun uzoq umr ko‘rish, unga ko‘maklashuvchi barcha usullar, marosimlar muhim bo‘lgan. Hatto yuqorida aytigandek, qurbanliklar ham qilishgan. Afsonalarga ko‘ra uzoq umr va abadiy yoshlik ichimligi (eliksir)ini topish xitoyliklar uchun har doim dolzarb bo‘lgan.

“五福 [wǔfú]” modelining 喜 [xǐ] komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar

Quvonch tuyg‘usi ham xitoy tilida “baxt” konseptining yaqin periferiyasiga kiradi va uning ajralmas qismidir. Quvonch fundamental his-tuyg‘ularga bo‘lib, universallik, umumanglovchi, verballashuv kabi xususiyatlarga ega. Quvonch insonning universal hissiy holatlaridan biri bo‘lib, ichki hissiy qoniqish, zavq, baxt kabi asosiy ijobjiy his-tuyg‘ularidan biri sifatida tavsiflanadi. “Baxt” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar o‘sha xalqning dunyoga qayday pozitiv qarashini ifodalaydi. Baxt leksemasi alohida konsept sifatida o‘ziga xos inson tuyg‘ularini anglatsa-da, muhabbat, shodlik, quvonch, baxtiyorlik, do‘stlik tuyg‘ulari bilan ham bog‘lanadi. Ma’lumki, baxt konsepti mazmunida inson uchun qadr-qiyomatga ega bo‘lgan tuyg‘u yotadi. Mazkur 喜[xǐ] iyeroglifining lug‘atlarda keltirilgan tarjimalarini tahlil qilganimizda, nafaqat “quvonch”, balki “marosim” ma’nosini ham uchratdik. Biroq marosimlar ham quvonchli voqeа-hodisani ifodalashini hisobga olib, umumiyl “quvonch” ma’nosini qo‘lladik. Quyida keltirilgan frazeologik birliklar, asosan, to‘y marosimi, fazrand dunyoga kelgandagi marosimlarda tabrik so‘zi sifatida qo‘llanishini kuzatdik. Demak, “baxt” modelining tarkibiga kiruvchi 喜[xǐ] quvonch komponenti ko‘p holatda “oila rishtalari” va “nikoh” kabi konnotativ ma’nlarni ifodalashi mumkin ekan. Emotsional konsept bo‘lmish “quvonch” mental mavhum birlik bo‘lib, u odamlarning ko‘p asrlik kumulyativ jarayonda hissiy kechinmalar haqidagi universal va

madaniy o‘ziga xos g‘oyalar shaklini aks ettiradi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa inson o‘z tuyg‘ularini til birliklari orqali ifodalashi va ularni og‘zaki hamda yozma nutqda aks ettirishi tilshunos olimlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Demak, inson o‘z tuyg‘ularini ifoda etar ekan, bu uning voqelik bilan o‘zaro munosabatini o‘ziga xos usuli hisoblanadi. Masalan, inson quvonchni tabassumi bilan, ko‘zlaridagi quvonchli nigoh yoki bo‘shashgan qoshlari bilan ifodalashi mumkin va u bu bilan muayyan voqeaga individual munosabatini bildiradi.

喜 [xǐ] (2032) – quvonch I sifat/ravish 1) quvnoq, quvonchli, xursandlik; baxtli; 大~事 katta quvonchli hodisa (tadbir); ~呼 xursand bo‘lib baqirish; 2) baxtli, xush; intiq bo‘lib kutilgan; ~梦 baxtli (yaxshi) tush; ~雪 uzoq kutilgan (kerakli vaqtda) qor.

II fe'l. 1) quvonmoq, xursand bo‘lmoq; 我心则~ yuragim quvonchdan hapqirib ketadi; ~得没法 xursandligidan nima qilishini bilmay qolish; 2) yaxshi ko‘rish, (nimadir bilan) astoydil shug‘ullanmoq; ~用 yoqtirib ishlatmoq, (nimadandir) bajonidil foydalamanmoq; ~读书 o‘qishni yoqtirmoq, yaxshi ko‘rib kitob o‘qimoq.

III ot. 1) quvonch, quvonchli hodisa, marosim, bayram; 祝(道) ~ bayram bilan tabrikamoq (quvonchli hodisa bilan); 2) sevgi, yaxshilik; ~恨 sevgi va nafrat; 3) homiladorlik; 你太太又有~了? sening ayoling yana homiladormi?

IV atoqli. Si familiyasi.

V so‘z yasalishi. Qo‘shma biologik terminlarda -fil morfemasiga to‘g‘ri keladi, yoki -lyubiviy, masalan: ~旱 【植物】 kserofil, 雨性 ombrofiliya.

喜[xǐ] iyeroglifi “quvonch”, “bayram”, “marosim”, “sevgi”, “yaxshilik”, “homiladorlik”, “xursand bo‘lmoq”, “quvonmoq”, “yoqtirish” (hobbiy, shug‘ullanmoq) kabi ma’nolarini ifodalaydi. Shu bilan birga quvnoq, xush, intiq ma’nolarda ham qo’llanadi. Terminlar yasalishi jarayonida -fil suffiksli so‘zlarda ishtirok etadi.

喜[xǐ] iyeroglifi tarjimalaridan ko‘rinib turibdiki, ma’nosи keng bo‘lib, ham quvonch, ham tantana, marosim ko‘zda tutiladi.

Hayot davomida barcha quvonchli hodisalarini 喜 [xǐ] iyerogliflari bilan ifodalash mumkin. 喜 [xǐ] iyeroglifining markaziy o‘zak ma’nosи jamiyatning taraqqiyoti, oilaning farovonligi haqidagi iltijoni anglatadi. Min va Qin sulolari hukmronligi davrida (XIV-XX) Jin va Chu hududlarida o‘z qarindoshlari va yaqinlarini himoya qilish haqida Koinotga iltijo qilib, unig ramziy ko‘rinishi sifatida qo‘snilarga dimlangan guruch tarqatish an’anasi keng tarqalgan. Farzand tug‘ilganidan boshlab har bir marosimda 喜 [xǐ] iyeroglifi mavjud bo‘ladi. Xitoy xalqining milliy lisoniy tafakkurida 喜 [xǐ] iyeroglifi oila va u bilan bog‘liq quvonchli voqeahodisa, marosimlarni ifodalagani sabab, frazeologik birliklarda ham asosan oila, quvonchli hodisa bilan bog‘liq marosimlarni anglatishini tahlilardan ham ko‘rish mumkin:

皆大欢喜 [jiē dà huān xǐ] hamma xursand, barcha uchun yoqimli.

北京潭柘寺弥勒殿有联：“大肚能容，容天下难容之事；开口便笑，爱世间可笑之人。”弥勒佛是中国人最喜欢的佛，他大度，他能消灾去病，保佑平安。旧时多子多福，有“五男二女”之说，供奉五子弥勒，即可多得贵子。

Běijīng tán zhè sì mílè diàn yǒu lián: “Dà dù néng róng, róng tiānxià nán róng zhī shì; kāikǒu biàn xiào, ài shìjiān kěxiào zhī rén.” Mílè fú shì zhōngguó rén zuì xǐhuān de fú, tā dà dù, tā néng xiāo zāi qù bìng, bǎoyòu píng‘ān. Jiùshí duō zi duō fú, yǒu “wǔ nán èr nǚ” zhī shuō, gòngfèng wǔzǐ mílè, jí kě duō dé guìzǐ.

Pekindagi Tangzhe ibodatxonasining Maytreyea zalidagi yozuvda shunday deyilgan: “Uning katta qorni dunyoda inson uchun qiyin bo‘lgan hamma narsani joylashtirishga xizmat qiladi; uning samimiyl tabassumi dunyodagi barcha qo‘polliklarni xushmu-malalik bilan rad etishining dalilidir. Maytreyaning saxiyligi, shifo berishi va himoya qilish qobiliyati sabab, xitoyliklar orasida eng mashhur Buddha edi. Yetti farzand – besh o‘g‘il va ikki qiz an’anaviy xitoy oilalari uchun baxt edi. Ushbu maqsadga erishish uchun besh o‘g‘il farzandli Maytreyea haykali yoki tasviriga sig‘inishgan.

Albatta, hozirgi kunda xitoyliklar yetti farzand, ya’ni besh o‘g‘il va ikki qiz tushunchasidan biroz yiroq bo‘lib, ushbu frazeologik birlik asosan barcha uchun “quvonchli”, “yoqimli tad-birlar”, “bayramlar”, “mehmondorchilik”ni ifodalashda ishlatiladi. 五福 [wǔfú] modelining 喜 [xǐ] komponenti nishon domen bo‘lib, quvonchning kirib kelishiga ishora qilmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan misolda mifologik va diniy obrazlarga ishora qiluvchi iyeroglipflar mavjud. Xitoy xalqi azaldan ushbu ma’budlar, mifologik obrazlarga ishonib kelgan va bu holat frazeologik birliklarda ham o‘z aksini topgan.

欢天喜地 [huān tiān xǐ dì] cheksiz quvonch, haddan tashqari zavqlanish.

元·王实甫《西厢记》：“则见他 欢天喜地，谨依来命。”獲，亦称猪 猩，头长耳短，前肢特长，善于掘 土，通常筑洞于土丘或大树下，洞道 甚长。“獾”与“欢”谐音，喜鹊有“喜”。喜鹊翔于天而看地，獾立于地 而望天，为“欢天喜地”。

Yuán·wángshífù “xīxiāngjì”: “Zé jiàn tā huāntiānxǐdì, jǐn yī lái mìng.” Huò, yì chēng zhū xīng, tóu cháng ēr duǎn, qiánzhī tècháng, shànyú jué tǔ, tōngcháng zhù dòng yú tǔ qiū huò dà shù xià, dòng dào shén zhǎng. “Huān” yǔ “huān” xiéyīn, xǐquè yǒu “xǐ”. Xǐquè xiáng yú tiān ér kàn de, huān lì yú dì ér wàng tiān, wèi “huāntiānxǐdì”.

Mazkur ibora Yuan sulolası davrida yashab, ijod etgan Van Shifuning “西厢记” [Xīxiāngjì] nomli asarida uchraydi: “Men uni quvnoq ko‘rsam, taqdirdan minnatdor bo‘laman”. Katta boshli va kalta quloqli, qo‘llari uzun bo‘rsiqlar tuproq qazishda yaxshi. Ular katta daraxtlar yoki tepaliklar ostidan uzun teshiklarni qazishadi. Bo‘rsiq zoonimi “quvonch” so‘zi bilan bir xil talaffuz qilinadi, hakka iyeroglipida ham “quvonch” ma’nosи mavjud. Hakka osmonda uchib pastga umid bilan qaraydi, bo‘rsiq yerda turib yuqoriga quvnoq boqadi, ya’ni osmonda ham quvonch, yerda ham xursandlikni ifodalovchi omofon iyeroglipflar uchrab, ikki karra quvnoq, yer-u ko‘kda quvonch, xursandchilik ma’nolari kelib chiqadi.

Mazkur iborada zoonimlar kuzatilib, ikkisi ham o‘z yashash sharoitidan mamnun ekani nazarda tutiladi. Biroq, “quvonch” iyeroglifiga hakka iyeroglifi omofon bo‘lgani ham ular orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Misolda zoonimga ishora qiluvchi omofonlar mavjud, shu bilan birga 五福 [wǔfú] komponenti 喜 [xǐ] ham o‘z ma’nosida, ham zoonimga omofon tarzda ishora qilyapti. Nishon domen 喜[xǐ] bo‘lib, yerdagi quvonchni ifodalagan.

喜上眉梢 [xǐ shàng méi shāo] ko‘zlari quvonchdan porladi, quvonchdan porlamoq.

喜联：“金鸡踏桂题婚礼，喜鹊登梅报佳音。”春联：“红梅吐蕊迎新春，喜鹊登枝唱丰年。”《天宝遗事·灵鹤报喜》：“时人之家，闻鹊声，皆曰喜兆，故谓灵鹤报喜。”鹊是报喜之鸟，梅是报春之花，以喜上“梅”梢谐音，喜上“眉”梢。

Xǐ lián: “Jīnjī tà guì tí hūnlǐ, xǐquè dēng méi bào jiāyīn.”
Chūnlián: “Hóng méi tǔ ruǐ yíng xīnchūn, xǐquè dēng zhī chàng fēngnián.” “Tiānbǎo yíshì· líng hè bàoxi” : “Shí rén zhī jiā, wén què shēng, jiē yuē xǐ zhào, gù wèi líng què bàoxi.” Guàn shì bàoxi zhī niǎo, méi shì bào chūnzhī huā, yǐ xǐ shàng “méi” shāo xiéyīn, xǐ shàng “méi” shāo.

To‘y qo‘shig‘ida: “Xushbo‘y hidli osmantusdagi xo‘roz to‘y haqida, olxo‘ri daraxtidagi hakkalar esa quvonchli xabar haqida e’lon qiladi”, – deyiladi. Xitoy yangi yili qo‘shig‘ida aytilishicha, “qizil olxo‘ri yangi bahorni kutib olish uchun gullaydi va hakkalar kuzning yaxshi hosilini bashorat qilish uchun shoxga qo‘nadi”. Xitoy urf-odatlarida va “天宝遗事·灵鹤报喜” [Tiānbǎo yíshì· líng hè bàoxi] da: “hakkalar omadli qushlar hisoblanadi va ularning tovushlari omad belgisidir”, deb qayd etilgan. Hakkalar baxtdan, olxo‘ri gullari bahor kelishidan xabar beradi. Olxo‘ri talaffuzida 梅 [méi] iyeroglifi 眉 [méi] “qosh” bilan omofon bo‘lgani sabab, “baxtli nigoh” degan ma’noni ham anglatadi. Mazkur misolda zoonimlar uchragan va ular nishon domen orqali omofon bo‘lib, quvonch to‘la ko‘zni ifodalamoqda.

双喜临门 [shuāng xǐ lín mén] qo‘shaloq bayram, xushxabar eshik qoqmoqda, oilaviy baxt.

王安石赴考归途中,在与马员外 女儿成亲的大喜之日,又传来金榜题 名的喜讯,王安石当即书写了“囍”字,寓意双喜临门。在民俗中,结婚 大喜之日,都要贴红“囍”字。喜 鵲,以喜冠名,且叫声示吉兆,故以 双喜鹊寓之。

Wáng‘ānshí fù kǎo guī túzhōng, zài yǔ mǎ yuánwài nǚ’ér chéngqīn de dàxi zhī rì, yòu chuán lái jīnbǎng tímíng de xǐxùn, wáng‘ānshí dāngjí shūxiéle “xǐ” zì, yùyì shuāng xǐlínmén. Zài mínsú zhōng, jiéhūn dàxi zhī rì, dōu yào tiē hóng “xǐ” zì. Xǐquè, yǐ xǐ guàn míng, qiè jiào shēng shì jízhào, gù yǐ shuāng xǐquè yù zhī.

Vang Anshi imtihon topshirib, uyiga qaytib, Ma Yuanvayning qiziga uylangan baxtli kunida oltin ro‘yxatdagi yozuv haqida yana bir xushxabar keladi. Shundan so‘ng Vang Anshi darrov “qo‘-shaloq” ma’nosini anglatuvchi “kàn” so‘zini yozib qoldiradi, ya’ni qo‘shaloq bayram. Xalq og‘zaki ijodida to‘y kuni qizil rangda 囍 [kán] so‘zi bilan yozilib, ilib qo‘yiladi. 喜 鵲 [xǐquè] ya’ni baxt quushi sharafiga nomlangan, 喜 鵲 [xǐquè] xayrli deb tarjima qilinib, mazkur iyeroglis orqali ifodalangan.

喜从天降[xǐ cóng tiān jiàng] kutilmagan quvonch (so‘zma-so‘z: quvonch osmondan tushdi).

《尔雅·释虫·注》：“小蜘蛛长脚 者,俗呼为喜子。”唐时人多画蜘蛛 于墙上,称为“壁钱。”《毛诗草木鸟 兽鱼虫疏》：“此虫来著人衣,当有亲 客至,有喜也。”《广五行记》：“蜘蛛 集于军中及人家,有喜事。”蜘蛛现, 喜事兆。

“Ěr yǎ·shì chóng·zhù”: “Xiǎo zhīzhū cháng jiǎo zhě, sú hū wèi xǐzi.” Táng shí rén duō huà zhīzhū yú qiáng shàng, chēng wèi “bì qián.” “Máo shī cǎomù niǎo shòu yú chóng shū”: “Cǐ chóng lái zhù rén yī, dāng yǒu qīn kè zhì, yǒuxǐ yě.” “Guǎng wǔháng jì”: “Zhīzhū jí yú jūn zhōng jí rénjiā, yǒu xǐshì.” Zhīzhū xiànn, xǐshì zhào.

Qadimgi Xitoy adabiyoti “尔雅·释虫·注” [Ér yǎ·shì·zhù] da kichik o’rgimchaklarni xalq tilida 喜子 [xǐzi] – “baxt urug‘i” deb atashgani qayd etilgan. Tang sulolasi davrida o’rgimchaklar devor-ga chizilgan va ular “devor pullari” deb nomlangan. Boshqa ma’-lumotlarga ko‘ra, ustki kiyim-kechaklarga tushib qolsa, yoki qo‘-shin qarorgohida, uyning burchaklarida, qayerda to‘plangan bo‘lsa, bu quvonchli voqealar sodir bo‘lishining belgisidir. O’rgimchakni ko‘rish omad yo‘lda ekanligiga ishoraligi yozib o‘tilgan. Frazeologik birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “baxt” nafaqat “omad”, “xotirijamlik”, “salomatlik”, “uyg‘unlik” kabi ma’nolarini o‘z ichiga oladi, balki “kutilmagan yoki osmondan tushgan quvonch”ni ham anglatadi.

Qayd etilgan iborani kategoriyalarga bo‘lib chiqsak, zoonimlar ko‘zga tashlanadi. Sababi aynan 降 [jiàng] iyeroglifi o’rgimchakni tepadan o‘rmalab tushishiga ishora. Xitoy xalqi ham boshqa millatlar kabi baxtni tabiat va uning belgilarida ko‘radi. Zoonimlar metafora va o‘xshatishlar shaklida namoyon bo‘ladi. Demak, zoonimlar narsa-predmetni yoki bizning holatda “baxt” tuyg‘usining obrazli tavsifini shakllantirish maqsadida hayvonot olamidan, ularning timsolidan ko‘chma ma’noda foydalanish tushuniladi. Misol sifatida, Xitoy xalqi olaming lisoniy tasvirida o’rgimchak kutilmagan quvonch bilan bog‘liq ekanini 喜从天降 [xǐcóngtiānjiàng] frazeologik birlik tahlilida ko‘rish mumkin. 五福 [wǔfú] modelining 喜 [xǐ] komponenti bevosita quvonchni, uning kutilmagan tarzda tepadan o‘rmalab tushishini 降 [jiàng], ya’ni o’rgimchak zoonimi ifodalagan.

“五福 [wǔfú]” modelining 财 [cái] komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar

Insoniyat yaralibdiki, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari mavjud bo‘lib, ularni qondirish qaysidir ma’noda baxtni, quvonchni yuzaga keltiradi. Xitoyda azaldan unga bo‘lgan munosabat

o‘zgachadir. Quyida, avvalo, 财 [cái] iyeroglifining semantik tahlilini ko‘rib chiqamiz:

财 [cái] (5436) – boylik I ot 1) boylik, davlat, mulk, shaxsiy mulk; 聚~ boylik yig‘ish; 爱~如命 boylikni hayotidan ham ortiq sevish; 分~ mulkni bo‘lish; 2) pul, moliya, mablag‘; 理~ mablag‘ni boshqarmoq; ~部 moliya vazirligi; ~界 moliyaviy guruhlar; 3) o‘rniga 才 (iste’dod, qobiliyat); 4) o‘rniga 材 (xom-ashyo).

II fe’l. 裁 (hal qilmoq, qaror qilmoq).

III ravish (o‘rta asr xitoy tili VI asrdan X asrgacha tarqalgan Janubiy va Shimoliy sulolalar, Suy sulolası, Tan sulolası va Song sulolası tilining nomi) faqatgina, zo‘rg‘a, bor-yog‘i; 余~三千人到康居 tirik qolgan atigi 3 ming kishi Kantzuya (Xorazm) yetib olishdi.


IV atoq. Tsay familiyasi.

Yuqoridagi tarjimalardan ko‘rinib turibdkı, 财 [cái] boylik, pul va barcha moddiy xazinalarning ramzidir. Zamonaviy Xitoyda esa 财 [cái] iyeroglifi ostida, asosan, biznes nazarda tutilib, uning rivojlanishi, katta foydani ifodalaydi.

财 [cái] iyeroglifi “boylik”, “mulk”, “davlat”, “pul”, “molija”, “mablag”, “qaror qilmoq”, “hal qilmoq”, “ahd qilmoq”, “faqatgina”, “zo‘rg‘a” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Undan tashqari, atoqli nom sifatida ism-sharifni ifodalab kelgan. Xitoyliklarning “Odamlar boylik uchun yashaydilar, qushlar esa ozuqa uchun” degan maqoli ularning boylikka qanchalik kuchli bog‘langani va nima uchun uning ketidan quvishga vaqt sarflashini ko‘rsatib beradi. Shunday qilib, 财 [cái] madaniyatining yadrosi boylik olish va to‘plash hisoblanadi. Biroq turli ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan odamlar uchun 财 [cái] so‘zi turli mazmunga ega. Masalan, 财 [cái] dehqonlar uchun katta hosil va sog‘lom qora mol, savdogar uchun bu biznesning gullab-yashnashi va pullarning ko‘payishi, amaldorlarlar uchun esa xizmat pog‘onasidan yuqoriga ko‘tarilish hisoblanadi.

招财进宝 [zhāo cái jìn bǎo] boylikni jalb qilish va xazinaga egalik qilish (moliyaviy farovonlik, boylik va muvaffaqiyat tilash uchun an'anaviy salomlashganda aytildigan frazeologik birlik). 五福 [wǔfú] komponenti bo'lgan 财 [cái] iyeroglifi bitta misolda uchraganini ko'rish mumkin. Ammo bilvosita misollarda boylikka ishora qiluvchi oltin baliq, pari, ma'bud kabi ramzlar ko'zga tashlanadi.

Yuqoridagi misollarning barchasida bevosita baxt modeli tarkibiga kiruvchi, baxtni ifodalovchi iyerogliflar mavjud. Bir qarashda ular baxt haqidagi tasavvurlarini namoyon qilayotganini anglash qiyin emas. Quyida manbadan tanlab olingan umumiy 250 ta frazeologik birliklar ichida 五福 [wǔfú] komponenti ishtirok etgan misollar ushbu formula $f=n(f)$: m asosida necha % ekanini ko'rsatib berilgan. $f=n(f):m$ mazkur formulada m- umumiy son, n(f)- aniq son bo'lib, til bilan bog'liq sohalarda keng qo'llaniladi. Matdagisi asosiy tub ma'no, har bir komponent berayotgan axborotni aniqlashga xizmat qiladi.



Demak, 五福 [wǔfú] komponentli frazeologik birliklar soni 250 ta misoldan 6foizini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich baxtni bevosita ifodalovchi iboralar miqdoriga qaraganda bilvosita baxtga ishora qiluvchi misollar ko'proq ekanini anglatadi.

Xitoy tilidagi “baxt” konseptini bildiruvchi frazeologik birliklar tahlili jarayonida baxtni ifodalovchi, unga ishora qiluvchi

hashorotlar, qushlar, hayvonlar va o'simliklar nomlarini uchratdik. Bundan kelib chiqadiki, baxt metafizik konsept bo'lsa-da, uni moddiylashtirish, ko'z bilan ko'ra oladigan mavjud borliqqa ko'-chirish, uyg'unlashtirishga bo'lgan harakatlar natijasi sifatida metafora, metonimiya kabi hodisalarni ko'rish mumkin. Ushbu hodisani barcha misollarda kuzatish mumkin. Quyidagi faslda esa 五福 [wūfú] modeli komponentisiz, biroq bilvosita baxtga ishora qiluvchi frazeologik birliklar tahlilga tortilgan.

“五福 [wūfú]” komponenti ishtirok etmagan frazeologik birliklarda baxtning ifodalanishi

Insoniyatning rivojlanishidagi asosiy jarayonlar fikrlash, anglash, ong bilab bog'liq mental hodisalardir. Bu borada Amerikalik mashhur lingvist, professori G.Lakoff shunday deydi: “Bizning har kuni bajaradigan harakatlarimiz va o'ylarimiz natijasi o'laroq, kontseptual tizimimizdagi terminlar tabiatan barchasi asosan metaforalardir”⁶⁴. Frazeologik birliklar esa metaforalar ko'p qo'llanuchi turg'un birikmalar sanaladi. Kontseptual metafora nazariyasi G.Lakoff va M.Jonsonlarning “Metaphors We Live by” nomli kitobida yoritib o'tilgan, ishlab chiqilgan. Shuningdek, N.D.Arutyunova yoki D.U.Ashurova⁶⁵ va boshqa tilshunoslarning ishlarida ham tadqiq etishgan.

Kontseptual metafora nazariyasiga ko'ra freymlar va ssenariylarning o'zaro ta'sirida bilim tuzilmalari metaforizatsiya jaryonyiga uchraydi va ikki konseptual domen: nishon domen va asos domenlarga ajratiladi. Nishon – maqsad doirasi tasvirlanayotgan domen bo'lsa, asos maqsadli soha tasvirlangan domendir. Qisqa qilib aytganda, nishon domen mavhum tushunchalarni ifodalasa, asos domen aniq buyum va hodisalarga yo'naltirilgan bo'ladi.

⁶⁴ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем//Теория метафоры/Под ред. Н.Д. Арутюновой. – М.: Прогресс, 1990. – С.387–416.

⁶⁵ Ашуррова Д.У. Когнитивная метафора в художественном тексте//Филология масалалари . – Ташкент, 2016. – № 5– С. 34.

G.Lakoffning nazariyasiga muvofiq, metaforalar uch turga bo‘linadi:

- ontologik metaforalar mavhum tushunchalarni aniq chegaralaydi yoki insonga xos hatti-xarakatlar, tashqi ko‘rinish orqali ifodalaydi;
- orientatsion metafora yo‘nalish, bo‘shliqni bildiradi;
- strukturaviy metaforada nishon domen, odatda mavhum bo‘ladi, asos domen esa aniq bo‘lib, ma’lum bir tushunchani ifodalaydi. Keltirilgan misollarda baxt modeli komponentlarsiz, bilvosita baxtni anglatgan frazeologik birliklar tarkibidagi iyeroglislar, asosan, strukturaviy metaforalar sanaladi. Shu bilan birga, ularning uchta asosiy guruhlarga ajratilgan, bular: zoonimlar, fitoonimlar va mifologik obrazlar. Mifologik obrazlar guruhida insonning eng sodda qarashlari, mifologik va diniy qarashlar (daosizm, buddizim, konfutsiychilik) asosida shakllangan mental tafakkur mahsuli aks etgan iboralarni jamladik:

“五福 [wǔfú]” komponenti ishtirok etmagan frazeologik birliklarda baxtning fitonimlar orqali ifodalanishi

Olam manzarasini tasvirlashda baxt tushunchasi muhim qadriyatlardan biridir. Uni yaxlitlikda anglash jarayonini, botiniy yoki zohiriy guruhlarga ajratishga bo‘lgan harakatlarni har bir millat olamining lisoniy manzarasida kuzatish mumkin. Qadimdan insoniyat mavhum tushunchalarni atrof-muhit, tabiat hodisalari, flora yoki fauna bilan bog‘lagan. Ayniqsa, xalqning kumulyativ tajribalarini o‘zida mujassam etgan frazeolgik birliklarda o‘z aksini topgan. Xitoy xalqi tabiatga bo‘lgan o‘zgacha mehri bilan ajralib turadi. Baxtni ham tabiat bilan uyg’un holda o‘z urf-odatlari, an’analarida, milliy surat, badiiy asaralarda aks ettirgan. Fito- [yun. phyton- o‘simlik] baynanmilal o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘simliklarga yoki o‘simliklar haqidagi fanga aloqadorlikni bildiradi, mas., fitobar, fitopatalogiya⁶⁶. Odamning

⁶⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://n.ziyouz.com/>.

har qanday sifatini nomlash uchun fitonimlardan foydalanish keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Quyida fitonimlar orqali baxtga ishora qilgan farzeologik birliklar keltirilgan.

花好月圆 [huā hǎo yuè yuan] go‘zal oila, baxtli oila (asosan, to‘y marosimlarida tabrik uchun ishlatiladi).

旧时婚联中有：“洞房花烛夜，花好月圆时。”花好月圆象征美满团聚，一般多做新婚颂词。传说中专司人间婚姻的神是月下老人，他在月下翻阅天下婚牍，袋中藏着“红线”暗系在男女双方的脚上，使二人结为百年之好。

Jiùshí hūn lián zhōng yǒu: “Dòngfáng huāzhú yè, huāhǎoyuèyuán shí.” Huāhǎoyuèyuán xiàngzhēng měimǎn tuánjù, yībān duō zuò xīnhūn róngcí. Chuánshuō zhōng zhuān sī rénjiān hūnyīn de shén shì yuè xià lǎorén, tā zài yuè xià fānyuè tiānxià hūn dù, dài zhōng cángzhe “hóngxiàn àn xì zài nánnǚ shuāngfāng de jiǎo shàng, shǐ èr rén jié wéi bāinián zhī hǎo.

Qadimiy nikoh hutbasida shunday deyilgan: “gular ochilib, oy to‘lgan kecha, ikki yosh xonasi shamlarga to‘la”. To‘lin oy va gullar oila birlashuvini, baxtli oilani ifodalaydi. Afsonalarga binoan oila (nikoh) ma‘budi aynan to‘lin oy ostidagi qariya sifatida gavdalaniadi. Nikoh ma‘budi to‘lin oy nurlari ostida ikki yoshning oyog‘iga qizil ip bog‘lab, nikoh o‘qiydi. Bu esa ularning 100 yil birga yashashini bildiradi.

Mazkur frazeologik birlikning so‘zma-so‘z tarjimasi: “gullar ochilib, oy to‘lishganda”, ya’ni gullar to‘liq ochilganda, oy to‘liq bo‘lganda go‘zallahadi va kuchga kiradi, demak inson ham juftini topganda to‘liq kuchga va chiroygaga ega bo‘ladi. “Baxt”ning yana bir konnotativ ma’nosi “baxtli oila” sememasi ham mavjud. Fitomorf, ya’ni o‘simpliklar orqali ifodalangan. Mazkur misolda “花” [huā] bilan “月” [yuè] asos domen bo‘lib, nishon domen baxtga ishora qilmoqda.

国色天香 [guó sè tiān xiāng] nafis, jozibali, go‘zal, bashang.

牡丹,是中国传统的名花,兼有 色、香、韵三者之美,令人倾倒。《本草纲目》：“群花品中,以牡丹第一。”唐·李正封诗

云：“国色朝酣酒，天香夜染衣。”从此牡丹便有了“国色天香”之美誉。后来，多以此称誉妇人之雍容华贵。

Mǔdān, shì zhōngguó chuántǒng de míng huā, jiān yōuse, xiāng, yùn sān zhě zhīměi, lìng rén qīngdǎo. “Běncǎo gāngmù”: “Qún huā pǐn zhōng, yǐ mǔdān dì yī.” Táng·lǐ zhèngfēng shī yún: “Guó sè cháo hān jiǔ, tiānxiāng yè rǎn yī.” Cóngcǐ mǔdān biàn yǒule “guó sè tiānxiāng” zhī měiyù. Hòulái, duō yǐ cǐ chēngyù fù rén zhī yōngróng huágui.

An’anaviy xitoy guli – pion o’z rangi, xushbo‘y hidı va yoqimli shivirlashi bilan o’ziga maftun qiladi. “O’simliklar haqidagi to‘plam”da: “gullar orasida pion guli birinchidir” deb yozilgan. Tang Li Zhengfengning she’rida shunday tasvir mavjud: “rangi o’ziga maftun etsa, nafis bo‘yi rom qiladi”. Pion guli go‘zallik ma’nosini ifodalab, milliy gulga aylangan. Keyinchalik esa u nafis, yuqori tabaqali ayollarni ifodalagan. Qayd etilgan misolda “国色” [guó sè] asos domen bo‘lib, go‘zallarning go‘zalini, baxtli ayolni tasvirlaydi. Eng birinchisi, “eng yaxshisi” kabi ma’nolar orqali insonning o’zidan mammunlik hissi, ya’ni bevosita baxt hissiga ishora qilmoqda.

Xitoyliklar ajoyib estet bo‘lib, ularning dunyoqarashlarida go‘zallik tabiat va inson, uning ichki go‘zalligi hamohangdir. Gullar obrazida ular insoniyat intilish kerak bo‘lgan olivjanoblikni va ma’naviy yuksaklikni ko‘radi. Frazeologik birliklarning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig‘indisi bo‘lmasligi, uning ustiga qurilgan yangi bir ma’no bo‘lishi sababli, ularda ifoda bilan mazmun orasida qandaydir uzilish sodir bo‘ladi. Demak, bu ma’no to‘g‘ridan-to‘g‘ri ibora tarkibidagi leksema-larning ma’nosidan kelib chiqmaydi. Aynan shu sabab, ushbu frazeologik birlikdan “go‘zallik” ham “baxt”ni konnotativ ma’nosini ifodalovchi preferiyadan joy olgan leksema ekaniga ishora qilmoqda. Qadimgi Xitoy estetikasida ikki yo‘nalish – daochilik va konfutsiychilikda go‘zallik haqidagi tasavvurlar turlicha ekanini ko‘rish mumkin. Birinchi yo‘nalishda go‘zallik haqidagi tasavvurlar tabiatga uyg‘un va mukammal yaxlitlik tarzidagi munosabat

bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalishda ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazar ustun. Ularning fikricha, go‘zal tarbiya estetik asosda amalga oshirilishi lozim va u insonni baxtga olib boradi. Bundan kelib chiqadiki, baxt hamda go‘zallik, ya’ni ichki va tashqi go‘zallik o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

五谷丰登 [wǔ gǔ fēng dēng] farovonlik, to‘kin-sochinlik, hosildorlik.

五谷丰登,是对太平盛世、丰收年景的祝颂。五谷为五种谷物:稻、黍、稷、麦、菽。《周礼·天官·疾医》:“以五味、五谷、五味养其病。”佛教密宗修法也使用五谷,以五谷泛指农作物。《汉书·郦食其传》:“民以食为天。”

Wǔgǔ fēngdēng, shì duì tài píng shèngshì, fēngshōu nián jǐng de zhù sòng. Wǔgǔ wèi wǔ zhǒng gǔwù: Dào, shǔ, jì, mài, shū. “Zhōu lǐ·tiān guān·jí yī”: “Yǐ wǔwèi, wǔgǔ, wǔwèi yǎng qí bìng.” Fójiào mìzōng xiūfǎ yě shíyòng wǔgǔ, yǐ wǔgǔ fàn zhǐ nóngzuòwù. “Hàn shū·lì shí qí chuán”: “Mín yǐ shí wéi tiān.”

五谷丰登 [wǔ gǔ fēng dēng] tinchlik va farovonlik, donning ko‘pliginidan dalolatdir. 五谷 [wǔ gǔ] quyidagi besh xil donni o‘z ichiga oladi: guruch, tariq (пшено), gaolyan, bug‘doy va noxot (dukkakli o‘simliklar). 《Djou Li Tian Guan Kasallik tabobati》: “besh xil turdag'i don mahsulotlarini bemorlar iste'mol qilsa, kasallikni bartaraf qiladi”. Buddizm tantrik amaliyotida ham ushbu mahsulotlardan foydalaniladi. “Han Shu·Li Shiqi Tarjimai holi”: “Oziq-ovqat mahsulotlari Tangrining marhamatidir”. Mazkur jumladan ham xitoyliklar uchun taom samo ma’budlari ne’mati, hamda baxtning birlamchi bo‘lagi ekanini bilish mumkin. Ushbu frazeologik birlikda “五谷” [wǔ gǔ] asos domen bo‘lib, insondagi to‘qlik hissini, farovonlikni ifodalagan. Baxtning lug‘atdag'i yana bir ma’nolaridan biri bu – farovonlikdir.

Xitoyliklarning oziq-ovqatga bo‘lgan munosabati barchaga ma’lum bo‘lsa kerak, ya’ni ular tabobatni aynan sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘lashadi. Shu sababdan ham xitoy tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilsak, “dori-darmon ichish” emas, balki “iste’mol

qilish” kabi ma’nolarini anglatadi. Guruch mahsulotini esa xitoyliklarchalik ko‘p iste’mol qiladigan xalq bo‘lmasa kerak. Qayd etilgan besh turdag'i don mahsulotlarining bo‘lishi mo‘l hosildan darak desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Marosimlarda, tabrik so‘zlarda “hosildorlik, farovonlik bo‘lsin” ma’nosida mazkur frazeologik birlikni uchratishimiz mumkin.

荣华富贵 [róng huá fù guì] boylik va shon-sharaf.

宋·苏轼《和述古拒霜花》：“千林扫作一番黄，只有芙蓉独自芳；唤作拒霜知未称，看来却是最宜霜。”芙蓉花凌霜斗妍，自身就是欣欣向荣的写照。且“蓉”与“荣”谐音，“花”与“华”通假，“牡丹”示“富 贵”，合为“荣华富贵”。

Sòng-sūshì “hé shù gǔ jù shuāng huā”: “Qiānlín sǎo zuò yī fān huáng, zhǐyǒu fúróng dùzì fāng; huàn zuò jù shuāng zhī wèi chēng, kàn lái què shì zui yí shuāng.” Fúróng huā língshuāngdòu yán, zìshēn jiùshì xīnxīnxiànggróng de xiézhào. Qiè “róng” yǔ “róng” xiéyīn, “huā” yǔ “huá” tōngjiā, “mǔdān” shì “fùguì”, hé wèi “rónghuá fùguì”.

Song Su Shining “和述古拒霜花” [Hé shù gǔ jù shuāng huā] asarida “butun o‘rmon sariq rangga bo‘yalgan, faqatgina ayozda paxtagul hibiskus gullaydi va xushbo‘y hidi bilan ajralib turadi” deya ta’riflangan. Bunday xususiyatga egaligi sabab, u qat’iy xarakter, halollik va farovonlik guli hisoblanadi. “Gibiscus” va “farovonlik” iyeroglifi o‘zaro omofon, ya’ni bir xil eshitiladi, “gul” va “boylik” iyerogliflari ham shunday, pion guli esa boylik va martabani bildiradi. Ikki gul birlashib, “boylik va martaba” ma’nosini bildiradi.

Yuqoridagi misolda 荣 [róng] iyeroglifi gulni ifodalasa ham, uning unib-o‘sish sharoiti e’tibor talabligi va omofonik xususiyatlaridan kelib chiqib, frazeologik birlikda shon-shuhratni ifodalab, asos domen hisoblanadi, boshqalardan ajralib turish, o‘zidan qoniqish, ya’ni baxt hissiga ishora qiladi. Bundan xitoy tili miqyosida har bir frazeologik birlik o‘z ta’rifiga va ba’zan boshqa millat vakili ilg‘ay olmaydigan ko‘chma ma’nosiga ega degan fikr kelib

chiqadi. 富贵荣华 [fùguì róng huá] yuqoridagi frazeologik birlikka sinonim hisoblanadi. Demak, boshqa tillardan farqli ravishda xitoy tilida iyerogliflar nafaqat semantik, balki talaffuzidan kelib chiqib ham birlamchi iyeroglfif ma'nosini ifodalashi mumkin.

瓜瓞绵绵[guā dié mián mián] serfarzand bo'lishni, avlodlar ko'payishini ifodalaydi.

大瓜、小瓜累累,结在绵长的藤 蔓之上,表示世代绵长,子孙万代。《诗·大雅·绵》:“绵绵瓜瓞,民之初 生,自土沮漆。”《疏》:“大者曰瓜,小者曰瓞。”讲的是周朝的先祖像瓜 瞨一样代代相传,到周文王才奠定了 王业基础。

Dà guā, xiǎo guā lěiléi, jié zài miáncháng de téng mǎn zhī shàng, biǎoshì shìdài miáncháng, zǐsūn wàndài. “Shī-dàyā-mián”: “Miánmián guā dié, mǐn zhī chūshēng, zì tǔ jù qī.” “Shū”: “Dà zhě yuē guā, xiǎo zhě yuē dié.” Jiǎng de shì zhōu cháo de xiānzǔ xiàng guā dié yīyàng dài dài xiāngchuán, dào zhōuwén wáng cái diàndìngle wáng yè jī chū.

Keng polzlarda katta-kichik o'sgan qovun nasl-nasab bardavom bo'lishining belgisidir. Mazkur frazeologik birlik qadimgi adabiyotdan kelib chiqqan bo'lib, Djou sulolasiga ajdodlari va keyingi avlodlari haqida ma'lumot beradi, ularning nasl-nasabi serfarzand bo'lganini ifodalaydi. Djou qiroli Ven hukmronligi davrida shakllangan.

Barcha sharq xalqlari kabi xitoyliklar ham bolajon hisoblanadi, mazkur frazeologik birlik ham bunga ishora qiladi. Butun tirik mavjudot borki, barchasining genida o'zidan nasl qoldirish dasturlashtirilgan bo'ladi. Shu jumladan, insoniyat ham, 瓜瓞 [guā dié] asos domen, nasl qoldirish quvonchli hodisa bo'lib, baxt hissiga ishora qilishini kuzatish mumkin. Demak, avlodlarning ko'payishi baxtning bir ko'rinishidir.

天地长久 [tiān dì cháng jiǔ] uzlusiz, hech qachon o'zgarmas (asosan abadiy muhabbatga ishora).

《诗·大雅·绵》：“绵绵瓜瓞，民之初生，自土沮漆。”意为周朝的祖先像瓜瓞一样，世世相传，代代相 继。图中天竹取其“天”，瓜瓞卧地 而生取其“地”，瓜蔓绵长取其长久，合为“天地长久”。寓意家业兴旺，或夫妻天长地久。

“Shī-dàyǎ-mián”: “Miánmián guā dié, mǐn zhī chūshēng, zì tǔ jǔ qī. ” Yì wèi zhōu cháo de zǔxiān xiàng guā dié yīyàng, shìshì xiāngchuán, dài dài xiāngjì. Tú zhōng tiānzhú qǔ qí “tiān”, guā dié wò dì ér shēng qǔ qí “de”, guā mǎn miáncháng qǔ qí chángjiǔ, hé wèi “tiāndì chángjiǔ”. Yùyì jiā yè xīngwàng, huò fūqī tiānchángdījiǔ.

Qadimgi Xitoy adabiyotida Djou sulolasining ajdodlari va avlodlarini avloddan-avlodga to‘xtovsiz o‘tadigan qovunga qiyoslaydi. Bu yerda 天 tiān osmonni, 地 dì esa yerni ifodalab, osmon va yer abadiydir ma’nosida kelmoqda. Asosan, oilaviy farovonlik yoki turmush o‘rtoqlar o‘rtasida doimiy sadoqatga ishora qiladi. Ushbu misolda ham yuqoridagi misol kabi seravlodlikni, pirovardida uzoq umr nazarda tutilgan. Shu bilan birga uzoq umr ko‘rib, o‘z umr yo‘ldoshi bilan hamjihatlikda yashash kabi konnotativ ma’no mavjud.

Ushbu frazeologik birlik dunyoga tinchlik ma’nosida metafora sifatida ishlatiladi. Tang Zhengxining “Quyoshdag shahzoda” asarida qo‘llangan bo‘lib, sokinlikni, tabiat bilan uyg‘unlikni ifodalaydi⁶⁷.

夫荣妻贵 [fū róng qī guì] erni hurmat qilish, xotinni izzat qilish (er-xotin uyg‘unlikda yashashi, abadiy oilaviy baxtni ifodalaydi).

《诗经·小雅·常棣》：“妻子好合，如鼓瑟琴。”《千字文》：“上和下睦，夫唱妇随。”“芙蓉”谐音“夫 荣”，“七”簇“桂”花谐音“妻贵”。 合为“夫荣妻贵”，寓意夫妻荣辱与 “共，比翼双飞。婚联：“和睦家庭风 光好，恩爱夫妻幸福长”。

⁶⁷ http://chengyu.t086.com/c_b4f4

Shījīng·xiǎo yǎ·cháng dì: “*Qīzi hǎo hé, rú gǔ sè qín.*”“*Qiān zì wén*”: “*Shàng hé xià mù, fūchàngfùsuí.*” Tú yī “*fúróng*” *xiéyīn* “*fú róng*”, “*qī*” cù “*guì*” *huā xiéyīn* “*qī guì*”. Hé wèi “*fú róng qī guì*”, *yùyì fūqī róngrǔ yūgòng, bǐyì shuāngfēi.* *Hūn lián*: “*Hémù jiātíng fēngguāng hǎo, ēn'ài fūqī xìngfú zhǎng*”.

“诗经·小雅·常棣” [Shījīng·xiǎo yǎ·cháng dì] da “ayol musiqa asbobi kabi muloyim bo‘lishi kerak”ligi haqida yozilgan. “千字文” [Qiān zì wén] da birgalikdagi uyg‘unlik, ya’ni er kuylasa, xotin jo‘r bo‘lishi kerakligi haqida yozilgan. Ushbu misolda ham “荣” [róng] iyeroglifi asos domen hisoblanadi. Gibiskus guli va arning ulug‘vorligi bilan bir xil talaffuz qilinadi. Shirin, xushbo‘y Osmanthus bilan oliyjanob rafiqha ham omofondir. Ushbu frazeologik birlik er va xotinning birgalikda yaxshi va yomon kunlarini boshdan kechirishi, bir-biriga mehribon juftliklar sifatida uzoq muddatli baxtni bildirish uchun ishlatilgan.

兰桂齐芳 [lán guì qí fāng] xushmuomalalik va oliyjanoblik.

唐·李白诗:“尔能折桂,吾亦采兰若。”唐·骆宾王《上齐州张司马启》:“常山王之玉润金声,博望侯之兰熏桂馥。”兰花高贵,示为君子。桂花典雅,示为贵人。“兰桂齐”寓意集高贵、典雅于一身,或德才兼备之人。

Táng·lìbái shī: “*Ér néng zhé guì, wú yì cǎi lánrè.*” *Táng·luòbīnwáng* “*shàng qí zhōu zhāng sīmǎ qǐ*”: “*Cháng shānwáng zhī yù rùn jīn shēng, bó wàng hóuzhīlán xūn guì fù.*” *Lánhuā gāoguì, shì wèi jūnzi.* *Guìhuā diānyā, shì wéi guìrén.* “*Lán guì qí*” *yùyì jí gāoguì, diānyā yú yīshēn, huò dé cái jiānbèi zhī rén.*

Orhideya gullarning oliyjanob turi hisoblanadi, odatda xushmuomala insonlar uchun metafora sifatida ishlatiladi; shirin, xushbo‘y osmanthus odatda oliyjanob odamlarni ifodalaydi. Mazzkur frazeologik birlik qobiliyatli va yuksak axloqiy mezonlarga ega bo‘lgan xushmuomala va oliyjanob odamlarga nisbatan qo‘llanadi.

Demak yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, xitoyliklar uchun xushmuomala va oliyjanob amaldorlar ham “baxt”ning

periferik ma’nosи qatoridan o‘rin olgan. Mazkur misolda “兰桂” [lán guì] asos domen hisoblanib, baxtga ishora qiladi. Yaxshi amaldor xalqning dardi bilan yashaydi va bu xalq hayotining yanada farovon bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Farovon va tinch hayot esa baxtli hayot haqidagi tasavvurlarning bir qismidir.

玉树芝兰 [yù shù zhī lán] iste’dodli, istiqboli baland.

Mazkur frazeologik birlik iste’dodlarni maqtash uchun qo‘llanadi. Xitoy an’analarida 芝兰 [zhī lán] janobni, 玉树 yù shù esa iste’dodli insonlarni anglatadi. Yana bir 玉树临风 [yù shù lín fēng] frazeologik birlik ham yuqoridagiga yaqin bo‘lib, yosh va qobiliyatli; ajoyib iste’dod va tashqi ko‘rinishi hushbichim insonni ifodalaydi. Yuqoridagi ikki misolda ham fitonimlarning insonning baxtga eltuvchi fazilatlarini ifodalashini kuzatish mumkin. Insoniyat lisoniy ongi bilan ma’lum bir tushunchalarni yetkazib bera olmasa, u atrofdagi shunga o‘xhash narsa yoki hodisalar orqali ifodalashga harakat qiladi va aynan shu jarayonda metaforalarni o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarga ehtiyoj tug‘iladi.

“五福 [wǔfú]” komponenti ishtirok etmagan frazeologik birliklarda baxtning zoonimlar orqali talqini

Hayvonot dunyosi nomlarini o‘z ichiga olgan zoonimlar barcha tillarning leksik tarkibidagi eng qadimgi semantik guruhlardan biri hisoblanadi. Zoonim [zoo..+yun. onyma- nom, ism] hayvon nomlari bilan bog‘liq so‘zlar⁶⁸. Baxtni ifodalashda hayvonot olamining yaxshi fazilatlari, yashash sharoiti, nasl qoldirishi kabi xususiyatlari qamrab olingan. Masalan, quyida yo‘lbars terisi o‘zgaruvchan ekanligi sabab insonlarni ham xatti-harakati o‘zgaruvchanligiga ishora qiladi.

大人虎变 [dà rén hǔ biàn] amaldorning oldindan bilib bo‘lmaydigan xatti-harakatlariga ishora (yo‘lbarsning o‘zgarishi: yo‘lbarsning tanasidagi naqshining o‘zgarishi kabi)

⁶⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://n.ziyouz.com/> – B.159.

《易·革》：“大人虎变，其文炳也。”《疏》：“损益前王，创制立法，有文章之美，焕然可观，有似虎变，其文彪炳。”旧时常以“大人虎变”，比喻大人物行止屈伸高深莫测，犹如虎之花纹，斑驳多彩。也喻事业奋发有成。

“Yì·gé”: “Dàrén hǔ biàn, qí wén bǐng yě.” “Shū”: “Sǔnyì qián wáng, chuàngzhì lìfǎ, yǒu wénzhāng zhīměi, huànrán kēguān, yǒu sì hǔ biàn, qí wén biāobǐng.” Jiù shícháng yǐ “dàrén hǔ biàn”, bǐyù dàrénwù xíngzhī qūshēn gāoshēn mò cè, yóurú hǔ zhī huāwén, bānbó duōcǎi. Yě yù shìyè fènfā yǒu chéng.

Mazkur frazeologik birlik qadimdan mashhur va qudratli odamlarning oldindan aytib bo‘lmaydigan, ya’ni yo‘lbarsning rangli terisidagi xilma-xil naqshlardek o‘zgaruvchan xattiharakatlariga ishora qilish uchun ishlatilgan. Shu bilan birga o‘z ilmiy sohasida katta yutuqlarga erishishni anglatadi. Demak, asos domen “虎” iyeroglifi yo‘lbars deb tarjima qilinib, yo‘lbar kabi kuchli, aqlli amaldorlarni ifodalagan.

前程万里 [qián chéng wàn lǐ] kelajagi porloq, umidli, yorqin istiqbolga umid qilish, yorqin kelajakka umid beruvchi shogird (so‘zma-so‘z: oldinda o‘n míng chaqirim yo‘l cho‘zilgan).

宋·计有功《唐诗纪事·崔铉》：“此儿可谓前程万里也。”唐·孟浩然《唐城馆中早发寄扬使君》：“访人留后信，策蹇赴前程。”旧时“功名”也称为“前程”。骆驼，性温顺而执拗，善耐饥渴，负重致远。赞颂前程远大。

Sòng·jì yǒugōng “tángshī jìshì·cuī xuàn”: “Cǐ er kěwèi qiánchéng wàn lǐ yě.” Táng·mènghàorán “táng chéng guǎn zhōng zǎo fā jì yáng shǐ jūn”: “Fǎng rén liú hòu xìn, cè jiǎn fù qiánchéng.” Jiùshí “gōngmíng” yě chēng wèi “qiánchéng”. Luòtuó, xìng wēnshùn ér zhí ǎo, shàn nài jī kě, fùzhòng zhìyuǎn. Zànsòng qiánchéng yuǎndà.

Song Ji Gonggongning “唐诗纪事·崔铉” [Tángshī jìshì·cuī xuàn] asarida: “Bu joyni kelajak deb ta’riflash mumkin” kabi

misolda, yoki Tang Meng Haoranning “唐城馆中早发寄扬使君” [Táng chéng guǎn zhōng zǎo fā jì yáng shǐ jūn] ya’ni elchilar haqidagi bo’limida: “mehmonlar (tashrif buyuruvchi elchilar) yorqin kelajakka (shon-sharafga) umid qiladilar” misolida ham 前程 [qiánchéng] iyeroglifi qatnashganini ko‘rish mumkin. Qadimgi yozuvlarda 前程 [qiánchéng] “shon-sharaf” iyeroglifi “istiqbol” iyeroglifi bilan ham qo‘llangan. Aynan mazkur frazeologik birlik tuyalar surati bilan qo‘llangan. Buning sababi esa tuyalar itoatkor va qaysar, ochlik va tashnalikka chidamli, og‘ir yuklarni juda uzoq masofalarga ko‘tara oladigan jonivor bo‘lib, umidni ifodalagan. Kelajakka umid, aniq bir maqsadga yetishish ramzidir. Mazkur misolda esa tuya aynan umidni, maqsadga erishishni ifodalab, baxtga yetaklovchi fazilatga ega jonivor sifatida keltirilgan.

旭日东升[xù rì dōng sheng] kelajakdagi taraqqiyot, yaxshi istiqbol (quyosh chiqishi, yangi kun – yangi hayot).

一轮红日从东海万倾波涛中冉冉升起,象征着国家、事业、生活蒸蒸日上。《剧谈录·慈恩寺牡丹》：“初旭才照,露华半晞。”鹤为长寿仙禽,被尊为一品鹤,六只仙鹤有“六顺”之吉,环日而翔,有指日高升之意,又有一品当朝之寓。

Yī lún hóng rì cóng dōnghǎi wàn qīng bōtāo zhōng rǎnrǎn shēng qǐ, xiàngzhēngzhe guójīā, shìyè, shēnghuó zhēngzhēngrìshàng. “Jù tán lù·cí’ēn sì mǔdān”: “Chū xù cái zhào, lù huá bàn xī.” Hè wèi chángshòu xiān qín, bèi zūn wéi yīpǐn hè, liù zhǐ xiānhè yǒu “liù shùn” zhī jí, huán rì ér xiáng, yǒu zhǐ rì gāoshēng zhī yì, yòu yǒu yīpǐn dāng zhāo zhī yù.

Qizil quyosh sharqiy Xitoy dengizidagi minglab to‘lqinlar orasidan asta-sekin ko‘tariladi, u mamlakat farovonligi, martabasi va hayoti ramzidir. “剧谈录·慈恩寺牡丹” [Jù tán lù·cí’ēn sì mǔdān] da mazkur frazeologik birlik turnalar ramzi bilan ifodalanib, turnalar uzoq umr ko‘radigan ajoyib qushlar sifatida tasvirlangan va shu sabab hurmatga sazovor. Mazkur frazeologik birlik kundan kun o‘sib borishini bildiradi. Quyosh atrofida uchayotgan turna kelajakdagi taraqqiyotni anglatadi, shuningdek, yuqori martabali

amaldor bo‘lish belgisi hisoblanadi. Turnalar Xitoy xalqi madaniyatida yangilanishni, kelajakka umidni ifodallaydi. Mazkur frazeologik birlikda ham turna orqali yorqin kelajakka umid ma`nosiga ishora qilingan.

Undan tashqari xitoy tilida omofoniya hodisasi tez-tez kuzatilib, omofon bo‘lgan hayvonlar nomlari ham qo‘llangan. Misol sifatida quyida keltirilgan xo‘roz bilan omofon bo‘lgan shon-shuhrat iyeroglifi mavjud:

功名富贵 [gōngmíng fùguì] shon-sharaf va boylik, ulug‘ martaba va boylik tilamoq.

大鸡作为“大吉”之物,备“五德”。鸡鸣将旦,光明到来,以“公 鸣”谐音“功名”。刘禹锡《同乐天 送令狐相公赴东都留守》:“世上功名 兼将相,人间声价是文章。”苏轼《墨宝堂论》:“士当以功名闻于世。”功成名就自有富贵。

Dà jī zuòwéi “dàjí” zhī wù, bèi “wǔ dé”. Jī míng jiāng dàn, guāngmíng dàolái, yǐ “gōngmíng” xiéyīn “gōngmíng”. Liúyǔxī “tóng lè tiān sòng lìng hú xiànggong fù dōng dū liúshǒu”: “Shìshàng gōngmíng jiān jiàng xiàng, rénjiān shēng jià shì wénzhāng.” Sūshì “mòbǎo táng lùn”: “Shì dāng yǐ gōng míng wén yú shì.” Gōngchéngmíngjiù zì yǒu fùguì.

Xo‘roz “omad” kabi talaffuz qilinib, o‘zida beshta fazilatni mujassam etadi. Xo‘roz baland qichqirig‘i bilan birinchi bo‘lib erta tongdan xabar beradi va uni atrofdagi barcha biladi, mashhur insonlar ham o‘z sohasida birinchi va ular barchaga tanish. Xitoy tilida xo‘roz iyeroglifi bilan 功名 [gōngmíng] shon-shuhrat iyeroglifi ohagdoshdir. Shu sabab ham xo‘roz shon-sharaf, mashhurluk ramzi hisoblanadi. Tan sulolası (618—907) davrida yashab, ijod qilgan Liu Yuxi va Song sulolası (960-1279) davrida yashab, ijod qilgan Su Shining she’rlarida o‘sha davrning talabidan kelib chiqib, mansabdor shaxslarni ulug‘lashga, ular uchun qasidalar yozishga katta ahamiyat berilgan. Mansabdor shaxslarning o‘z-o‘zidan boyligi ham ko‘payadi kabi qarashlar

hukm surgan. Mazkur frazeologik birlik ko‘pgina badiiy asarlarda uchraydi.

Mazkur frazeologik birlik xo‘roz xitoyliklar uchun “omad” yoki “shon-shuhrat” timsoli ekanini ko‘rsatmoqda, shu bilan birga, sharq davlati sifatida mansabga katta e’tibor berilishini ifodalaydi. Zoomorf, ya’ni hayvonlar obrazi orqali “shon-shuhrat” iyeroglifi xo‘roz bilan omofon bo‘lgani sabab mazkur fasldan joy olgan.

—琴—鹤 [yī qín yī hè] halol va kamtar amaldor.

《宋史·赵抃传》：“赵抃号铁面 史，帅蜀以一琴一鹤自隨。”
赵抃 刚直清廉,奉旨入蜀为高官,仅以一 琴—鹤为伴。后世颂
为官清廉, 高雅不俗者, 多以“一琴—鹤”之。古 代,修身洁行且
有时者被称为“鹤 鳴之士。”

“Sòng shǐ·zhàobiànchuán”: “Zhào biàn hào tiě miàn shǐ, shuài shǔ yǐ yī qín yī hè zì suí.” Zhào biàn gāngzhí qīnglián, fèng zhī rù shǔ wèi gāoguān, jǐn yǐ yī qín yī hè wèi bàn. Hòushì sòng wèi guān qīnglián, gāoyā bù sú zhě, duō yǐ “yī qín yī hè” zhī. Gǔdài, xiūshēn jié xíng qiè yōushí zhě bèi chēng wèi “hè míng zhī shì.”

“宋史·赵抃传” [Sòng shǐ·zhàobiànchuán] da: “Jao Byan ismli amaldor Shu shahriga bitta chin (qadimgi stol arfasi tipidagi yetti torli tortma cholg‘u asbobi) va bitta turna hamrohligida borgan”. Jao Byan to‘g‘ri va halol inson bo‘lgan. Hatto martabasi yanada ko‘tarilib, yuqori darajali amaldor bo‘lganda ham o‘zi bilan bitta chin va bitta turnani olib yurgan. Keyinchalik rostgo‘y, xushmuomala, kamtar amaldorlarga nisbatan qo‘llangan. Qadim zamonlarda axloqiy fazilatlari pok va mukammal bo‘lgan ilm ahlini “鹤 鳴之士” [hè míng zhī shì] deb ataganlar. Shu sabab ham turna kamtarlik va uzoq umrni ifodalash uchun metafora sifatida qo‘llanadi. Mazkur frazeologik birlik baxt modelining 祿 [lù] komponenti tarkibiga kirib, aynan bilim, kamtarlik, hukumat a’zosi sifatida amaldorlarning halol bo‘lishi ham baxtning bir ko‘rinishi ekanligini misollardan kuzatish mumkin.

饮马投钱 [yìn mǎ tóu qián] halollik, to‘g‘rilik, jamoat mulkiga zarar bermaslik.

明·程登吉《幼学琼林·文臣》：“汉刘宽责民，蒲鞭示辱；项仲山洁己，饮马投钱。”汉朝刘宽仁恕宽厚，为南阳太守时，对有过失的吏民，只用蒲鞭责打。安陵人项仲山，清节不枉取，每饮马渭水，必投钱三枚，清廉之至。

Míng·chéngdēngjí “yòu xué qióng lín·wénchén”: “Hàn liú kuān zé mǐn, pú biān shì rǔ; xiàng zhòngshān jié jǐ, yǐn mǎ tóu qián.” Hán cháo liúkuānrén shù kuānhòu, wèi nányáng tàishǒu shí, duì yǒu guòshī de lì mǐn, zhǐ yòng pú biān zé dǎ. Ān líng rén xiàng zhòngshān, qīng jié bù wǎng qǔ, měi yǐn mǎ wèishuǐ, bì tóu qián sān méi, qīnglián zhī zhì.

Ming sulolası davriga oid “幼学琼林·文臣” [yòu xué qióng lín·wénchén] asarida aytılıshicha, Xan sulolasidan bo‘lgan Lyu Kuan o‘z qo‘l ostidagilarnı qamchi bilan urib, haqorat qilgan. Biroq undan farqli Anlingda Qing sulolasidan bo‘lgan Syan Jongsyan bo‘lgan va u Wei daryosi suvini har safar oti ichganida uchta tangadan tashlab ketgan. Xolis va to‘g‘ri fazilatlı insonlarnı maqtash uchun qo‘llangan. Mazkur misolda halollik asos domenni ifodalab, xitoyliklar milliy mental ongida diniy qarashlardan kelib chiqib, baxtga ishora qilmoqda.

Xolislik va to‘g‘rilikni ifodalovchi frazeologik birlikni so‘zma-so‘z tarjima qilsak, otini sug‘orish uchun pul to‘lash ma’nosи kelib chiqadi, ya’ni daryo suvidan ichganiga unga haq to‘lab ketishini anglatgan. Tadbirkorlikda ham xitoyliklar nazdida xolislik va boshqaning mulkiga zarar keltirmaslik eng asosiy baxtli hayot shartlaridandır.

“五福 [wǔfú]” komponenti ishtirok etmagan frazeologik birliklarda baxtning mifologik obrazlar orqali talqini

Mif [yun. mythos- so‘z, afsona, rivoyat] qadimgi kishilarning borliq olam haqidagi ibridoiy tasavvurlarning majmui bo‘lib, koinnotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisasi.

salarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budalar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga oladi. Mifologik – mifologiyaga oid⁶⁹.

Mifologik obrazlar barcha xalqlar adabiyoti, urf-odatlari, madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, zaminida olamning sodda tasviri, ilk diniy qarashlar yotadi. Xitoyliklarning boylikka bo‘lgan munosabati ko‘pgina diniy urf-odatlarni va ma’budlarga ibodatni keltirib chiqargan bo‘lib, ma’budlar turli soha vakillariga alohida ajratiladi: askarlarning boylik xudosi, Lyu Hay parisi, olimlarni qo‘llab-quvvatlovchi boylik xudosi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Demak, xitoyliklar milliy mental ongida baxtni bilvosita ifodalovchi obrazlar qadimdan shakllangan bo‘lib, ularning barchasiga ishonishgan, shu sabab ham bayram tabriknomalarida ham o‘z aksini topgan.

天下太平 [tiān xià tài píng] tinchlik va xotirijamlik, dunyo tinchligi.

四大天王俗称四大金刚,是佛教 中的神将。南方增长天王,手执宝 剑,司风;东方持国天王,手执琵 琶,司调;北方多闻天王,手持宝 伞,司雨;西方广目天王,手中缠绕 一龙,司顺。四件法宝寓意为:风调 雨顺,天下太平。

Sì dà tiānwáng súchēng sì dà jīngāng, shì fójiào zhōng de shén jiāng. Nánfāng zēng cháng tiānwáng, shǒu zhí bǎojiàn, sī fēng; dōngfāng chíguótíānwáng, shǒu zhí pípá, sī diào; běifāng duō wén tiānwáng, shǒuchí bǎo sǎn, sī yǔ; xīfāng guǎng mù tiān wáng, shǒuzhōng chánrào yī lóng, sī shùn. Sì jiàn fābǎo yùyì wèi: Fēngtiáoyǔshùn, tiānxià tài píng.

To‘rt samoviy shoh, buddaviylikda to‘rt oltin ma’budlar nomi bilan tanilgan. Janubda Ceng chang (o‘sish, rivojlanish) shohi, u qo‘lida qilich bilan shamolni boshqaradi. Sharqda Te guo shohi, u qo‘lida pipa (musiqiy asbob) bilan ohang (kuy, sokinlik)ni boshqaradi. Shimolda Duo wen shohi, u qo‘lida soyabon bilan yomg‘irni boshqaradi. G‘arbda Guang mu shohi, uning qo‘lida

⁶⁹O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://n.ziyouz.com/> – B.603.

chirmashib olgan ajdaho yo‘nalishni ko‘rsatib turadi. Mazkur to‘rt yo‘nalish yoki ma’budlar birlashganda, ularning to‘rt quroli shamolni sokin, yomg‘irni mayin qiladi, osmon osti ham tinchlik, xotirjamlikka erishadi.

Mazkur frazeologik birlikdan bilish mumkinki, xotirjamlik, tabiiy ofatlarning bo‘lmasligi, tabiatning ichki va tashqi bir-biriga bog‘liq, o‘zaro muvozanati bu ham baxtning bir ko‘rinishidir. Darhaqiqat, butun dunyoda tinchlik hukm surishi bebahohaxtdir. Qin liu e (清·刘鹗)ning “Lao Sanning sarguzashtlari” nomli kitobida ushbu frazeologik birlik bilan quyidagi jumla keltirilgan: 人人好公, 则天下太平; 人人营私, 则天下大乱 [rén rén hǎo gōng, zé tiānxià tài píng; rén rén yíngsī, zé tiānxià dàluàn] Har bir inson bag‘rikenglik ila harakat qilsa, dunyo ham tinch bo‘ladi, agar har bir inson o‘z manfaatini ko‘zlasa, dunyoda tartibsizlik yuzaga keladi. Shu bilan birga Buddizm diniga oid to‘rtta ma’budni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu xitoy xalqi ma’daniyatiga buddizm, daosizm va konfutsiychilikning ta’siri katta bo‘lganidan dalolat. Ilohiydiniy obrazlar bilan bog‘liq mazkur misoldagi “天下” iyeroglifi buddaviylikdagi to‘rt ma’bud, to‘rt tomon tinchligiga, ya’ni farovonlikka, baxtning yana bir ma’nosiga ishora qiladi.

河清海晏 [hé qīng hǎi yàn] tinchlik, barqarorlik. (so‘zmaso‘z: Sariq daryoning suvi tiniq, dengiz esa sokin. Qadimdan ichki barqarorlik va tinchlikni tasvirlashda qo‘llangan).

《拾遗记》：“黄河千年一清,清则圣人生于此时。”《周诗》：“俟河之清,人寿几何?”晏,意为安也。“河清海晏”寓意太平盛世,天下大治。图中以“荷”谐音“河”,“燕”谐音“晏”,又取河水之“清”,海棠之“海”,合为“河清海晏”。

“Shíyí jì”: “Huáng hé qiānnián yī qīng, qīng zé shèng rénshēng yú cǐ shí.” “Zhōu shī”: “Qí hé zhī qīng, rénshòu jǐ hé?” Yàn, yì wéi ān yě. “Héqīng hǎi yàn” yùyì tài píng shèng shì, tiānxià dà zhì. Tú zhōng yǐ “hé” xié yīn “hé”, “yàn” xié yīn “yàn”, yòu qǔ hé shuǐ zhī “qīng”, hǎitáng zhī “hǎi”, hé wèi “héqīng hǎi yàn”.

《拾遗记》[shíyí jì]da aytilishicha, “Sariq daryo ming yildan so‘ng tiniqlashadi va shu davrda donishmand dunyoga keladi”.

《周诗》[zhōu shī] she’rlar to‘plamida esa “daryo qanchon tiniqlashsa, inson hayoti ham shunchalik tiniqlashadi” deyiladi va bu yerda tinchlik nazarda tutilmoxda. 河清海晏 [hé qīng hǎi yàn] frazeologik birlikni “butun dunyoni tinchlik boshqaradi” deb tarjima qilish mumkin. Ba’zi tabriknomalardagi “荷”[hé] iyeroglifi aslida “河”[hé], “燕”[yàn] iyeroglifi esa “晏”[yàn] bilan omofon bo‘lib, mazkur frazeologik birlikni tashkil qilmoqda. Ushbu misolda ham tinchlik, farovonlik baxtni taqozo qiluvchi bir bo‘lak ekaniga ishorani asos domen “晏”” [yàn] iyeroglifida kuzatish mumkin.

四海升平 [sìhǎi shēngpíng] tinchlik va farovonlik.

四海,在这里泛指天下。《孟子·梁惠王上》:“故推恩足以保四海。”升平,指太平。《汉书·梅福传》:“使孝武帝听用其计,升平可致。”图中海水寓“四海”,“笙”、“瓶”寓“升平”,合为“四海升平”,即天下太平之意。

Sìhǎi, zài zhèlǐ fàn zhě tiānxià. “Mèngzǐ· liáng huì wáng shàng”: “Gù tuī ēn zúyǐ bǎo sìhǎi.” Shēngpíng, zhě tài píng. “Hàn shū·méi fú chuán”: “Shǐ xiào wǔdì tīng yòng qí jì, shēngpíng kě zhì.” Tú zhōng hǎishuǐ yù “sìhǎi”, “shēng”, “píng” yù “shēngpíng”, hé wèi “sìhǎi shēngpíng”, jí tiānxià tài píng zhī yì.

To‘rt dengiz butun dunyoga ishora qiladi (天下[tiānxià] butun Xitoy, osmon osti). Mengzining “梁惠王上”[liáng huì wáng shàng] kitobida “Shunday ekan, dunyoni himoya qilish uchun yaxshilik kifoya qiladi” deyiladi. Misolda 升平 [shēngpíng] aynan 太平 [tài píng] tinchlik, xotirijamlikni ifodalaydi. Han Shuning 梅福传 [méi fú chuán] kitobida quyidagicha misol keltirilgan: “Imperator Syaovu tinchlikni targ‘ib qilish uchun o‘z taktikasini qo‘llashi mumkin edi”. Ushbu maqolning tabriknomalardagi surati quyidagicha tasvirlangan: 升[sheng] iyeroglifining omofoni 筝 [sheng]

shen (qamishdan yasalgan musiqa asbobi) va 平 [píng] iyeroglifi 瓶 [píng] guldon ma’nosini anglatib, guldon va shen birgalikda tasvirlanadi. Umuman “to‘rt dengiz” birga to‘rt tarafdagি dengizni ya’ni butun dunyoga ishora qiladi, 升平 [shēngpíng] iyeroglifi bilan esa butun dunyodagi tinchlikni anglatadi.

Yuqoridagi maqolga keltirilgan Mengzining ta’rifiga sharh berib o‘tsak: “Demak, ezgulikni targ‘ib qilish dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlarning ko‘nglini ko‘tarish uchun yetarli, agar mehrni targ‘ib qilmasang, hatto xotin-bola ham tinchlanmaydi”. Ezgu amal ham tinchlik uchun, ham ta’lim-tarbiya uchun xizmat qiladi, degan fikrni ko‘rish mumkin. Albatta, ezgulik ostida esa xotirjamlik va tinchlik yotadi. Maqolda baxt bu tinchlik, baxt bu ko‘ngil xotirjamligi va ezgu amal ekanligiga ishora qilinmoqda. Misollardan “xotirjamlik va sokinlik” iyerogliflari miqdor jihatidan ko‘p ekanligini kuzatish mumkin.

Shu bilan birga maqolda keltirilgan 天下 [tiānxià] so‘zi nafa-qat butun dunyo, osmon osti, balki butun Xitoy, ya’ni rus tilidagi “поднебесная” so‘zini ifodalaydi va u asos domen hisoblanadi.

一路平安 [yī lù píng ān] oq yo‘l, xavfsiz sayohat (ba’zan uydan ko‘chaga chiqqanda ham duo sifatida qo‘llanadi).

衣、食、住、行,是人类生活的 四大需求。古代交通不便,出门行路 艰难。上路时燃放爆竹,祭祀路神以 求一路平安。路神,传说是上古神话 人物共工之子修,修喜远游终死路 途。到了两千多年后的汉朝,修被人们尊为路神。

Yī, shí, zhù, xíng, shì rénlèi shēnghuó de sì dà xūqiú. Gǔdài jiāotōng bùbiàn, chūmén xínglù jiānnán. Shànglù shí ránfàng bāozhú, jìsì lù shén yǐ qiú yīlù píng‘ān. Lù shén, chuánshuō shì shànggǔ shénhuà rénwù gòng gōng zhīzǐ xiū, xiū xǐ yuǎn yóu zhōng sǐ lùtú. Dàole liǎng qiān duō nián hòu de hàn cháo, xiū bèi rénmen zūn wèi lù shén.

Kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy va xavfsiz yo‘lda harakatlanish inson hayotining to‘rtta asosiy ehtiyojlaridir. Qadimda yo‘lda

harakatlanish noqulay, sayohat qilish esa qiyin bo‘lgan. Yo‘lda petardalar otilib, xavfsiz sayohat uchun yo‘l xudosiga qurbanliklar keltirilgan. Yo‘l xudosi, afsonalarda aytishicha, qadimgi mifologik shaxs Gonggongning o‘g‘li Xiu bo‘lgan, u uzoq sayohatdan so‘ng vafot etgan. 2000 yildan ko‘proq vaqt o‘tgach, Xan sulolasida davrida Xiu yo‘l xudosi sifatida hurmatga sazovor bo‘lgan.

Demak, yuqoridagi misollarda ham aytib o‘tilgandek, 平安 [píng ān] asos domen bo‘lgan tinchlik iyeroglifi ham farovonlikni, baxtni ifodalovchi bir bo‘g‘indir.

三纲五常 [sān gāng wǔ cháng] axloq-odob tamoyillari, etiket qoidalari

“三纲五常”是中国封建社会的“礼”,也泛指旧礼教和伦理道德,是 汉董仲舒根据孔子的学说提出的。“三纲”即“君为臣纲,父为子纲,夫为妻纲。”“五常”即“仁、义、礼、智、信。”

Sāngāngwǔcháng” shì zhōngguó fēngjiàn shèhuì de “lǐ”, yě fàn zhī jiù lǐjiào hé lúnlǐ dàodé, shì hàn dōngzhòngshū gēnjù kǒngzǐ de xuéshuō tíchū de. “Sān gāng” jí “jūn wèi chén gāng, fù wèi zǐ gāng, fū wèi qī gāng.” “Wǔcháng” jí “rén, yì, lǐ, zhì, xìn.”

Uch tamoyil va beshta turg‘unlik Xitoy feodal jamiyati etikasi bo‘lib, Konfutsiyning so‘zlariga ko‘ra, Xan sulolasidan Dong Jongshu tomonidan eslatib o‘tilgan barcha qadimgi axloq va axloqiy me’yorlarga tegishlidir. Uch tamoyil: xalq monarxga bo‘ysunishi kerak; o‘g‘illar otalariga bo‘ysunsinlar; xotinlar erlariga itoat qilishlari kerakligi aytib o‘tilgan. Besh turg‘unlik: “burch, ehtirom, odob-axloq, donolik va ishonch” degan ma’noni anglatadi. Masalan, “先生九经皆通, 无书不读, 岂不晓三纲五常之理? (元·贾仲名《萧淑兰》第二折) Xiānshēng jiǔ jīng jiē tōng, wú shū bù dù, qǐ bù xiǎo sāngāngwǔcháng zhī lǐ? (Yuán·jiā zhòng míng “xiāoshūlán” dì èr zhé” (Janob, siz to‘qqizta mumtoz asarni yaxshi bilasiz, o‘qimagan kitobingiz yo‘q, “odob-axloq” tamoyillarini bilmaysizmi? (Yuan Jia Zhongming tomonidan “Xiao Shulan” ning ikkinchi qismi).

Albatta, “har bir millat, xalqning madaniyati uning, avvalam-bor, dini, e’tiqodi asosida rivojlanadi” degan fikrga asoslanib, xitoy millatida ham “baxt” konsepti diniy, ilohiy ma’nolarni ifoda etishi-ni ko‘rish mumkin. Baxtni xarakterlash tabiiydir, inson o‘zi uchun muhim deb hisoblagan qadriyatlarni birlamchi deb biladi. Albatta mazkur qadriyatlar esa har bir insonning axloqiy me’yorlaridan kelib chiqadi. Shu sabab ham “baxt”ning pereferiyasida axloq me’yorlari kabi konnotativ ma’no ham yotadi. Xitoy tilidagi “道德 [dàodé]” so‘zi (道 [dào] “yo‘l, burch, axloq, ta’lim, usul”, 德 [dé] “axloq, ezgu amal, minnatdor bo‘lmoq”) ham baxtga erishishdagi bir yo‘lning muhim yo‘nalishini anglatishini ko‘rish mumkin. Aynan, go‘zal axloq, burch, donolik, ishonch va ehtirom baxtning yaqin pereferiyalaridan sanaladi. Umuman olganda, 道 [dào] iyeroglifi diniy jihatdan insonni to‘g‘ri yashashga va pirovardida baxtga eltuvchi yo‘l sifatida qaralgan. Shu sababdan ham mazkur diniy tamoyillarni o‘z ichiga oluvchi frazeologik birlik baxtga ishora qilmoqda.

二龙戏珠 [èr lóng xì zhū] farovon va barakali yil.

二龙戏珠源于民间的耍龙灯,有 庆丰年、祈吉祥之意。龙,是华夏先 祖的图腾,后来一直是最大的吉祥 物。“飞龙在天,犹圣人之在王位”。历代帝王多自诩为真龙天子。龙在中 国被尊为至高无上的神,炎黄子孙自称是龙的传人。

Èr lóng xì zhū yuán yú minjiān de shuǎ lóngdēng, yǒu qìng fēngnián, qí jíxiáng zhī yì. Lóng, shì huáxià xiānzǔ de túténg, hòulái yīzhí shì zuìdà de jíxiáng wù. “Fēilóng zài tiān, yóu shèngrén zhī zài wángwèi”. Lìdài dìwáng duō zì xǔ wéi zhēn lóng tiānzi. Lóng zài zhōngguó bìe zūn wéi zhìgāowúshàng de shén, yánhuáng zǐsūn zìchēng shì lóng de chuánrénn.

Ikki ajdarning marvarid o‘ynashi ajdaho fonarlarining xalq raqlaridan kelib chiqqan bo‘lib, farovon yilni nishonlash va barakali bo‘lishi uchun duo qilishni anglatadi. Xitoyliklar ajdodlarining asosiy totemi bo‘lgan ajdaho qadimdan beri eng katta tumori bo‘lib kelgan. “Uchar ajdaho osmonda, xuddi donishmand taxtda bo‘lgani

kabidir”. O’tmishdagi sulolalarning imператорлари ко‘pincha o‘zlarini ajdaholarning haqiqiy o‘g‘illari deb da’vo qilishgan. Xitoyda ajdaho oliv ma’bud sifatida e’zozlanadi, Yan va Xuan avlodlari esa o‘zlarini ajdahoning avlodlari deb ta’kidlaydilar. Misol: 头上戴着束发嵌宝紫金冠，齐眉勒着二龙戏珠金抹额。

(清·曹雪芹《红楼梦》第三回) Tóu shàng dàizhe shù fǎ qiàn bǎo zǐjīn guān, qí méi lēizhe èr lóng xì zhū jīn mǒ é. (Qīng·cáo xuěqín “Hónglóumèng” dì sān huí) Boshida xazinalar bilan bezatilgan binafsha rang oltin toj kiygan, peshonasida marvarid va oltin o‘ynagan ikki ajdar. (Qing Cao Xueqinning “Qizil ko‘shkdagi tush” uchinchi qism).

Bizga ma’lumki, Xitoyda ajdaho mifologik mavjudot bo‘lib, xitoy millati uchun ular ulug‘vorlikni aks ettiradi. Shu o‘rinda yuqoridagi ikki frazeologik birliklarda “baxt” konsepti komillik, yetuklik ma’nolari orqali “ulug‘vorlik” ma’nosini anglatmoqda, ya’ni baxtga erishish uchun ham qalban, ham jismonan yetuklikka ega bo‘lish kerak. Asos domen “龙” [long] iyeroglifi ulug‘vorlikni, buyuklikni ifodalagan.

女娲补天 [nǚ wā bǔ tiān] ulug‘vor, qo‘rqmas, jangovar ruh.

女娲,是我国古代神话中创造人 类的女神。相传天地开裂后,是女娲 技黄土做人, 才有了人类。后水神共工与火神祝融相斗,破坏了人类的安 宁生活,引起天塌地裂。于是女娲炼 五色石补天,斩鳌足撑天地,拯救了 人类。

Nǚ juān, shì wōguó gǔdài shénhuà zhōng chuàngzào rénlèi de nǚshén. Xiāngchuán tiāndì kāiliè hòu, shì nǚ wā jì huángtǔ zuòrén, cái yǒule rénlèi. Hòu shuǐshén gòng gōng yǔ huǒ shén zhùróng xiāng dòu, pòhuàile rénlèi de ānníng shēnghuó, yǐnqǐ tiān tā dì liè. Yúshì nǚ wā liàn wǔsè shí bǔ tiān, zhǎn áo zú chēng tiāndì, zhěngjiùle rénlèi.

Nuva – mening mamlakatim (Xitoy) haqidagi qadimgi afsonalarda odamlarni yaratgan ma’buda. Afsonada aytishicha, dunyo ostin-ustun bo‘lgandan so‘ng, Nuva odamlarni yaratish uchun tuproqni ishlatgan (u tuproqni yog‘dirgan), keyinchalik insonlar

dunyoga kela boshlagan. Biroq keyinchalik suv xudosi Gong gong va vulqon xudosi Chju jong o‘rtasidagi jang insoniyatning tinch hayotini yo‘q qiladi, shu sabab dunyoning (osmonning) qulashiga olib keladi. Keyin, Nuva osmonni to‘ldirish uchun besh rangli toshni takomillashtiradi, osmonni tiklash uchun hatto oyoqlaridan mahrum bo‘ladi va insoniyatni qutqaradi.

Ayol ma’budaning insoniyatni va dunyoni saqlab qolgani Xitoyda ayollar azaldan millatning poydevori va qutqaruvchisi hisoblanganidan dalolat beradi. Buni gender omili deb hisoblash mumkin, chunki Xitoy jamiyatida ayollarning roli qadim zamonlardan beri alohida o‘ringa ega va muhim bo‘lib kelgan. Asos domen “女娲”

[nǚ wā] kelajakka umidni, ya’ni baxtning yana bir lug‘aviy ma’nosiga ishora qilmoqda.

日月合璧 [rì yuè hé bì] uyg‘unlik, muvozanat, farovonlik (qulay sharoit).

《汉书,律历志上》：“日月如合璧,五星如连珠。”日月同升,出现于阴历的朔日,在我国很少见。古人附会为国家的祥瑞。《诗经,小雅天保》：“如月之恒,如日之升。”日月是永恒的,江河炳地,日月恒天。

Hàn shū, lù lì zhì shàng : “Rì yuè rú hé bì, wǔxīng rú liánzhū.” Rì yuè tóng shēng, chūxiàn yú yīnlì de shuòrì, zài wǒguó hěn shǎo jiàn. Gérén fùhuì wèi guójia de xiángruì. “Shījīng, xiǎo yā tiānbǎo”: “Rúyuè zhī héng, rú rì zhī shēng.” Rì yuè shì yǒnghéng de, jiānghé bǐng de, rì yuè héng tiān.

[Hàn shū, lù lì zhì shàng] : “Quyosh va oy devorga o‘xshaydi, besh yulduz esa marvaridga o‘xshaydi”. Quyosh va oy birgalikda ko‘tariladi va uyg‘unlikda bo‘ladi, oy taqvimining yangi kunlari paydo bo‘ladi, ya’ni bizning mamlakatimizda (Xitoyda) bu hodisa kam uchraydi. Qadimgi odamlar buni mamlakatning farovonligi bilan bog‘lashgan. “Qo‘schiqlar kitobi”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Oy doimiy bo‘lganidek, quyosh ham doimiy ko‘tariladi”. Daryolar va ko‘llar abadiy bo‘lgani kabi quyosh va oy ham

abadiydir. Asos domen 合璧 [hé bì] iyeroglifi muvozanatga ishora qilgan, ya’ni tabiat misolida har bir narsada muvozanat bo‘lsa, hayot ham go‘zallahadi.

一本万利 [yī běn wàn lì] kam mablag‘ bilan katta daromadga ega bo‘lish.

《史记》：“天下熙熙，皆为利来；天下攘攘，皆为利往。”旧时除夕夜迎财神和大年初二祭财神，都是春节期间的民俗活动。这种印有财神爷和吉利话的新春帖子，是供迎、祭祀财神用的，以求年初一分本，年底万分利之福。

«*Shǐjì*»：“*Tiānxià xī xī, jiē wèi lì lái; tiānxià rǎngrǎng, jiē wèi lì wǎng.*” *Jiùshí chúxì yè yíng cáishén hé dà nián chū èr jì cáishén, dōu shì chūnjié qíjiān de mínsú huódòng.* Zhè zhǒng yìn yǒu cáishén yé hé jílì huà de xīnchūn tiězi, shì gōng yíng, jìsì cáishén yòng de, yǐ qiú nián chū yī fēn běn, niándī wàn fèn lìzhī fú.

《史记》[*Shǐjì*] kitobida yozilishicha: “Osmon ostidagi xattiharakatlar, barcha yumushlar ostida farovonlikka va mablag‘ga bo‘lgan ehtiyoj yotadi”. Qadimdan xitoyliklar oy taqvimi bo‘yicha yangi yil arafasida va yangi yilning ikkinchi kunida boylik ilohi uchun qurbanliklar qilishadi, uylariga chorlashadi, bularning hammasi xitoy yangi yil bayrami vaqtidagi marosimlardir. Boylik ma’budi suratlari bilan keltirilgan tabriknomalar aynan oy taqvimi bo‘yicha xitoy yangi yili oldi tadbirlarda qo‘llanadi, ya’ni yil avvalida kichik mablag‘ sarflab, yil so‘ngida katta daromad qo‘lga kiritishni ifodalaydi.

Yuqoridagi frazeologik birlikka keltirilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, xitoyliklar azaldan daromad olishga, tadbirkorlikka usta xalqdir, ya’ni biror-bir ishga boshlang‘ich mablag‘ sarflab, ma’lum bir muddatdan so‘ng katta daromadni qo‘lga kiritish haqidagi ushbu ibora Qing sulolası (1644-1912y, 1917 yilda qisqa muddat tiklangan) davrida yashagan Ji Venning 《市声》 kitobining yigirma oltinchi bobida keltirilgan: “这回破釜沉舟，远行一趟，

却指望收它个一本万利哩。[Zhè huí pòfǔchénzhōu, yuǎn xíng yītàng, què zhǐwàng shōu tā gè yīběnwànli lì.]”

Bu safar men barchasini yig‘ishtirib (o‘z qayiqlarini yoqib yuborish), uzoq safarga chiqdim, kam mablag‘ bilan ko‘p daromad olishni umid qilgandim.

Ushbu frazeologik birlik qadimdan bayram tabriklarida ham qo‘llanib, asosan tadbirkorlikda kam mablag‘ bilan qiyinchilik-larsiz, yoqotishlarsiz maqsadga, daromadga erishishni ifodalaydi.

大吉大利 [dà jí dà lì] buyuk omad, baxt va omad.

古代最常见的钱是圆形方孔的铜 钱,其形状取“天圆地方”,“外法 天、内法地”之意。秦始皇时将其它 各种形状的货币统一为这种形制,其后一直延用了两千余年。钱是财富的代表,图上还有金元宝及大吉大利字 样,更是吉祥。

Gǔdài zuì chángjiàn de qián shì yuán xíng fāng kǒng de tóngqián, qí xíngzhuàng qǔ “tiān yuán dìfāng”, “wài fǎ tiān, nèi fǎ de” zhī yì. Qínshǐhuáng shí jiāng qítā gè zhǒng xíngzhuàng de huòbì tǒngyī wéi zhè zhǒng xíngzhì, qí hòu yīzhí yán yònggle liǎng qiān yú nián. Qián shì cáifù de dàibiǎo, tú shàng hái yǒu jīn yuánbǎo jí dàjí dàlì zìyàng, gèng shì jíxiáng.

Qadim zamonlardan keng tarqalgan pullar bu – yumaloq o‘rtasi to‘rtburchak teshikli mis pullar bo‘lgan. Ushbu pullarning shakli “yumaloq shakl osmon, to‘rtburchak shakl esa yer”, “tashqi tomon osmon va ichki tomon yer” ma’nosini ifodalagan. Qin Shihuang imperatorlik davrida har xil shakldagi boshqa pullarni aynan ushbu shaklga birlashtirdi va aynan shu shakldagi tangalar ikki ming yildan ko‘proq vaqt davomida muomalada bo‘ldi. Pul – boylik ramzi. Ushbu tangalarda “buyuk omad” yozuvi ham bor, bu esa xitoyliklar nazdida yanada xayrlidir.

Mazkur frazeologik birlikda xitoy xalqining pul, martabaga bo‘lgan munosabatini ko‘rish mumkin. Matnda Xitoyning birinchi imperatori, Qin imperiyasi (m.av. 221- m. 206-yillar) asoschisi Qin Shihuan hukmronlik davri keltirilgan bo‘lib, qadimiy puli, ya’ni tanganing shakliga ham izoh berib ketilgan. Yumaloq tanga

osmonni ifodalasa, markaziy to‘rtburchak teshik yerni anglatib, butun bir borliqni o‘zida aks ettirgan. Xitoyning oy taqvimi bo‘yicha yangi yil (春节[chūnjié]) bayramida ham suvenir tanga-chalar, tabriknomalarda aynan mazkur frazeologik birlik yoziladi. Qadimda bashorat qilish uchun ham keng qo‘llangan. Asos domen 吉 [jí] iyeroglifi hisoblanib, omad va baxt ma’nolarini ifodalaydi.

日进斗金 [rì jìn dǒu jīn] bir kunda boyib ketish.

旧时,各地“日进斗金”的门童 年画,真是各俱特色。图中一穿着富 贵的可爱童子,双手推一独轮车,车 上装满大金元宝和大个火珠。火珠又 称宝珠,是古神话中一种神奇的通灵 宝物,是祥光普照、永照的吉祥,是 龙戏之珠。

Jiùshí, gèdì “rì jìn dòu jīn” de mén tóngnián huà, zhēnshi gè jù tèsè. Tú zhōng yī chuānzhuó fùguì de kě’ài tóngzǐ, shuāngshǒu tuī yī dúlúnché, chē shàng zhuāng mǎn dà jīn yuánbǎo hé dà gè huǒ zhū. Huǒ zhū yòu chēng bǎozhū, shì gǔ shénhuà zhōng yī zhōng shénqí de tōng líng bǎowù, shì xiángguāng pǔzhào, yǒng zhào de jíxiáng, shì lóng xì zhī zhū.

“Har kuni ko‘p miqdorda oltin topish” ma’nosি aks etgan qadimiy Xitoy yangi yil rasmlari turli shakl va dizaynlarga ega bo‘lgan. Tabriknomalarda ajoyib kiyingan, bir g‘ildirakli aravada katta tilla quyma va yonib turgan katta alangali sharni itarib yuborayotgan yoqimli bola tasvirlanadi. Olovli sharni xazina marvaridi deb ham atashadi, qadimgi ertaklarda ruhlar bilan muloqot qilish mumkin bo‘lgan sehrli obyekt hisoblangan. U omad va daromad olib kelish uchun abadiy porlab turadi. Mazkur olovli shar ajdarlarning o‘yinchog‘i bo‘lgan.

Ushbu frazeologik birlikka ma’no jihatdan yaqin misollar bir nechta bo‘lib, biz faqat birgina misol keltiridik. U tabiat hodisasi bilan bog‘liq bo‘lib, uni mifologik guruhga kiritish mumkin, ya’ni kun bu xuddi olov, olovning ko‘rinishi esa yaltirab turgan tillaga o‘xshaydi va u boylik belgisidir. Asos domen 金 [jīn] iyeroglifi bo‘lib, to‘kin-sochinlik, farovonlikning ichiga kiruvchi boylikka ishora qilgan.

龙凤呈祥 [lóngfèng chéngxiáng] oilaviy baxt (mustahkam oila).

龙、凤是中国古代传说中最大的神物。龙为万灵之长,是权威、尊贵的象征,视为最高男性的代表。凤是百鸟之长,是美丽、仁爱的象征,视为最高女性的代表。旧俗常把男女婚烟之喜比作“龙凤呈祥”,是对幸福的祝颂。

Lóng, fèng shì zhōngguó gǔdài chuánshuō zhōng zuìdà de shén wù. Lóng wèi wàn líng zhī cháng, shì quánwēi, zūnguì de xiàngzhēng, shì wéi zuìgāo nánxìng de dàibiǎo. Fèng shì bǎi niǎo zhī cháng, shì měilì, rén'ài de xiàngzhēng, shì wéi zuìgāo nǚxìng de dàibiǎo. Jiùsú cháng bǎ nánnǚ hūn yān zhī xǐ bì zuò “lóngfèng chéng xiáng”, shì duì xìngfú de zhù song.

龙 [lóng] ajdaho va 凤 [fèng] qaqnus – qadimgi xitoy afsonalaridagi eng yirik mifologik mavjudotlardir. Ajdaho – bu o‘n ming jon ichra eng katta jonzot bo‘lib, erkak kishini o‘zida aks ettiradi, kuch va qadr-qimmatning ramzi hisoblanadi. Qaqnus yuzlab qushlar ichida eng kattasi bo‘lib, go‘zallik va mehr ramzidir, u o‘zida ayol kishini aks ettiradi. Qadimgi urf-odatga ko‘ra, erkak va ayol o‘rtasidagi nikohni “gullab-yashnayotgan ajdaho va qaqnus”ga taqqoslashgan, ya’ni yosh oilalarga shunday baxt tilashgan. Mazkur frazeologik birlikdagi erkak 龙[lóng] ajdaho va ayol 凤 [fèng] qaqnus iyeroglipflar asosan gender omilni anglatib, erkak va ayolning baxthli oila qurib, tinchlikda yashashini ifodalaydi.

一团和气 [yī tuán hé qì] do‘stona iliq munosabat.

阿福是我国南方民间流行的泥塑,手执“和气吉祥”之横联。旧时 正月初九是玉皇诞辰,玉帝又名天公,是道教的首神。初九要祭天公,此日讲究和气,不能冒犯天神。旧时 非常讲究和气,做买卖和气生财,在家和和睦睦。

Ā fú shì wǒguó nánfāng mǐnjiān liúxíng de nísù, shǒu zhí “héqì jíxiáng” zhī héng lián. Jiùshí zhēngyuè chū jiǔ shì yù huáng dànchén, yù dì yòu míng tiāngōng, shì dàojiào de shǒu shén. Chū jiǔ yào jì tiāngōng, cǐ rì jiǎngjiù héqì, bùnéng màofàn tiānshén.

Jiùshí fēicháng jiǎngjiù héqì, zuò mǎimài héqì shēngcái, zàijiā hé hémù mù.

Ah Fu – mening mamlakatim (Xitoy) janubidagi mashhur loydan yasalgan haykal bo‘lib, u qo‘lida “uyg‘unlik va farovonlik” yozilgan iyerogliflarni tutib turadi. Qadimda birinchi qamariy oyning to‘qqizinchi kuni Nefrit imperatorining tug‘ilgan kuni edi. 天公[tiāngōng] Tiangun nomi bilan ham tanilgan Nefrit imperatori daoizmning bosh ma’budi edi. Aynan to‘qqizinchi kunida biz osmon ma’budiga qurbanlik keltiramiz. Bu kuni biz uyg‘unlikka e’tibor berishimiz va ma’budlarni xafa qilmasligimiz kerak. Qadimda savdogarlikda uyg‘unlikka va oilaviy munosabatlarda hamjihatlikka katta ahamiyat berishgan.

Mazkur frazeologik birlikdan bilish mumkinki, insonlar o‘rtasidagi iliq munosabat, do‘stona kayfiyat baxtning boshlang‘ich nuqtasi yoki kichik bir bo‘lagidir. Asos domen 和气 [hé qì] iyerogolfi, ya’ni iliq munosabatlar hisoblanadi.

龙生九子 [lóng shēng jiǔ zǐ] turli iste’dod egasi, iqtidorli ajdaho to‘qqiz nafar o‘g‘il tug‘adi, ularning hammasi tashqi ko‘rinishi va xarakteri jihatidan bir-biridan farq qiladi (taxminan ma’nosi: aka-uka bo‘lsa ham, bir-biridan farq qiladi; aka-uka ikki xil dunyo).

明·杨慎《升庵外集》载:俗传 龙生九子,各有所好:一曰品质,二曰螭吻,三曰蒲牢,四曰狴犴,五曰饕餮,六曰蚣蝮,七曰睚眦,八曰金猊,九曰椒图。其形象多用于古建筑 或器物上。龙生九子各有其才,均成大器。

Míng·yáng shèn “shēng ān wài jí” zài: Sú chuán lóng shēng jiǔ zǐ, gè yǒu suǒ hào: Yī yuē pīnzhí, èr yuē chī wěn, sān yuē pú láo, sì yuē bì àn, wǔ rì tāotiè, liù yuē gōng fù, qī yuē yáì, bā rì jīn ní, jiǔ yuē jiāo tú. Qí xíngxiàng duōyòng yú gǔ jiànzhú huò qìwù shàng. Lóng shēng jiǔ zǐ gè yǒu qí cái, jūn chéng dà qì.

Ming Yang Shenning “升庵外集” [shēng ān wài jí] asarida quyidagilar yozib qoldirilgan: afsonalarga binoan ajdaho to‘qqizta har biri o‘ziga xos afzalliklarga, fazilatlarga ega o‘g‘il farzandli

bo‘ladi: birinchisi axloq, ikkinchisi – Chiwen (o‘ziga barcha yomonliklarni singdirib oladigan, xitoyliklar uyi tomlarida shu sababdan uchraydigan ajdaho), uchinchisi – Pulao (ajoyib dengiz hayvoni, baland ovozda qichqiradi), to‘rtinchisi – Bihan (yo‘lbars ko‘rinishadi yer osti iti, do‘zaxning qo‘riqchisi), beshinchisi – Taote (shafqatsiz va ochko‘z), oltinchisi – Gonfu (hashorot ko‘rinishida), yettinchisi – Yazi (g‘azablangan va kelishmovchilikni ifodalovchi), sakkizinchisi – Ni (she’r ko‘rinishida, taxtni ifodelaydi), to‘qqizinchisi – Jiaotu (xotirijamlikni ifodalaydi, bezovta qilganni yoqtirmaydi) deb nomlanadi. Ularning tasviri asosan qadimiy binolarda ya’ni me’morchilikda yoki idishlarda ishlatiladi. Ularning hammasi g‘ayrioddiy qobiliyatga ega bo‘lib tug‘ilgan va keyinchalik har biri muhim yutuqlarga erishgan.

Mazkur frazeologik birlikdan shuni anglash mumkinki, biron-bir iste’dod, qobiliyatga ega bo‘lgan inson, ma’lum jihatdan baxtli inson hisoblanadi. Qobiliyat, iste’dodli farzandlar esa bir ne’mat bo‘lib, baxt konseptining pereferiyasida yotuvchi sememadir.

安居乐业 [ān jū lè yè] baxtli hayat va barqaror mehnat, tinch-totuv yashash va mamnun bo‘lib mehnat qilmoq, tinch hayatı va mehnatidan zavqlanish.

安居乐业源于《老子》：“甘其食，美其服，安其俗，乐其业。邻国相望，鸡犬之声相闻，民至老死，不相往来。”安居乐业，是指社会生活安定，人们乐于工作，精神、物质生活丰富。而老子讲的是“老死不相往来”的安居乐业。

Ānjūlèyè yuán yú “lǎozi”: “Gān qí shí, měi qí fú, ān qí sú, lè qí yè. Lín guó xiāng wàng, jī quān zhī shēng xiāng wén, mǐn zhì lǎosǐ, bù xiāng wǎnglái.” *Ānjūlèyè*, shì zhǐ shèhuì shēnghuó āndìng, rénmen lèyú gōngzuò, jīngshén, wùzhí shēnghuó fēngfù. Ér lǎozi jiāng de shì “lǎosǐ bù xiāng wǎnglái” de ānjūlèyè.

Mazkur frazeologik birlik Laozi asarlaridan kelib chiqqan hisoblanadi. U shunday jamiyatni tasavvur qilganki, odamlar o‘z hayatidan, kiyim-kechaklaridan, urf-odatlari va ish sharotilaridan juda mamnun bo‘lib, qo‘shni davlat bilan to o‘limgacha umuman

aloqa qilolmaydilar (xalqning o‘zi bilan o‘zi band bo‘lishi nazarda tutilgan), hatto bir tosh otish masofasida bo‘lsa ham. Hozirgi kunda asosan tinch, ma’naviy va moddiy hayotdan mamnun jamiyatni ifodalashda qo‘llanadi. Asos domen 乐 [lè] iyeroglifi bo‘lib, quvonchni ifodalaydi.

和气致祥 [hé qì zhì xiáng] ahillik baraka keltirar, uyg‘unlik va baraka.

阿福,是民间尤其是南方流行的 泥塑。阿福个头不高, 体态丰腴, 端庄质朴。慈眉善目, 面含微笑, 和蔼可亲。身着金线牡丹袍, 手捧“和气致祥”的横幅, 浑身上下充满着和气。旧时买卖人讲究和气生财, 和气可带来吉祥。

Āfú, shì mǐnjiān yóuqí shì nánfāng liúxíng de nísù. Āfú gètóu bù gāo, tǐtài fēngyú, duānzhuāng zhípǔ. Címéishànmù, miàn hán wéixiào, hé'ǎikěqīn. Shēnzhe jīn xiàn mǔdān páo, shǒu pěng “héqì zhì xiáng” de héngfú, húnshēn shàng xià chōngmǎnzhe héqì. Jiùshí mǎimài rén jiāngjiù héqì shēngcái, héqì kě dài lái jíxiáng.

Afu xalq orasida, ayniqsa janubda mashhur loydan yasalgan haykaldir. Afu o‘rta bo‘yli, do‘mboq, obro‘li va sodda tasvirlangan. U mehribon, tabassumli, ochiq ko‘ngil inson bo‘lib, oltin pionli to‘n kiygan, qo‘lida “ahillik va baraka” yozuvini tutib turadi. Qadimda xaridorlar va sotuvchilar pul topish uchun uyg‘unlikka e’tibor berishgan va ahillik omad keltirishi mumkin ekanligiga ishonishgan. Asos domen 和气 [hé qì] iyeroglifi yuqoridagi boshqa bir misolda keltirilganidek, yaxshi munosabatlarni ifodalaydi.

Qisqacha, yuqoridagi frazeologik birlik inson atrofidagilar bilan uyg‘unlikda, ahil bo‘lsa, tijoratida ham baraka bo‘ladi kabi ma’noni ifodalagan. Bunga misol qilib Xan sulolasidagi “刘向传” [liú xiàng chuán] kitobidagi quyidagi gapni keltirish mumkin: “和气致祥, 乖气致异 [héqì zhì xiáng, guāi qì zhì yì] ahillik baxt keltiradi, adovat balo keltiradi”.

鸾凤和鸣 [luán fèng hé míng] baxtli nikoh, oila (so‘zma-so‘z: luan va qaqnus hamohanglikda kuylaydi).

《山海经》：“西南三百里曰女床之山……有鸟焉，其状如翟而五采文，名曰鸾鸟，见则天下安宁。”鸾是传说中凤凰一类的鸟。后人常以“鸾凤”喻夫妻，以“鸾凤和鸣”喻夫妻和谐。

《梧桐雨》：“夜同寝，昼同行，恰似鸾凤和鸣。”

“Shānhǎi jīng”: “Xīnán sānbǎi lǐ yuē nǚ chuáng zhī shān……yǒu niǎo yān, qí zhuàng rú dí ér wǔ cǎi wén, míng yuē luán niǎo, jiàn zé tiānxià ānníng.” Luán shì chuánshuō zhōng fènghuáng yī lèi de niǎo. Hòu rén cháng yǐ “luánfèng” yù fūqī, yǐ “luánfèng hè míng” yù fūqī héxié. “Wútóng yǔ”: “Yè tóng qǐn, zhòu tóngxíng, qiàsì luánfèng hè míng.”

“山海经”：“Uch yuz chaqirim janubi-g‘arbda Nyu chuan 女床 [nǚ chuáng] tog‘i bor ... u yerda shunday qushlar borki, ularning ko‘rinishi uzun dumli qirg‘ovulga o‘xshaydi, nomi Luan qushi bo‘lib, tinchlikni ifodalaydi. “Luan – qaqnus kabi afsonaviy qush. Keyingi avlodlar er va xotinni tasvirlash uchun “Luanfeng” ni, er va xotin o‘rtasidagi uyg‘unlikni tasvirlash uchun “鸾凤和鸣” [luánfèng hè míng] dan foydalanganlar. “梧桐雨” [wútóng yǔ] da quyidagicha misol uchratish mumkin : “Luan va qaqnus kabi hamjihatlikda yashang”.

Yuqoridagi frazeolgik birlik tahlili jarayonida afsonaviy qaqnus qushini uchratish mumkin. Asos domen 鸾凤 [luánfèng] 1) luan va qaqnus (majoziy ma’noda ajralmas juftlik); 2) luanlar va qaqnuslar: a) eng yaxshi odamlar; qahramonlar; b) durdona asarlar; eng a’losi; eng yaxshisi. 和鸣 [hémíng] hamohang kuylamoq, uyg‘un ovoz (musiqa, qo‘shiq haqida).

Demak, komponentlar yig‘indisidan uyg‘unlikda kuylovchi er va xotin nazarda tutilmoqda ya’ni baxtli va ahil oila.

聪明伶俐 [cōng míng líng lì] aqlii va odobli (asosan bolalarga nisbatan).

聪：听觉灵敏；明：视觉敏锐。伶俐：灵活，乖巧，干脆，爽利。聪明伶俐多用于对聪慧儿童的称赞。“葱”与“聪”谐音。藕

心空明透亮, 示“明”。 “菱”谐音“伶”, “荔”谐音“俐”, 合为“聪明伶俐。”寓意多生聪明伶俐的贵子。

Cōng: Tīngjué língmǐn; míng: Shìjué mǐnrùi. Línglì: Línghuó, guāiqiǎo, gāncuì, shuǎnglì. Cōngmíng línglì duōyòng yú duì cōnghuì értóng de chēngzàn. “Cōng” yǔ “cōng” xiéyīn. Ōu xīn kōng míng tòuliàng, shì “míng”. “Líng” xiéyīn “líng”, “lì” xiéyīn “lì”, hé wèi “cōngmíng línglì.” Yùyì duō shēng cōngmíng línglì de guìzǐ.

聪[cōng]: o‘tkir eshitish xususiyati; 明 [míng]: o‘tkir ko‘rish xususiyati; 伶俐[línglì]: moslashuvchan, yaxshi xulqli, tiniq, tetik. Asosan aqlli bolalar uchun maqtov sifatida ishlatiladi. “聪” [cōng] va “葱” [cōng] omofon bo‘lib, ikkinchi iyeroglis “聪” [cōng]ga ishora qilmoqda. Nilufar guli (lotus) ildizi shaffof bo‘lib, “明” ni ifodalaydi va unga ishora qiladi. “菱” [líng] va “伶” [líng], “荔” [lì] va “俐” [lì] iyeroglisflari ham omofon hisoblanib, “aqlli va dono” degan ma’nolarni anglatadi. Asos domen 伶俐 [línglì] iyerogli ma’naviy pok insonni ifodalaydi. Diniy qarashlarda mavjud ma’naviy yetuklikni, ota-onalar uchun esa aqlli va odobli farzandli bo‘lib, baxt hissini tuygan holda baxtning bir qismiga ishora qilmoqda.

Mazkur frazeologik birlik bolalarni maqtashda yoki yosh oilaga tilak bildirayotganda ko‘p ishlatiladi. Xitoy badiiy asarlarida ham ko‘p uchraydi. Demak, nasl qoldirish yoki aqlli va dono farzandli bo‘lish kabi baxtli hodisaga ishora qilinmoqda.

麟趾呈祥 [lín zhǐ chéng xiáng] qobiliyatli va aqlli farzandlar (farzand tug‘ilganda tabrik sifatida ishlatilgan bo‘lib, hozirda kam holatlarda uchratish mumkin.

《诗经》：“麟之趾，振振公子，于嗟麟兮。”是说周文王的子孙知礼行善，后多用于赞颂子孙之贤慧。麟趾呈祥在旧时多作为婚典喜联的横披，以祝生育仁厚之后代。在祝贺生子的联中也有：“石麟果是真麟趾，雏凤清于老凤声。

“Shījīng”: “Lín zhī zhī, zhèn zhèn gōngzǐ, yú jiē lín xī.” Shì shuō zhōuwén wáng de zǐsūn zhīlǐ xíngshàn, hòu duōyòng yú zànsòng zǐsūn zhī xiánhuì. Lín zhī chéng xiáng zài jiùshí duō zuòwéi hǔndiǎn xǐ lián de héng pī, yǐ zhù shēngyù rénhòu zhīhòu dài. Zài zhùhè shēng zi de lián zhōng yěyǒu: “Shí lín guǒ shì zhēn lín zhī, chú fèng qīng yú lǎo fèng shēng.

Qadimgi 《诗经》 [shījīng] kitobida yakkashox (bir shoxli ot) barmoqlari haqida aytib o‘tilgan bo‘lib, Djou qiroli Venning bolalari marosimlarni bajarganida, xayrli ishlar qilganida, ularni maqtash, qo‘llab-quvvatlashni ifodalashda qo‘llangan. Keyinchalik mazkur iyeroglis bolalarning donoligi va qobiliyatini maqtash ma’nosida ishlatilgan. Mazkur ibora ko‘pincha to‘y tantanalarida, yangi turmush qurbanlarning surriyotlariga yaxshilik tilash uchun tabriknomalarda, o‘ram qog‘ozlarga yozilib, tabrik sifatida ishlatilgan.

Asos domen 麟 [lín] yaxshilik timsoli yakkashox bo‘lib, hozirda ushbu frazeolgik birlik asosan chet qishloqlarda ishlatilib, biroz eskirgan hisoblanadi.

三星高照 [sānxīng gāozhào] baxti kulgan, omadi kelgan (uch karra baxtli).

《礼记·中庸》：“日月所照。”旧时有句：“天上日月星，人间福禄寿。”福，为“五福”之总；禄，即俸禄，钱财，是人们生活的基础，旧时称“没什么别没钱”。寿，为“五福”之首。我国自古就有星象崇拜，故把福、禄、寿称“三星”。

“Lǐ jìzhōngyōng”: “Rì yuè suō zhào.” Jiùshí yǒu jù: “Tiānshàng rì yuè xīng, rénjiān fú lù shòu.” Fú, wèi “wǔfú” zhī zǒng; lù, jí fènglù, qiáncái, shì rénmenshēnghuó de jīchǔ, jiùshí chéng “méishénmebié méi qián”. Shòu, wèi “wǔfú” zhī shǒu. Wǒguó zìgǔ jiù yǒu xīngxiàngchóngbài, gù bǎ fú, lù, shòu chéng “sānxīng”.

Xitoy tilidagi 《礼记·中庸》 [lǐ jìzhōngyōng] nomli marosim kitobidan: “Quyosh ham, oy ham birdek yorqin porlaydi”. Qadimdan bir ibora bor: “Quyosh, oy va yulduzlar osmonda porlasa, yerda esa insonlar orasida baxt, mansab va uzoq umr mavjud”. 福 [fú] bu

“besh xil ne’mat” ning asosiysidir; 祿 [lù] bu maosh, pul (qadimdan ham “pul insonlar yashash tarzining asosi” deb bilishgan). 寿 [shòu] uzoq umr bu 五福 [wǔfú] “besh xil ne’mat” ning birlamchi komponentidir. Asos domen 三星 [sānxīng] baxt modelidagi uchta komponenti 福 [fú], 祿 [lù] va 寿 [shòu] iyerogliflarni ifodalab, bevosita ularga ishora qilmoqda. Xitoyda qadimdan astrologik qarashlar mavjud bo‘lgan, shu sababli ham osmon jinslariga murojaat qilishgan, “uch yulduz” deb ham nomlanganiga ko‘ra, har bir ne’matning o‘z yulduzi va ma’budi mavjud ekaniga ishonishgan. Shu bilan birga mazkur frazeologik birlikning bir necha sinonimlari mavjud: 三星在户 [sānxīng zài hù], 三星临门 [sānxīng línmén], 三星图 [sānxīng tú], 福祿寿三星 [fú lù shòu sānxīng]. Mazkur frazeologik birliklarning barcha “uch yulduz”, ya’ni 福 [fú], 祿 [lù] va 寿 [shòu] “baxt, mansab va uzoq umr” larni ifodalab, “baxt” modelingin asosiy komponentlaridir.

利市三倍 [lì shì sān bèi] katta foyda, daromad (uch karra).

《周易·说卦》：“为近利，市三 倍。”“利市三倍”意为买卖获利丰 厚。旧时的财神像，总配旁利市仙官。利市仙官是民间流传的一位小财 神，他是大财神赵公明的徒弟，被姜 太公封为迎祥纳福的利市仙官，尤受 买卖人欢迎。

“Zhōuyì·shuō guà”: “Wèi jìn lì, shì sān bèi.” “Lì shì sān bèi” yì wèi mǎimài huò lì fēnghòu. Jiùshí de cáishén xiàng, zǒng pèi páng lì shì xiān guān. Lì shì xiān guān shì míngjiān liúchuán de yī wèi xiǎo cáishén, tā shì dà cáishén zhào gōngmíng de túdì, bèi jiāng tài gōng fēng wèi yíng xiáng nàfú de lì shì xiān guān, yóu shòu mǎimài rén huānyíng.

“周易·说卦” [zhōuyì·shuō guà]: “Bir zumda foyda olish, bozor foydasi uch baravar ko‘payishi” deb ta’riflangan. Savdoning foydali ekanligini anglatadi. Boylik xudosining eski haykali Pangli shahrining o‘lmas amaldorlari bilan bog‘liq. Li Shi Sianguan folklordagi kichik boylik ma’budi hisoblanib, buyuk boylik ma’budi Chjao

Gongmingning shogirdidir. Uni Tszyan Taygon Lishi Syanguan deb atagan va asosan savdogarlar orasida mashhur bo‘lgan.

Mazkur misolda asos domen “利市” [lì shì] iyeroglifi bo‘lib, Guandong mahalliy shevasida Xitoy yangi yili arafasida beriladigan sovg‘ani (asosan pul) ifodalaydi. Bilvosita baxtga ishorani kuzatish mumkin.

万事大吉 [wàn shì dà jí] barchasi omadli va xayrli ekanini, ishning bajarilganini ifodalaydi. Mazkur misolda 吉[jí] iyeroglifi asos domen bo‘lib, bevosita omadni ifodalamoqda.

鱼龙变化 [yú lóng biàn huà] o‘zgarish (lavozimdag), ajdahoga aylanish.

《三秦记》：“河津一名龙门,水险不通,鱼鳌之属莫能上。海江大鱼 薄集龙门下数千,上则为龙,不上者 点额暴腮。”“鱼龙变化”即“鲤鱼跳 龙门”,鲤鱼多能跃龙门,于是由 鱼变成龙。旧时常以“鱼龙变化”颂人高升。

“*Sān qín jì*”: “*Héjīn yī míng lóngmén, shuǐ xiǎn bùtōng, yú biē zhī shǔ mò néng shàng. Hǎijiāng dà yú báo jí lóngmén xià shù qiān, shàng zé wèi lóng, bù shàng zhě diǎn é bào sāi*”. “*Yú lóng biàn huà*” jí “*lǐyú tiào lóngmén*”, *lǐyú duō néng yuè lóngmén, yúshì yóu yú biàn chéng lóng*. Jiù shícháng yǐ “*yú lóng biàn huà*” sòng rén gāoshēng.

《三秦记》 [sān qín jì] asarida: “Hejin ajdaho darvozasi mavjud bo‘lib, u xavfli daryo ustida joylashgan bo‘lib, baliq va toshbaqalarning hech biri u yerdan yuqoriga ko‘tarila olmagan. Ajdaho darvozasi ostidagi daryoda minglab katta baliqlar bo‘lgan, darvozadan sakrab o‘ta oladigan baliqlar ajdahoga aylangan, qolganlari esa nobud bo‘lar edi. Odatda, faqat sazan buni qila olgan. Mazkur frazeologik birlik “ajdahoga aylanish” degan ma’noni anglatadi va qadimdan biror-bir vaziyatning yaxshi tomonga o‘zgarishi yoki insonlarning amal zinapoyasida yuksalishi, mansabi ko‘tarilishini ifodalash uchun ishlatilgan. Asos domen 鱼龙 [yú lóng] iyeroglifi bo‘lib, ajdar-baliq yoki baliqdan ajdahoga aylanishni ifodalaydi.

Ajdaho esa Xitoy mifologiyasida eng birinchi, asosiy, kuchli sehrli mavjudotlardan biridir. Birinchilik, g‘oliblik ham quvonch hissi, ya’ni baxtli modelidagi 祿 lù komponentining bir bo‘lagidir.

指日高升 [zhǐ rì gāo sheng] tez orada boshqa lavozimga ko‘tarilishiga ishora

官高则祿厚,旧时为官者最希望 的就是升官发财,盼望早升官、快升 官、多升官、升大官。“指日高升”就是很快就要高升了,多用做人高 升之词。

Guān gāozé lù hòu, jiùshí wèi guān zhě zuì xīwàng de jiùshì shēngguān fācái, pànwàng zǎo shēngguān, kuài shēngguān, duō shēngguān, shēng dà guān. “Zhǐ rì gāoshēng” jiùshì hěn kuài jiù yào gāoshēngle, duōyòng zuòrén gāoshēng zhī cí.

Yuqori lavozim yaxshi maosh olib keladi. Yuqori mansabni egallah va boylik orttirish qadimda barcha amaldorlarning eng katta orzusi bo‘lgan. “Qisqa vaqt ichida yuqori lavozimga ko‘tarilish” iborasi samoviy amaldorning (ma’bud) yaxshi maosh va ijtimoiy mavqega ishora qilayotganini ko‘rsatadi. Asos domen 高升 [gāoshēng] iyeroglifi tarjimasi “yuqori martabaga ko‘tarilish, ko‘tarilish” bo‘lib, baxt modelidagi 祿 [lù] komponenti qamrab oluvchi konnotativ ma’noning bir qismi hisoblanadi.

独占鳌头 [dú zhàn áo tóu] yetakchilardan biri, birinchilardan bo‘lish (so‘zma-so‘z: dengiz katta toshbaqasining boshini qo‘lga kiritish; (状元 [zhuàngyuán] darajasi uchun imtihonda birinchi o‘rinni egallah, imperatorning qabulida ulkan toshbaqaning boshi o‘yilgan zinapoyada turish).

鳌,是传说中大海里的大龟或大 鳌。唐宋时期,皇宫台阶中间的石板 上刻画有龙和鳌的纹饰。凡科举中考 的进士要在皇家宫殿台阶下依次迎榜。第一名站在鳌头处,后世称殿试一等一甲状元为“独占鳌头”。后也 泛指第一名者。

Áo, shì chuánshuō zhōng dàhǎi lǐ de dà guī huò dà áo. Táng sòng shíqí, huánggōng táijiē zhōngjiān de shíbǎn shàng kèhuà yǒu lóng hé áo de wénshì. Fán kējū zhōngkǎo de jìnshì yào zài huángjiā

gōngdiàn táijiē xià yīcì yíng bǎng. Dì yī míng zhàn zài áotóu chù, hòushì chēng diànsì yī děng yī jiā zhuàngyuán wèi “dúzhàn’áotóu”. Hòu yě fàn zhī dì yī míng zhě.

Afsonalarga ko‘ra, Ao – katta dengiz toshbaqasi. Ajdaho va toshbaqa naqshlari Tang va Song sulolalarida qirol saroylari ostonasiga o‘yib tushirilgan. Saroy imtihonlarida qatnashgan talabalar natijalarni saroy ostonasida kutishgan. Eng yaxshi talaba odatda toshbaqa naqshining boshida turgan. Keyinchalik esa mazkur frazeologik birlik imtihonning eng yaxshi talabasi uchun ishlatilgan. Asos domen 鳌头 [áo tóu] iyeroglifi bo‘lib, nishon domen baxt modelining 祿 [lù] komponenti hisoblanadi.

Hozirda, nafaqat imtihon, balki yuqori cho‘qqilarni egallagan shaxsga nisbatan ham qo‘llanadi.

金玉满堂 [jīn yù mǎn tang] boylik va hashamat.

《老子》：“金玉满堂，莫之能 守。 Lǎozi: [Jīnyù mǎntáng, mò zhī néng shǒu].

《老子》 [lǎozi] da: “Xona to‘la oltin va nefrit bo‘lib, sanab sanog‘iga yetolmaysan” kabi misol keltirilgan bo‘lib, mazkur frazeologik birlikni uch xil ma’noda ta’riflash mumkin:

- 1) uy to‘la boylik va hashamat;
- 2) keng bilim;

3) inson uyi oltin va nefrit bilan to‘ldirilgan bo‘lsa ham, mutanosiblik, nafsiyi tiyish tuyg‘usini bilishi kerakligi haqida, qancha boylik yig‘ishidan qat’iy nazar, o‘lim haq va ularni tobuti bilan olib ketolmaydi. Demak, inson uchun pul, mablag‘ kerak, biroq ma’naviy boylik haqida ham yodda tutish kerakligi nazarda tutilgan. Mazkur frazeologik birlik asosan oltin baliq surati tushurilgan tabrik kartalariga yoziladi. Sababi oltin baliq boylik ramzi hisoblanib, Xitoyda janubiy Song sulolasi davridan boshlab xonakilashtirilgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan. Asos domen 金玉 [jīn yù] iyeroglifi bo‘lib, nishon domen baxt modelining 财 [cái] komponenti hisoblanadi.

竹报平安[zhú bào píng ān] yovuzlikni haydab, tinchlik istash, uyiga tinch ekanligi haqida xat yuvorish (hozirgi kunda asosan Xitoy yangi yili oldi shunday xat yuborilganda qo'llanadi).

古代在佳节喜庆之日,用火烧 件, 爆裂发声,称为“爆竹”。传说 乾驱除山鬼。后以多层纸密裹火药, 接以药线,点燃即爆。王安石《元 日》诗云:“爆竹声中一岁除。”“爆”谐音报,“竹报平安”意为驱除邪恶, 祈盼平安。

Gǔdài zài jiājié xiǎqìng zhī rì, yòng huǒshāo jiàn, bàoliè fāshēng, chēng wèi “bào zhú”. Chuánshuō qián qūchú shān guǐ. Hòu yǐ duō céng zhī mì guǒ huǒyào, jiē yǐ yào xiàn, diǎnrán jí bào. Wáng’ānshí “yuán rì” shī yún: “Bào zhú shēng zhōng yī suì chū.” “Bào” xiéyīn bào, “zhú bào píng’ān” yì wèi qūchú xié’è, qípàn píng’ān.

Qadimda bayram kunlarida (Xitoy yangi yili) petardalardan foydalanishgan va uning ovozi “baozhu” iyeroglifi bilan ifodalan-gan. Afsonaga ko‘ra, petardalar tovushi tog‘ arvohlarini haydab chiqaradi. Shunga ko‘ra, porox bir necha qatlamlı qog‘oz bilan mahkam o‘ralib, kukunli ipga ulanadi, yoqilganda portlaydi. Vang Anshining “Yuan Ri” she’rida shunday deyilgan: “Petardalarning ovozi jarangi ostida eski yil tugaydi” 爆 [bào] (portlash) va 报 [bào] (bambuk) omofon bo‘lib, yovuzlikni haydash va tinchlik uchun ibodat qilishni anglatadi. Asos domen 平安 [píng ān] iyeroglifi bo‘lib, nishon domen baxt modelining 福 [fú] komponenti hisob-lanadi. Yuqoridagi misollarda ham tinchlik, totuvlik baxt hissining ajralmas qismi ekani aytib o‘tilgan. Hozirda asosan yaqinlariga tinch ekani haqida ifodalovchi xat ma’nosida qo’llanadi.

天保九如 [tiān bǎo jiǔ rú] osmon sizni asrasin, uzoq umr tilash.

天保,是《诗·小雅》的篇名.《诗序》:“下报上也。”是一首为君主祝福的诗。九如:如山、如阜、如陵、如岗、如川之方至、如月之恒、如日之升、如松柏之茂、如南山之寿。每句有如,故称“九如”,天保 九如多做颂词。

Tiānbǎo, shì “shī·xiǎo yă” de piān míng. “Shī xù”: “Xià bào shàng yě.” Shì yī shǒu wèi jūnzhǔ zhùfú de shī. Jiǔ rú: Rúshān, rú fù, rú líng, rú gǎng, rú chuān zhī fāng zhì, rú yuè zhī héng, rú rì zhī shēng, rú sōngbǎi zhī mào, rú nánshān zhī shòu. Měi jù yōurú, gù chēng “jiǔ rú”, tiānbǎo jiǔ rú duō zuò róngcí.

天保 [tiānbǎo] 《诗·小雅》 [shī·xiǎo yă] dagi bir bo‘limda sarlavha sifatida ham qo‘llangan, u haqida 《诗序》 [shī xù] da aytib o‘tilib, u qiroga marhamatni, duoni ifodalovchi she’r (qasida) hisoblangan. 九如 [jiǔ rú] to‘qqiz o‘xshatish bo‘lib, xuddi tog‘lar, qir-adirlar, maqbaralar, daryolar, oy botishidek, quyosh chiqishidek kabi abadiy uzoq umr ko‘rishni anglatadi. Shu sabab 天保九如 [tiān bǎo jiǔ rú] uzoq umr ko‘rish va cheksiz omadga ega bo‘lishni ifodalab, ko‘p hollarda maqtov sifatida ishlatiladi. Asos domen 九如 [jiǔ rú] iyeroglifi bo‘lib, tarjimasi to‘qqiz taqqoslash (tog‘, tepalik, daryo va boshqalar bilan; Shijingga ko‘ra uzoq umrni anglatadi, tabrik matnlarida va tilaklarida qo‘llanadi⁷⁰) nishon domen baxt modelining 寿 [shòu] uzoq umr komponenti hisoblanadi.

O‘tmishda qiroq yoki ma’lum bir zodagonlarga atab qasidalar yozilganda, u yerda maqtov, tilak sifatida qo‘llangan.

华封三祝 [huá fēng sān zhù] uch ne’matni tilash (Xua qo‘riqchisining uchta tilaklari ma’nosи: uzoq umr, boylik va ko‘p o‘g‘il farzandlar; 《庄子·天地》 [zhuāngzǐ·tiāndì]ga ko‘ra, bunday uchta ne’matni imperator Yaoga Xua yerining chegaralarini qo‘riqlagan odam tilagan).

《庄子·天地》：“尧观乎华，华封人曰：‘嘻，圣人，请祝圣人：使圣人寿……使圣人富……使圣人多男子！’”华封人是在华地守封疆的人。后人多用“华封三祝”祝人多福、多寿、多男子。图以天竹、水仙、牡丹喻之。

⁷⁰ <https://bkrs.info>.

Zhuāngzǐ·tiāndì”: “Yáo guān hū huá, huá fēng rén yuē: ‘Xī, shèngrén, qǐng zhù shèngrén: Shǐ shèngrénshòu……shǐ shèngrén fù……shǐ shèng rén duō nán zi!’” Huá fēng rén shì zài huá de shǒu fēngjiāng de rén. Hòu rén duōyòng “huá fēng sān zhù” zhù rén duō fú, duō shòu, duō nánzǐ. Tú yǐ tiānzhú, shuǐxiān, mǔdān yù zhī.

Qadimgi Xitoy adabiyoti na’munalaridan biri 《庄子·天地》 [zhuāngzǐ·tiāndì]ga ko‘ra, chegaralarning qo‘riqlovchisi Huafeng imperatorga uchta tilak ya’ni uzoq umr ko‘rish, boylik va ko‘p o‘g‘il farzandlar tilagan. Keyingi avlodlar esa ushbu uchta ne’matni tilash uchun “Huafengning uchta tilaklari” kabi frzaologik birlikdan foydalangan. Asos domen 华封[Huá fēng] iyeroglifi bo‘lib, aynan uning tilaklariga ishora qilmoqda. Ko‘pgina tabriknomalarda metafora sifatida uchta ne’mat uchta gul: nandina, za’faron va pion gullari bilan ifodalanadi.

Mazkur frazeologik birlikdan ko‘rinib turibdiki, boshqa sharq xalqlari singari Xitoyda ham qadimda o‘g‘il farzandli bo‘lish baxt hisoblangan va turli tabrik so‘zlar, frazeologik birliklar bunga ishora qilgan.

五子登科 [wǔ zǐ dēng kē] to‘y sharafiga baxt tilab (mazkur frazeologik birlikning biz faqat shu ma’nosiga to‘xtaldik).

《宋史·窦仪传》：“窦禹钧五子，仪、俨、侃、儒、僖，相继登科。”窦禹钧品学出众，为人仗义方正，捐资办义塾，礼聘名师，造就不少人才。且家教甚严，五子均金榜题名。

Sòng shǐ·dòu yí chuán”: “Dòuyǔjūn wǔzǐ, yí, yǎn, kǎn, rú, xī, xiāngjì dēngkē.” Dòuyǔjūn pīn xué chūzhòng, wéirén zhàngyì fāngzhèng, juānzī bàn yìshú, lǐ pìn míngshī, zàojiù bù shǎo réncái. Qiè jiājiào shén yán, wǔzǐ jūn jīnbǎng tímíng.

《宋史·窦仪传》[sòng shǐ·dòu yí chuán]da: “Du Yujunniing besh farzandi Yi, Yan, Kan, Ju va Si lar akademiyaga birin-ketin qabul qilindi” deb mazkur misolga izoh berilgan. Oilaviy tarbiya juda qattiq bo‘lib, besh o‘g‘ilning hammasi oltin medalga sazovor bo‘lgan. Yosh oila qurbanlarga tabrik sifatida ushbu misolda

ta’riflangandek namunali oila va surriyodlar tilash uchun ishlatiladi. Asos domen 五子 [wǔ zǐ] iyeroglifi bo‘lib, tarixiy voqeaga asoslangan, baxt modelining 喜 [xǐ] komponenti, ya’ni oila bilan bog‘liq qismiga oid.

Keyinchalik mazkur frazeologik birlik oila qurish bo‘sag‘asida turgan yoshlarga aqlli va tirishqoq farzandlar tilash uchun tabrik so‘zi sifatida qo‘llangan.

加官进爵[jiā guān jìn jué] ishdagi faoliyatida rag‘batlantirish, ish joyida martabasi ko‘tarilishini ifodalaydi.

爵是古代的饮酒器,青铜铸,盛于商和西周。《礼·礼器》：“宗庙之祭,贵者献爵。”爵也当作礼器。爵的另一个含义是“爵位”,《礼·王制》：“王者制禄爵,公、侯、伯、子、男五等。”加官进爵象征官运亨通之福。

Jué shì gǔdài de yǐnjiǔ qì, qīngtóng zhù, shèng yú shāng hé xīzhōu. “Lǐ·lǐ qì”: “Zōngmiào zhī jì, guì zhě xiān jué.” Jué yě dàng zuò lǐ qì. Jué de lìng yīgè hán yì shì “juéwèi”, “lǐ·wángzhì”: “Wángzhě zhì lù jué, gōng, hóu, bó, zi, nán wǔ děng.” Jiā guān jìn jué xiàngzhēng guānyùn héngtōng zhī fú.

爵 [jué] Shang va G‘arbiy Djou sulolalarida ishlatilgan bronzadan yasalgan qadimiy ichimlik idishi. 《礼·礼器》 [lǐ·lǐqì]da shunday ta’riflangan: “Amaldorlar o‘z unvonlarini ibodatxonada ajdodlarga qurbanlik sifatida taqdim etadilar”. Undan tashqari 爵 [jué] idishi bayram marosimlarida ham qo‘llangan. 爵 [jué] ning yana bir ma’nosи “oliyanob unvon”, 《礼·王制》 [lǐ·wángzhì]da esa ushbu iyeroglif bilan quyidagi misol keltirilgan: “Qirol quyida zodagonlarning besh unvonini ko‘rsatdi: gertsog, markiz, graf, vikont va baron”. Ushbu misolda unvon ma’nosida kelgan. Mazkur frazeologik birlik amaldorning farovonligini anglatadi. Asos domen 进爵 [jìn jué] iyeroglifi hisoblanib, baxt modelining 祿 [lù] komponentiga ishora qiladi.

Yuqoridagi misolga yana bir sinonim sifatida 加官进禄 [jiā guān jìn lù] frazeologik birligini keltirish mumkin, u ham ish lavozimida yuqoriga ko‘tarilib, maoshning oshishiga ishora qiladi.

百鸟朝凤 [bǎi niǎo cháo fèng] chiroyli fazilatli va hurmatga sazovor bo‘lganlarni ifodalaydi (so‘zma-so‘z: yuzta qush yagona qaqnusga qarab turibdi).

凤凰原是一只普通小鸟,在大旱之年,它以辛勤劳动的果实拯救了深于饿死的众多鸟类。为了感谢它,岛从各自身上选一根最美丽的羽毛献给凤凰,从此凤凰就成了一只最美的神鸟,被尊为百鸟之王。每逢它的生日,百鸟朝贺。

Fènghuáng yuán shì yī zhī pǔtōng xiǎo niǎo, zài dà zǎo zhī nián, tā yǐ xīnqín láodòng de guǒshí zhěngjiùle shēn yú è sī de zhòngduō niǎo lèi. Wèile gǎnxiè tā, dǎo cóng gèzì shēnshàng xuǎn yī gēn zuìměilì de yǔmáo xiàn gěi fènghuáng, cóngcǐ fēng huáng jiù chéngle yī zhī zuì měi de shén niǎo, bèi zūn wèi bǎi niǎo zhī wáng. Měi féng tā de shēngrì, bǎi niǎo cháo hè.

Qaqnus dastlab kichik, oddiy qush ekanligi aytilgan. Qurg‘oq-chilik paytida qaqnus (feniks) o‘zining mashaqqatli mehnati bilan ko‘plab o‘layotgan qushlarni qutqaradi. Unga minnatdorchilik bildirishni istab, barcha qushlar qaqnus uchun tanalaridagi eng chiroyli patlarni olib unga berishadi. O‘sandan beri qaqnus eng go‘zal, xayrli qushga aylanadi va barcha qushlarning qiroli sifatida hurmatga sazovor bo‘ladi. Afsonalarga ko‘ra, har yili qaqnusning tug‘ilgan kunida barcha qushlar yig‘iladi va bayramni nishonlaydi. Asos domen qaqnus qushi bo‘lib, Xitoy mifologiyasidagi olivjanob mavjudotlardan biri. Demak, xitoyliklar milliy mental ongida barchaning hurmatiga sazovor bo‘lgan shaxs baxtli insonlar qatoriga kiradi. Xitoyliklarda hurmatga sazovor, iste’dodli va aqlli insonni metafora sifatida qaqnus qushiga o‘xshatish mavjud.

青钱万选 [qīng qián wàn xuǎn] eng a’losi, iste’dod egasi yoki nafis yozilgan nasriy asarga nisbatan qo‘llanadi (o‘n ming tanga orasidan tanlab olingan mis tanga, yozma manbalar ichida eng a’losi).

青铜钱因年代久远而珍贵,所以 在众钱币中万选万中,以此比喻文辞 出众。

Qīngtóng qián yīn niándài jiǔyuǎn ér zhēngui, suǒyǐ zài zhòng qiánbì zhōng wàn xuǎn wàn zhōng, yǐ cǐ bìyù wéncí chūzhòng.

Mis tangalar uzoq tarixga ega bo‘lganligi sababli qimmatlidir, shuning uchun ular eng mashhur tangalar qatoriga kiradi va shu sabab chiroyli xat, nafis tilda yozilgan asarlar uchun metaforadir. Mazkur misolda ham eng a’losiga ishora qilinib, o‘z ishidan yoki iste’dodidan mammunlik hissini ifodalamoqda. Xitoyda qadimdan nazm va nasrga imператор saroylarida katta ahamiyat berishgan va mazkur frazeologik birlik aynan shunday yozma asarlar ichida eng a’losini ifodalash uchun qo‘llanadi.

连中三元 [lián zhòng sān yuan] barcha imtihonda birinchi o‘rinni egallah (uchta imtihonda ya’ni katta shaharda, viloyat markazida va imператор saroyida ketma-ket birinchi o‘rinni egallah).

旧时科举分乡试、会试、殿试三级。乡试头名称解元,会试头名称会元,殿试头名称状元,合为“三元”。明、清时也以殿试头三名为“三元”。也有以三个元宝或三枚圆形钱币而喻连中三元。

Jiùshí kējǔ fēn xiāngshì, huì shì, diànsì sān jí. Xiāngshì tóu míngchēng jiè yuán, huì shì tóu míngchēng huì yuán, diànsì tóu míngchēng zhuàngyuán, hé wèi “sān yuán”. Míng, qīng shí yě yī diànsì tóu sān míng wèi “sān yuán”. Yěyǒu yǐ sān gè yuánbǎo huò sān méi yuán xíng qiánbì ér yù liánzhòngsānyuán.

Qadimgi davrlarda imператор imtihonlari uch bosqichga bo‘lingan: viloyat shahrida imtihon, viloyat markazidagi imtihon va imператор saroyidagi imtihonlar. Shahardagi imtihon 解元[jiè yuán], viloyat markazidagi imtihon 会元 [huì yuán] va imператор saroyidagi imtihon 状元[zhuàngyuán] deb atalib, ular 三元 [sān yuán]ga birlashtirilgan. Ming va Qing sulolalarida saroy imti-

honlarining dastlabki uchtasi ham 三元 [sān yuán] deb nomlangan. Undan tashqari, uchta dumaloq tangani ham ifodalagan.

Qadimdan imperator saroyi imtihonlaridan o'tish juda qiyin bo'lgan va kim bu sinovlardan a'lo darajada o'tsa, o'zi, oila a'zolari uchun katta baxt hisoblangan. Shu bilan birga mazkur frazeologik birlik yozilgan tabriknoma va suratlar har doim muvaffaqiyatga erishish uchun doimo bolalarni yaxshi o'qishga chorlash kerakligini ifodalagan. Asos domen 连中 [lián zhòng] iyeroglifi bo'lib, muvaffaqiyatga erishishni ifodalaydi, baxtning lug'aviy ma'nolaridan biri omadga ishora qilmoqda.

平步青云[píng bù qīng yún] tezda yuqori mavqega ko'tarilish, ijtimoiy zinapoyadan tez yuqoriga ko'tarilish (so'zma-so'z: moviy bulutlar zinapoyasidan osmonga ko'tarilish).

青云干占[qīngyún gàn zhàn] moviy bulutlar zinapoyasi kabi tarjima qilinib, amaldorlarga farovonlik tilash uchun qadimiylasida hisoblangan. 青云直上 [qīngyúnzhíshàng] va 青云得路 [qīngyún dé lù] kabi frazeologik birliklarga ma'no jihatidan mos keladi. Mazkur frazeologik birlik ma'lum bir amaldorni martabasining gullab-yashnashi va uzluksiz taraqqiyotini maqtash yoki tabrik uchun ishlatilgan. Asos domen 青云 [qīngyún] iyeroglifi bo'lib, yuqori lavozimni ifodalovchi metafora hisoblanad. Baxt modelining 祿 [lù] komponentiga oid.

ZAMONAVIY XITOY LISONIY TAFAKKURIDA

“五福 [WŪFÚ] BAXT” MODELI TALQINI

Xitoy tili frazeologik birliklarida “五福 [wūfú] baxt” modelini aniqlashda anketa so‘rovnomasining o‘rni

Tildagi leksika va ular tag zamiridagi ma’nolar orasidagi bog‘lanish kognitiv tilshunoslik o‘rganadigan muammolaridan biridir. Aynan so‘rovnama asosida o‘z ona tilida so‘zlashuvchilar, ya’ni xitoyliklardan, baxt haqidagi qarashlarni, frazeologik birliklardagi reprezentatsiyasini chuqurroq o‘rganish mumkin. S.G. Vorkachyovning fikricha: ““Baxt” konseptining nominativ maydoni ham statik, ham dinamik komponentlarga ega, ma’lum joy va vaqtida ularning nisbati bir xil nomdagi tushunchalarda farq qiladi: milliy, individual va badiiylikda, sababi, “baxt” konsepti o‘ta gibriddi, o‘zgaruvchandir, u insonning “narsa-hodisa” va “ruhiy holati” haqidagi ma’lumot berib, “ichki” va “tashqi olamlarini”, mikrokosmos va makrokosmosni bog‘laydi”⁷¹. Demak, baxtni o‘rganar ekanmiz, uning gibriddi va o‘zgaruvchan ekan, hozirgi kundagi til vakillari yondashuvini tahlil qilishga undaydi. Ushbu fikrni dalili sifatida sotsiolingvistikaning til va millat yo‘nalishi kesimida amalga oshirilgan anketa so‘rovnomalari ahamiyat kasb etadi.

Ferdinand de Sossyur aynan tilni jamiyat bilan bog‘lagan qarashlariga tayanadigan bo‘lsak⁷², jamiyatning hozirgi kundagi qarashlari, o‘zgarishlari va turli ijtimoiy-siyosiy hodisalar aynan tilda aks etadi. Mazkur metodlar ya’ni anketa so‘rovnomasi yoki inyervyular yordamida esa til orqali tafakkurga kirib borish mumkin. Bu esa kognitiv lingvistikaning ya’ni til orqali tafakkurga yoki tafakkurdan tilga kirib bo‘rish ikki xil yondashuvdan biridir.

⁷¹ Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. – Краснодар: техн. ун-т Кубан. гос. унта, 2002. – 92 с.

⁷² Соссюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики. Пер. с французского. М.: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с. (Лингвистическое наследие XX века) — ISBN 5-354-00556-6 – С.40.

Demak, Ferdinand de Sossyur ta’kidlagan tilning jamiyat bilan bog’liqligi sotsiolingvistika tilshunoslikning bir qismi ekanini ko‘rsatadi. Tilshunoslik va sotsiologiya chorrahasida rivojlanayotgan sotsiolingvistika turli xil usullardan, shu jumladan dialektologiya va ijtimoiy psixologiya usullaridan ham foydalanadi⁷³.

Sotsiolingvistika (sotsial lingvistika) – tilshunoslik, sotsiologiya, sotsial psixologiya va etnografiya chorrahasida rivojlanadigan va tilning ijtimoiy tabiat, uning sotsial vazifalari, ijtimoiy omillarning ta’sir mexanizmi bilan bog’liq keng ko‘lamli muammolarni o‘rganadigan ilmiy fandir⁷⁴.

Sotsiolingvistikaning asosiy o‘rganadigan muammolari bir necha xil bo‘lib, quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- Tilning sotsial differensiyasini;
- Til va millatni;
- Til vaziyati, ya’ni ekzoglas va endoglas guruhlarga ajratib o‘rganiladi;
- Til va madaniyat;
- Bilingvizm;
- Til siyosati⁷⁵.

til va millat bilan chambarchas bog’liq bo‘lgan “millat tili muammosi”, uni o‘rganayotgan sotsiolingvistika milliy til kategoriysi bilan ishlaydi, zamonaviy tilshunoslikda iqtisodiy va siyosiy kontsentratsiya sharoitida vujudga keladigan ijtimoiy-tarixiy kategoriya sifatida talqin etiladi, xalqlarning shakllanishini tavsiflaydi, unda til jihat bilan bog’liq o‘zgarishlarni ifodalaydi.

Bugungi kunda sotsiolingvistika sotsiologlardan ko‘plab usullarni (kuzatuv, anketalar, test va intervylular) olgan. Biroq sotsiologiya fanidan farqli, mazkur metodlarni tilni o‘rganish vazifalariga nisbatan sotsiologik usullardan foydalanadi, ular asosida o‘z

⁷³ Клеменчук С.В. //О методах социолингвистического исследования, Альманах современной науки и образования//Тамбов: Грамота, 2010. № 3 (34): в 2-х ч. Ч. II. С. 148-148. ISSN 1993-5552.

⁷⁴ Лингвистический энциклопедический словарь, Москва – 1990. – С.687.

⁷⁵ Лингвистический энциклопедический словарь, Москва – 1990, – С. 687.

uslubiy lingvistik faktlar va ona tilida so‘zlashuvchilar bilan ishslash usullarini yaratgan.

Hozirda sotsiolingvistikaning e’tibori tilning o‘ziga, uning ichki tuzilishiga emas, balki u yoki bu jamiyatni tashkil etuvchi odamlarning tildan qanday foydalanishiga qaratilmoqda. Bunda tilning qo‘llanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha omillar – so‘zlovchilarning o‘zlarining turli xususiyatlaridan (ularning yoshi, jinsi, ta’lim va madaniyat darajasi, kasb turi va boshqalar) ma’lum bir nutqning xususiyatlarigacha e’tiborga olinadi.

Sotsiolingvistikaning mohiyati quyidagi asosiy xususiyatlar bilan belgilanadi:

- til ijtimoiy hodisa bo‘lib, faqat ijtimoiy tushuncha sifatida qaraladi;
- til muloqot vositasi sifatida psixo-fiziologik hodisa emas, chunki psixik hodisa muloqot vositasi bo‘lishi mumkin emas;
- til ijtimoiy hodisadir; u ijtimoiy omil sifatida xalqqa, ya’ni shu tilda so‘zlashuvchi jamoaga tegishlidir.

Yuqoridagi qarashni F.de Sossyur ta’limotida ham kuzatish mumkin, ya’ni uning “tashqi tilshunoslikka til tarixi va millat tarixi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kiritgan va tilda o‘sha xalq urf-odatlari aks etishi yoki, aksincha, til ma’lum ma’noda o‘sha millatni shaklla-nadir”⁷⁶, degan fikrida ham ekstralolingvistik omillarning tilga ta’siri kattaligini kuzatish mumkin. Ushbu ta’rifdan til jamiyatsiz mavjud emas yoki, aksincha, ular bir-birini taqozo qilishi kelib chiqadi. Mazkur fikrga tayangan holda o‘tkazilgan so‘rovnoma orqali zamonaviy xitoy lisoniy tafakkurida baxt bilan bog’liq o‘zgarishlar til materiali bo‘lmish frazeologik birliklar doirasida aniqlangan.

Anketa so‘rovnomasini tuzsih jarayonida eng avvalo bir necha umumiylar va asosiy savollar keltirilib, ilova tarzida biz tanlab olgan 250ta frazeologik birliklar ham keltirilgan. Shu ta’kidlab o‘tish kerakki, respondentlarga savollar internet orqali yuvorilib, javob berish muddati shoshilinch bo‘lmagan. Bu esa o ‘z

⁷⁶ Соссюр Ф.дe. Труды по языкоznанию. – М.1977, – С.840.

navbatida respondentlardan javoblarni shoshilmasdan yozishiga imkon yaratdi. So‘rovnoma dagi savollar:

对你来说幸福是什么?
Duì nǐ lái shuō xìngfú shì
shénme?

以下哪一项对您来说是“幸
福”？

Yǐxià nǎ yī xiàng duì nín lái
shuō shì “xìngfú”?

您会用什么成语来描述幸福的概念？Nín huì yòng shénme chéngyǔ lái miáoshù xìngfú de gāiniàn?

Siznincha baxt deganda nimani tushunasiz?

Quyidagilardan qaysi komponent siz uchun baxt ifodalaydi?

Baxt tushunchasini qaysi frazeologik birlik orqali ifodalagan bo‘lar edingiz?

Yuqorida keltirilgan savollardan “baxt tushunchasini qaysi frazeologik birlik orqali ifodalagan bo‘lar edingiz?” degan savol so‘rovnama mazmunini ifodalasada, biroq tahlil aniq bo‘lishi uchun savollar jadvaldagи ketma-ketlikda aks etgan.

Har bir eksperimentni amalga oshirish jarayonida uning tashkiliy qismiga va metodlariga alohida yondashuv talab etiladi. Avvalo, savollarning to‘g’ri va o‘rinli keltirilgani, respondentlar sotsial guruhi to‘g’ri tanlangani muhim rol o‘ynaydi. S.G.Vorkoch-yovning fikricha, baxt g‘oyasi “semiotik to‘yinganlik”ning yuqori darajasi bo‘lib, u bir qator sinonimlar, paremiyalar, folklor va badiiy obrazlar orqali yetkaziladi. “Odamlar qancha ko‘p bo‘lsa, baxt haqida shunchalik ko‘p fikrlar bor, degan umumiyl fikr oxir-oxibat noto‘g’ri⁷⁷” deydi. Individual g‘oyalar tipologiyaga to‘g’ri keladi, asosan, u haqidagi g‘oyalar soni har bir inson tan oladigan baxt tushunchalari bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, baxtni

⁷⁷ Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. – Краснодар: Техн. ун-т Кубан. гос. ун-та, 2002. – 92 с.

lingvistik jihatdan tahlilga tortish, uning konnotativ ma'nolarini aniqlash lozim, ular ma'lum bir til jamiyati dunyoqarashining ahamiyat iyerarxiyasini belgilashga qaratilgan bo'lishi kerak. Mazkur fikrdan ham ko'rinish turibdiki, baxt V.Tatarkevich⁷⁸ aytganidek, subyektiv va obyektiv bo'lishiga qaramasdan, uning aniq modelini lingvistik aspektida kuzatish mumkin. So'rovnama orqali esa zamonaviy baxt modelini frazeologik birliklar doirasida tahlil qilish, yagona bir ideallashtirilgan holatga keltirish mumkin. Quyida so'rovnama tarkibi, mazmuni birma-bir keltiriladi.

Agar so'rov vositalari orasida sotsiologik anketa eng muhim bo'lsa, anketaning o'zi uchun esa eng muhim masala – savol berish san'atidir. Anketa savoli, agar u qiziqarli va savodli tarzda tuzilgan bo'lsa, kichik ijodiy kashfiyotni tashkil qiladi. Bu borada anketalarni tuzish bo'yicha mashhur mutaxassis L.Ya.Averyanov shunday deydi: "Savol – bu shunday o'ziga xos mikronazariya-ki, u bir qismida (so'roq qismida) bizga ilgaridan ma'lum bilimimizni, ikkinchi qismida (javob qismida) esa boshqa bir bilimni, ya'ni biz bilish istagida bo'lgan bilimni qamrab oladi⁷⁹. Darhaqiqat, so'rovnomada savollar tizimli ravishda, bir-birini mantiqiy davom ettirsa, javob va natijalar ham ishonchli bo'ladi.

"Sotsiolingvistik tadqiqotlar ichida anketa so'rovi eng mashhur va inkor etilmaydigan afzalliklarga ega usullardan biri...⁸⁰".

Anketa (fransuzcha enquête "tekshiruv") so'rovnama deb tarjima qilinib, sotsiologiyaning asosiy tadqiqot metodlaridan biridir⁸¹.

Mazkur fasl doirasida aynan anketa so'rovnomasi turlari va ichki qism tuzilishini yoritishda S.Yuldashevning "Sotsiologik

⁷⁸ Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. М., 1981, – С.55.

⁷⁹ Аверьянов Л. Я. Социология: искусство задавать вопросы. М.: Марс, 1998. – 357 с.

⁸⁰ Клеменчук С.В. О методах социолингвистического исследования, Альманах современной науки и образования Тамбов: Грамота, 2010. № 3 (34): в 2-х ч. Ч. II. С. 148-148. ISSN 1993-5552.

⁸¹Адамчик В. В. Новый словарь иностранных слов. – Минск : Современный литератор, 2005. С.516. – 1088 с.

“tadqiqot metodologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasidan ham foydalanildi.

Sotsiolingvistikaning so‘rov instrumentlari asosan ikki turga bo‘linadi: anketa so‘rovi va intervyu. Anketa so‘rovi deganda insonlardan oldindan tayyorlangan so‘rovnomalar asosida ma’lum obyektiv faktlar, voqeа, hodisa va shaxslar to‘g‘risida fikr olish jarayoni tushuniladi. Sodda qilib aytganda, anketa so‘rovi – anketa asosida suhbat qilishdir. Intervyu – intervyu o‘tkazuvchi (intervyuyer) tomonidan intervyuda ishtirok etayotgan shaxs (respondent)dan muayyan savollarga javob olishga yo‘naltirilgan verbal-kommunikativ metod sanaladi. Sodda qilib aytganda, intervyuyer bilan respondentning muloqoti tushuniladi.

Anketa so‘rovnomasi tuzilishiga ko‘ra quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Kirish qismi;
- Rekvizit qismi;
- Axborot qismi;
- Passport qismi;
- Xulosa qismi.

Yuqoridagi qismlardan ham ko‘rish mumkinki, anketa so‘rovnomasini tuzishda tadqiqotchi aynan nima maqsadni ko‘zlagani inobatga olinadi. Respondentlardan qanday javob kutayotganiga qarab, savollar ham to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak. Boshqa bir sotsiolingvistikaga doir maqolada anketa so‘rovnomasi asosiy to‘rt qismga ajratilgan: kirish, rekvizit, axborot va xulosa qismlari⁸².

Anketa savollari shakllari ikki guruhga bo‘linadi: ochiq va yopiq tipdagi savollar. Ochiq tipdagiga matnli, nominal va miqdoriy savollar kirsa, yopiq tipdagiga dixotomik, yarim yopiq, muqobil va menuy savollar kiradi. Undan tashqari yopiq savollar o‘z ichiga yana shkalali savollarni oladi, bular: Terstoun, Osgud va Laykert shkalalaridir.

⁸² Клеменчук С.В. О методах социолингвистического исследования, Альманах современной науки и образования. Тамбов: Грамота, 2010. № 3 (34): в 2-х ч. Ч. II. С. 148-148. ISSN 1993-5552.

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, anketa so'rovnomasasi aslida yuqoridagi metodlar, tizimlanishi barcha bevosita sotsiologiya fani bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tahliliy sotsiologik tadqiqotlarda metodlar ikki turga, ya'ni sifat va miqdorga ajratiladi. Aynan mazkur ilmiy doirasidagi anketa so'rovnomasasi qat'iy tizimlashtirilgani sabab kontent-tahlil bilan bir qatorda qattiq metodlar turiga kiradi.

Shu bilan birga anketa so'rovnomalari respondentlarning soni bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- Individual anketa so'rovi;
- Guruhiy anketa so'rovi;
- Ommaviy anketa so'rovi.

Yuqoridagi so'rovnomalarning individual turida bitta respondent bilan alohida so'rov amalga oshiriladi. Guruhiy anketa so'rovida bir vaqtning o'zida bir necha respondent bilan so'rov amalga oshiriladi, ya'ni yuztacha anketa tarqatilishi mumkin. Ommaviy turida esa yuzdan ortiq respondentlar ishtirot etadi.

Anketa so'rovining quyidagi bir necha uslubiy afzalliklari mavjud:

- qisqa vaqt ichida ko'proq respondentlardan ma'lumot to'plash;
- respondentlarning noverbal xulqini kuzatish va psixologik o'r ganish imkoniyatining mavjudligi;
- savollarga javob olish usulining yengilligi;
- ijtimoiy-siyosiy vaziyat tendensiyalarini aniqlash va rasmiy ma'lumotlar bilan qiyoslash imkoniyati.

Demak yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, anketa so'rovnomalari tadqiqotchining ishini biroz yengillashtirib, qisqa vaqt ichida qo'yilgan muammoga javob olishiga ko'maklashadi.

Sotsiolingvistika sotsiologiya fani bilan bog'liq, shunday ekan undagi metodlar ham o'xshash. Aslida so'rovlarning bir necha texnologiyasi mavjud, bular: yuzma-yuz (face to face) va masofaviy so'rovlardir. Ularning o'zi ham bir necha turlarga ajratilgan.

- yuzma-yuz (face to face): turar joy bo'yicha so'rov, holl-test, ko'chadagi so'rov;

- masofaviy: telefon orqali so‘rov, pochta orqali (shuningdek mustaqil to‘ldiriladigan) so‘rov, internet so‘rovi.

S.Yuldashevning “Sotsiologik tadqiqot metodologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasidan pochta so‘rovi yoki mustaqil to‘ldiriladigan so‘rovnomaqa quyidagicha ta’rif berilgan: “ axborot olishning ikkita usulini ajratish mumkin. Birinchi usulda, so‘rovnomalar to‘ldirilishi bilan darhol yig‘ib olinadi (masalan, ko‘rgazmalar, taqdimotlar paytida). Ikkinci usulda, so‘rovnomalar to‘ldirilganidan so‘ng muayyan vaqt o‘tgach yig‘ib olinadi (uning bir turi – pochta orqali so‘rov). Mustaqil to‘ldiriladigan so‘rovnomalarning afzalliklari:

- ayrim hollarda o‘tkazish uchun katta ilmiy tashvishning yo‘qligi;
- “intervyu oluvchi effekti”ning yo‘qligi;
- respondentlar ochiqligining yuqori darajasi.”

Demak, qo‘ylgan maqsad, shart-sharoti va gipotezaga qarab so‘rovnomalar ham turlicha bo‘ladi. Shu bilan birga tadqiqotni o‘tkazish turlari ham mavjud. Ular 6 turga bo‘linadi: sinov tadqiqotlari (qidiruv va pilotaj), nuqtali tadqiqotlar (monografik), tavsifiy tadqiqot, tahliliy tadqiqot, takroriy tadqiqotlar (longityud, kogort, trend, panel) va dala tadqiqotlaridir.

Yuqoridagi barcha sotsiolingvistik tadqiqotlar bevosita to‘rtta: rejorashtirish, tashkillashtirish, o‘tkazish va tahlil qilish kabi jaryonni o‘z ichiga oladi. Sotsiologik tadqiqotlar bevosita sotsiolingvistik tadqiqotlar bilan ham bog‘liq, ulardan farqli jihatni til miqyosida tadqiqot olib borishdir.

Jamiyat, insonlarning turmush tarzi, siyosiy qarashlar o‘z-garib borgani sari, xalq madaniyatida ham o‘zgarishlar yuz beradi va bu o‘z-o‘zidan tilga ham ta’sirini ko‘rsatadi. V.Gumbolt aytganidek, “Til qanchalik darajada mahsulot deb qaralsa, shunchalik darajada faoliyat sifatida qaralishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, bir tomonidan individ tilni nutq va til momentida yaratadi (bu

muayyan vaqtda yaratiladi), ikkinchi tomondan esa til allaqachon yaratilgan, bu o‘tgan avlodlar mahsuli va insoniyat jamoasi mahsuloti va boyligidir⁸³”. “Til tizimining barcha elementlari turli sabab va ta’sirlarga ko‘ra muntazam o‘zgarishga moyildir. Til doim o‘zgarishda, lekin hayotda juda ham qat’iydir. Boshqacha qilib aytganda, har qanday tarixiy davr tilga o‘ziga xos doimiy ravishda ta’sir ko‘rsatib turadi va har bir avlod unga o‘z ta’sirini o‘tkazadi⁸⁴”. Demak, tashqi tomondan o‘zgarishsiz ko‘rinsa ham, til har doim o‘z ichki dinamikasiga ega.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqadiki, anketa so‘rovnomasi aynan sinxron uslubdagi tahlil uchun birlmachi tadqiqod metodlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek M.V.Pimenova “konseptni sinxron ravishda tavsiflash uchun uni sinxron tarzda tarjiba bilan tadqiq qilish kerak ”⁸⁵, deb aytadi. Demak, baxt modelining tarixi, strukturasi va u bilan bog‘liq frazeologik birliklarni o‘rganish bilan bir qatorda, hozirgi kundagi ko‘rinishini o‘rganish uchun bevosita zamonaviy Xitoy xalqi milliy lisoniy ongida mazkur model komponentlari qay darajada faol va umuman mazkur modelning zamonaviy talqini qandayligini ham ko‘rib chiqish zarur. Shu sababli ham quyida anketa so‘rovnomasi orqali sotsiolingvistik tadqiqot amalga oshirilgan.

⁸³ Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкоznанию. – М.: ИГ «Прогресс», 2000.. – С.400.

⁸⁴ Xajiyev S.K. So’z manosining ko’chish bilan bog‘liq lingvistik hodisalar, filol.fan nom... diss. – Toshkent, 2007. – B.123.

⁸⁵ Пименова М.В. Концептуализация и объективация истины и правда// Язык.История.Культура: К 50-летию Кемеровского Государственного Университета и 25-летию юбилею кафедры исторического языкоznания и славянских языков КемГУ: Тез.док. – Кемерово, Графика, 2003. – С. 6–17.

Xitoy tili frazeologik birliklarida “五福 [wǔfú] baxt” modeling anketa so‘rovnama natijalari

Zamonaviy Xitoyda “五福 [wǔfú] baxt” modeli bir necha ming yilliklar davomida (ilk bora Shujinda qayd etilgan) xitoyliklar mental ongida mavjud bo‘lgan va zamon o‘zgarishi bilan komponentlar tarkibi ham o‘zgarishga duch kelgan. Buning sabablari turlicha bo‘lib, ijtimoiy, siyosiy, madaniy jabhalardagi islohotlar bilan bog‘liqdir. Mazkur anketalar bilan ishlash jarayonida 100 ta respondent qatnashdi. Tadqiqot internet tarmoqlari (we chat 微信 [wēixìn]) orqali, 2023-yil 3-fevraldan 7-martgacha bo‘lgan oraliq davrda amalga oshirildi. So‘rovnomada ishtirok etgan har bir respondentning jinsi, yoshi, turmush tarzi, ijtimoiy sharoti, ish joyi, oilaviy sharoitidan kelib chiqqan holda natijalar aniqlandi. Umumiy oltita guruhga ajiratilib, jins kategoriyasi asosida erkak va ayol ikki katta guruh tuzildi. Natijada, umumiy o‘n ikki xil model aniqlandi. Ishning yakunida umumiy model keltirildi. Tajriba jarayonida olingan javoblar ko‘p va xilma-xildir. Ba’zi respondentlar bir misol bilan cheklanmay, ikki yoki hatto uchta misol keltirgan. So‘rovnomada respondentlarga birlamchi baxt komponentini tanlash uchun manba⁸⁶ asosidagi va Min sulolasiga (1368-1644) davriga oid modelda⁸⁷ uchragan beshta 寿[shòu] uzoq umr, 福[fú] baxt (farovonlik) va 祿[lù] martaba 喜 [xǐ] quvonch 财[cái] boylik kabi iyerogligiflar keltirilgan. Ba’zi respondentlarning javoblari esa ajralib turadi, ularda manbada uchramaydigan misollar berilgan. Ular quyida alohida keltirib, tahlilga tortilgan. Undan tashqari shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, har bir so‘rovnomada sog‘liq

⁸⁶ 黄全信, 中华五福吉祥图典, 福, 华语教学出版社, –北京 2003. –245 页;

⁸⁷ Valieva N. Evolutionary development of the concept “happiness” in Chinese language (on the example of models) // Asian Journal of Multidisciplinary Research Volume- 10, Issue- 4, 2021. – P. 705– 710.

iyeroqlifi uchradi, ya’ni aksariyat respondentlar uzoq umr komponenti o‘rniga aynan 健康[jiànkāng] sog‘liqni javob sifatida yozishgan. So‘rovnoma quyidagi tip savollarni o‘z ichiga oladi:

Anketa so‘rovnomasini guruhiy turga kirib, undagi savollar ochiq va yarim yopiq tipga mansub. Savollar ikki guruhga bo‘lindi:

- birinchi guruh matnli savol bo‘lib, ochiq tipdagi savollarga oid;

- ikkinchi guruh yarim yopiq tip, menuy savollarga oid;

Anketa so‘rovnomasidan ikkinchi guruh savollar, ya’ni yopiq tipga oid menuy savolda respondentlar uchun oltita javob variantlari berildi.

Baxt modelini aniqlashda respondentlar anketa so‘rovnomasining javob natijalari quyidagi guruhlarga ajratib olindi:

- jinsi, ya’ni erkak va ayol (ikki katta guruh);
- yoshi jihatdan yoshlar (18 – 30 yoshgacha) va o‘rta yoshlilar (30 – 50 yoshgacha);
- ijtimoiy holati: ishchi-xodim yoki talaba;
- oilaviy sharoiti: oilali va oila qurmagan.


Yuqoridagi alohida kichik oltita guruhga ajratildi va olti xil model ko‘rinishi aniqlandi. Ushbu modellarni aniqlashda $P(A)=m:n$ (m -absolyut chastota, n -umumiyligi soni) formulasidan foydalanildi. Javoblar hamda misollar soni ish uchun asosiy ko‘rsatkich emas, biroq aniq natija bo‘lishi uchun erkak va ayol respondentlar soni teng miqdorda tanlab olindi. Quyida erkak respondentlar oltita guruhlarga ajratilganida, ularning umumiyligi soni ko‘rsatilgan:

Yoshi 18-30 atrofdagilar 33 ta
Oila qurmagan erkaklar 34 ta
Talaba erkaklar 19 ta

Yoshi 30-50 atrofdagilar 21 ta
Oila qurgan erkaklar 20 ta
Ish joyiga ega 35 ta

Birinchi keltirilgan modelda *yoshi* 18-30 atrofidagi erkak lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi % hisobida.

(1-model)




Yuqoridagi modelni manba asosidagi va birinchi bobda 王树邨 - 福祿壽喜財 [Wángshùcūn] Min sulolasiga (1368-1644) davrida keltirilgani bilan solishtirsak komponentlar iyerarxiyasi ham, tarkibi ham o‘zgargani yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur modelda 寿[shòu] uzoq umr komponenti ichiga kiruvchi 健康 [jiànkāng] sog‘liq birlamchiga aylangan va iyerarxiya bo‘yicha ham birinchi o‘ringa ko‘tarilgan. Biroq uzoq umr komponentining o‘zi ham misollarda kelgan, masalan, 18-30 atrofidagi erkak respondentlar javobida 安享晚年 [ānxiǎng wǎnnián] keksalik rohatini ko‘rish kabi frazeologik birlilik kelishi buning isbotidir. 喜 [xǐ] quvonch komponenti ichiga kiruvchi 家庭 [jiātíng] oila iyeroglifi esa taqqoslanayotgan model bilan solishtirilganda to‘rtinchchi o‘rindan ikkinchi o‘ringa ko‘tarilgan. Undan tashqari aynan 喜 [xǐ] quvonch komponentinig konnotativ ma’nolaridan biri “oila” ustunligini kuzatish mumkin. 福 [fú] baxt (farovonlik) va 祿[lù] martaba komponentlari esa birlamchi o‘rindan so‘nggi pog‘onaga tushib qolgan. 財[cái] boylik komponenti esa so‘nggi o‘rindan uchinchi o‘ringa ko‘chgan. Jamiyatdagi qarashlar o‘zgarishi sabab, 福 fú baxt (farovonlik)ning konnotativ ma’nolaridan biri, ya’ni ikkinchi bobda keltirilgan misollardagi ko‘ngil

xotirjamlik bilan bog‘liq komponent so‘nggi o‘rindaligini kuzatish mumkin. Muhim jihat shundaki, guruhlarga qarab komponentlari iyerarxiyasi ham, ularning % ham o‘zgargan. Asosan erkak va ayol (katta guruh) ikki guruhidagi farqlar, ular %lar misolida ham kuzatiladi. Shu bilan birga, bir jins vakillari orasidagi baxtga bo‘lgan munosabat ham ularning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab farq qilishini ko‘rish mumkin.

Yoshi 30-50 atrofidagi erkak lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

(2-model)




Ma’lumot o‘rnida, yuqoridagi modelda uzoq umr komponenti 3% ni tashkil qilgan bo‘lsa, ikkinchi modelda esa respondentlar uni umuman belgilashmagan. Yoshi katta respondentlar guruhida uzoq umr ko‘rish komponenti birlamchi emas, ular uchun eng asosiysi hozirgi kundagi o‘zini sog‘lom his qilish ekanini kuzatiladi. Undan tashqari 祿 [lù] martaba komponenti ikkilamchi bo‘lib, yuqoridagi birinchi modeldan farqli, 喜 [xǐ] quvonch komponenti ichiga kiruvchi 家庭 [jiātíng] oila uchinchi o‘ringa tushgan. 財 [cái] boylik to‘rtinchi va 福 [fú] baxt yoki farovonlik komponenti so‘nggi o‘ringa egallagan. Birinchi bobda 王树邨- 福祿寿喜財 [Wángshùcūn] Min sulolasiga (1368-1644) davrida keltirilgan model bilan solishtirsak, birlamchi 福[fú] baxt komponenti yuqoridagi 2-modella komponentlar iyerarxiyasi o‘zgargan va so‘nggi o‘ringa tushgan. O‘z o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, 福 [fú]

komponentining konnotativ ma'nolaridan biri 安宁 [ānníng] xotirjamlik iyeroglifi misollarda birlamchi ma'nolarni aks ettirgan. Mazkur keltirilgan ikki modelni solishtirsak, 1-modelda uzoq umr komponenti 3% tashkil etsa, 2-modelda respondentlar faqat 健康 [jiànkāng] sog'liq komponentini belgilagan. 喜 [xǐ] quvonch komponenti bilan 祿 [lù] martaba o'rni o'zgargan bo'lsa ham, 福 [fú] baxt (farovonlik) komponenti 9,8% bilan so'nggi o'rinda qolgan. So'rovnoma ishtirok etganlarning ko'p qismi (20 ta) 祿 [lù] komponenti va uning konnotativ ma'nolari ishtirok etgan misollarni keltirgan. Biroq 1-modelda respondentlarning ko'p qismi (27 ta) 喜 [xǐ] komponenti va uning konnotativ ma'nolari ishtirok etgan misollar keltirgan. Demak, yoshi 18-30 yoshdagi erkaklar uchun sog'liqdan keyin, oila muhim bo'lsa, yoshi 30-50 yoshdagilar uchun martaba, mansab, ya'ni ish joyidagi lavozimda ko'tarilish, obro'-e'tibor muhimligi ko'rish mumkin. Yuqoridagi 1-model va 2-model solishtirilganda yosh bilan bog'liq baxtga bo'lган munosabat va baxtning mental ongdagi tasavvurini qaysi komponentlar asosan tashkil qilishini, undagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Oila qurmagan erkaklar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o'zgarishi. Mazkur modelda oila qurmagan erkaklar uchun 家庭 [jiātíng] oila iyeroglifini o'z ichiga oluvchi 喜 [xǐ] quvonch komponenti birlamchi bo'lib, 1-modeldan farqli ravishda 寿 [shòu] uzoq umr komponenti bilan o'rin almashgan va ikkinchi o'ringa ko'chgan. Shuni ta'kidlash kerakki, 3-model respondentlari, ya'ni oila qurmagan erkaklar oilani birlamchi komponent sifatida keltirgan bo'lsa, 祿 [lù] martaba, mansab iyerogliflarini uchinchi o'rinda belgilagan. Agar yuqoridagi 1-model bilan 3-modelni solishtirsak, yoshi 18-30 bo'lган, uylanmagan erkak respondentlarning baxt haqidagi tasavvurlartida o'xshashlikni kuzatish mumkin.

*Oila qurmagan erkaklar lisoniy ongida baxt modeli talqini
va komponentlar o'zgarishi % hisobida*

(3-model)




Ma'lumot sifatida aytilib o'tish joizki, xitoyliklar kech turmush quradi, aksariyati 30 yoshga yaqin oila quradi, shu sabab ham 18-30 atrofidagi respondentlar oila qurmagan bo'lgani sabab, berilgan javoblar, natijalar bir-biriga yaqin. Undan tashqari respondentlar orasida (25 yosh), baxt deganda xalq xizmatida bo'lish, davlatga foyda keltirish kabi ma'nolarni ifodalovchi frazeologik birlikni 国富民强 [guó fùmǐn qiáng] (boy va qudratli mamlakat, qudratli millat) misol qilib keltirgan. Vatanga xizmat qilish ham baxtning yana bir konnotativ ma'nosi ekanini kuzatish mumkin. Mazkur misolda 桓譚《新論》：“五福：壽、富、貴、安樂、子孫眾多” Xan sulolasi davrida (mil.av. 206-220-yillar) faylasuf Huan Tan (mil.av. 43-28-yillar) 新论 [xīnlùn] asarlarida qayd etgan baxt modeli, ya'ni konfutsiychilik qarashlari ham namoyon bo'ladi. Aynan 貴 [guì] hukumatga itoat, farovonlik komponenti ya'ni hukumat qudratli, boy bo'lsa, albatta o'sha mamlakat xalqi ham qudratli, boy va sog'lom bo'ladi kabi ma'no ifodalagan. Demak, modellar komponenti iyerarxiyasi hukumat, millat qiziqishlari, ijtimoiy muammolar ta'siri ostida o'zgaribgina qolmay, har bir komponent ma'lum bir davr g'oyasini o'zida aks ettiradi. Yuqoridagi frazeologik birlik ham o'z ichiga tarixiy davr

qarashlarini oladi va ular hali-hanuz jamiyatda mavjud, biroq birlamchi emas.

Oila qurgan erkaklar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

(4-model)




Yuqoridagi 3-model va 4-modelni solishtirsak, oila qurgan erkaklar uchun 喜 [xǐ] quvonch (家庭 [jiātíng] oila sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti ikkinchi o‘ringa ko‘chgan. Faqat birinchi va ikkinchi komponentlar joy almashib, qolgan komponentlar o‘z o‘rnida qolgan. Respondentlarning oilali yoki aksi bo‘lgan holda ularning baxtga bo‘lgan munosabati o‘zgarishini kuzatish mumkin. Oilali erkaklar uchun sihat-salomatlik baxtning asosiy ko‘rsatkichlaridan biriga aylangan. Barcha respondentlar 寿[shòu] uzoq umr komponentining konnotativ ma’nosи 健康[jiànkāng] sog‘liq iyeroglifini belgilab, 健康快乐[jiànkāng kuàilè] sog‘lom va baxtli ya’ni sihat-salomatlik ma’nosini ifodalovchi frazeologik birliklarni misol sifatida keltirgan.

Talaba erkak lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

5-modelda 寿[shòu] uzoq umr komponentining konnotativ ma’nosи 健康[jiànkāng] sog‘liq iyeroglifi birlamchi, biroq 4-modeldan farqli ravishda, 祿 [lù] martaba, mansab komponenti ikkinchi o‘ringa ko‘tarilgan.

(5-model)




Bunday natija talabaning yoshidan, ayni damdagi ish faoliyatidan kelib chiqib, yaxshi kelajakka intilish, yaxshi martaba va mansabga ega bo‘lish kabi qarashlardan kelib chiqadi. O‘z-o‘zidan 喜 [xǐ] quvonch (家庭 [jiātíng] oila sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti uchinchi o‘ringa tushgan. Qolgan ikki komponent: 财 [cái] boylik to‘rtinchi va 福 [fú] baxt yoki farovonlik komponentlari o‘z o‘rnida qolib, komponentlar iyerarxiyasida o‘zgarishlar kuzatilmagan. Biroq, talaba respondentlar orasida birgina so‘rovnomada baxtga bo‘lgan munosabat yana bir 四世同堂 [sì shì tóng tang] ahil oila (so‘zma-so‘z: bir tom ostida to‘rt avlod) kabi frazeologik birlik orqali ifodalangan. Bu misoldan ham baxt bilan bog‘liq qarashlarda oila instituti yetakchi omil ekanini kuzatish mumkin.

Ish joyiga ega erkak lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

Mazkur modelda ham yuqoridagi 5-modeldagi kabi 寿[shòu] uzoq umr komponentining konnotativ ma’nosи 健康 [jiànkāng] sog‘liq iyeroglifi birlamchidir. Ikkinchi o‘ringa esa 喜 [xǐ] quvonch (家庭 [jiātíng] oila sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti 祿 [lù] martaba komponenti bilan o‘rin almashgan. Ish joyiga ega respondentlar uchun martaba yoki mansab uchinchi darajali ekanini

kuzatish mumkin. Oila esa sog‘liqdan keyingi birlamchi omil bo‘lib, buni hamma uchun ham yuqori mansab yoki cho‘qqini egallash muhim emasligida deb izohlash mumkin. Keltirilgan 5-model va 6-modelda faqat ikki komponentda o‘zgarish yuz berib, qolganlari o‘z iyerarxik o‘rnida qolganini ko‘rish mumkin.

(6-model)



Shu bilan birga yuqorida qayd etilgandek, anketa so‘rovnornalar jarayonida ikkita respondent baxt deganda elga xizmat, xalqparvarlikni ifodalovchi frazeologik birliklarni ko‘rsatib o‘tishgan:

国富民强 [guó fùmín qiáng] xalqparvarlik (2 ta so‘rovnomada) frazeologik birlik keltirilgan.

yoshi 30-50 atrofidagi
oila qurgan erkak
ish joyiga ega

yoshi 18-30 atrofida
oila qurmagan
talaba

Mazkur respondentlar yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo‘lsa ham, biroq keltirilgan misollar bir xil. Demak, ularda vatan-ga sadoqat, burch kabi tushunchalar kuchli rivojlangan bo‘lib, tarixdan bizga ma’lum bo‘lgan Konfutsiy qarashlarini, xalqparvarlik g‘oyalarini ham ifodalaydi.


Keyingi modellarda ayol respondentlar so‘rovnomadagi javoblar tahlili keltirilgan bo‘lib, ular ham yuqoridagidek, oltita

guruhlarga ajratilgan. Quyidagi jadvalda ularning umumiy miqdori va guruhlarga ajratilgandagi soni keltirilgan:

yoshi 18-30 atrofidagi ayollar 23 ta	yoshi 30-50 atrofidagi ayollar 23 ta
oila qurmagan ayollar 26 ta	oila qurgan ayollar 20 ta
talaba ayollar 19 ta	ish joyiga ega ayollar 27 ta

Yoshi 18–30 atrofidagi ayollar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

(7-model)




Mazkur ayol respondentlar javobidan kelib chiqqan model va erkak respondentlar modelidagi eng katta asosiy farq, bu 喜 [xǐ] quvonch (家庭 [jiātíng] oila sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti birlamchi ekanidir. 寿 [shòu] uzoq umr komponenti bilan 喜 [xǐ] quvonch o‘rin almashgan, biroq ushbu guruhda ham 寿 [shòu] uzoq umr komponentining konnotativ ma’nosи 健康 [jiànkāng] sog‘liq asosiy ekanini kuzatish mumkin. Undan tashqari 福 [fú] baxt (安宁 [ān níng] farovonlik sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti so‘nggi o‘rindan iyerarxiya bo‘yicha yuqoriga ko‘tarilgan. 平安喜乐 [píng’ān xǐlè] tinchlik va quvonch kabi misollar keltirilgan bo‘lib, demak, ayol uchun har tomonlama farovonlik, xotirjamlik baxtning muhim belgilaridan biri ekan.

model va 7-modellarning farqlaridan biri, erkak respondentlar uchun 祿 [lù] martaba komponenti asosan uchinchi o‘rinni egal-lagan bo‘lsa, ayol respondentlar uchun 祿 [lù] martaba komponenti so‘nggi o‘rinda kelgan.

Yoshi 30–50 atrofidagi ayollar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

(8-model)




Yuqoridagi 7-model va 8-modellardagi komponentlar iyerarxiyasida deyarli o‘zgarish kuzatilmadi, biroq 祿 [lù] martaba komponenti aynan yoshi 30–50 atrofidagi oila qurgan ayollar uchun yuqoriroq % da ekanini ko‘rish mumkin. Demak, yoshi 30–50 atrofidagi oilali ayol respondentlar uchun ishdagi yutuq va lavozimdagi ko‘tarilishlar baxtni his qilishda muhim ekan.

Oila qurmagan ayollar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

Yuqoridagi 7-model va 8-modellarni solishtirganda ular orasida farq deyarli kuzatilmadi, demak, ayol respondentlar orasida baxtga bo‘lgan munosabatda yoshning ta’siri katta emas. Biroq, oilali yoki aksi bo‘lgan holatda qarashlardagi farqni darhol kuzatish mumkin. Keltirilgan 8-model bilan 9-modelda 喜 [xǐ] quvonch (家庭 [jiātíng] oila sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti ikkinchi o‘ringa tushib, 寿 [shòu] uzoq umr komponentining konnotativ

ma’nosи bo‘lgan 健康 [jiànkāng] sog‘liq birlamchiga o‘tgan, ya’ni komponentlar tarkibiga kiruvchi sihat-salomatlik yuqoriga chiqqan.


(9-model)



Demak, zamonaviy xitoyliklar mental ongida uzoq umr ko‘rish emas, balki ayni damda sog‘lom bo‘lish, sihat-salomatlikda yashash kabi qarashlar vujudga kelgan. Mazkur ishda faqat til doirasida baxtga bo‘lgan yondashuvlar, o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish asosiy maqsad, biroq turli voqeа va hodisalar albatta dastlab ongda, keyin esa tilda o‘z aksini topadi. Mazkur iyeroglis birlamchi komponentga aylanishining asosiy sabablaridan biri butun dunyoni larzaga solgan “covid-19”, ya’ni koronavirus bo‘lishi ham mumkin degan taxminlar mavjud. Yarim yillik karantin insonlar ongida baxtga bo‘lgan qarashlarni qayta ko‘rib chiqishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Undan tashqari 9-modelda 财 [cái] boylik komponenti uchinchi o‘ringa ko‘tarilib, 福 [fú] baxt (安宁 [ān níng] farovonlik sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti to‘rtinchи o‘rinni egallagan. Oila qurmagan ayol respondentlar javoblari orasida 美满富足 [měimǎn fùzú] baxtli va farovon hayot (so‘zmaso‘z: go‘zal, farovon va boylik to‘la hayot) kabi misollar ham keltirilgan bo‘lib, 财 [cái] boylik komponenti muhim ko‘rsatkichlardan biri ekanini kuzatish mumkin.

Oila qurgan ayollar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

(10-model)




Mazkur modelda oila qurgan ayol respondentlar uchun aynan 喜 [xǐ] quvonch (家庭 [jiātíng]) oila sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti birinchi o‘rinda bo‘lsa, 9-model bilan solishtirsak, 禄 [lù] martaba komponentining % ko‘rsatkichi past ekanligi asosiy farqlardan biridir. 福 [fú] baxt (安宁 [ān níng] farovonlik sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti ko‘rsatkichi, aksincha, 9-modelda yuqori ekanligi, Xitoy ayollari uchun oila har doim birlamchi baxt xususiyatlaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Buni oila qurgan respondentlar javobi orasida 花好月圆 [huā hǎo yuè yuan] go‘zal oila, baxtli oila (so‘zma-so‘z: gullar ochilib, oy to‘lishganda) kabi frazeologik birliklar mavjudligi ham isbotlaydi.

Talaba ayollar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

Talaba respondent ayollar javoblari orasida 喜 [xǐ] quvonch (家庭 [jiātíng]) oila sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti va 寿 [shòu] uzoq umr komponenti ichiga kiruvchi 健康 [jiànkāng] sog‘liq iyeroglislaridan tashqari, 财[cái] boylik komponenti bilan bog‘liq frazeologik birliklar 福[fú] baxt (安宁 [ān níng] farovonlik sememasini o‘z ichiga oladi) komponentiga solishtirganda 3 ta misolga ko‘p uchradi.


(11-model)



Misol uchun, 衣食无忧 [yīshí wú yōu] to‘kin-sochinlikda yashash (so‘zma-so‘z: oziq-ovqat va kiyim-kechak haqida qayg‘urmaslik) kabi frazeologik birliklar. Mazkur misolda, bevosita 五福[wǔfú] baxt modeli komponenti ishtirok etmagan bo‘lsa-da, konnotativ ma’nosи 财[cái] boylik komponentini ifodilagan. 禄[lù] martaba komponenti ham 10-model bilan solish-tirilganda % lar ko‘rsatkichi baland ekanini kuzatish mumkin.

Ish joyiga ega ayollar lisoniy ongida baxt modeli talqini va komponentlar o‘zgarishi.

(12-model)



Ish joyiga ega ayol respondentlar javoblarida esa asosan 福[fú] baxt (安宁 [ān níng] farovonlik sememasini o‘z ichiga oladi) komponentiga oid misollar uchtaga ko‘p bo‘lib, 财[cái] boylik komponenti bilan 福 [fú] baxt (安宁 [ān níng] farovonlik sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti o‘rin almashishiga sabab bo‘lgan. Demak, ish joyiga ega ayollar uchun xotirjamlik muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Shu bilan birga ayol respondentlar javoblarida erkak respondentlarda ko‘zga tashlanmagan bir qarash, ya’ni o‘z-o‘zini ta’minalash, o‘ziga ishonchni ifodalovchi frazeologik birliklar uchradi:

自在如风[zìzài rú fēng] erkinlik (so‘zma-so‘z: shamol kabi erkin bo‘lish);


自由自在[zìyóu zìzài] o‘ziga xon, o‘ziga bek (so‘zma-so‘z: o‘z xohlaganini qilish, ozodlik);

自给自足[zì jǐ zìzú] o‘z-o‘zini ta’minalash;

自由随性[zìyóu suí xìng] ozodlik, erkinlik.

Yuqoridagi misollarga e’tibor berilsa, barchasida bitta iyerografif qaytarilgan 自[zì] o‘zim, shaxsan, ya’ni egosentrizimni kuzatish mumkin. Ushbu misollar zamonaviy yoshlarning aksariyat qismi hozirda asosan o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini ta’minalash, o‘zi haqida o‘ylash kabi qarashlar baxtning bir qismi deb yondashishini ko‘rsatadi. Baxt deganda erkin hayot, aynan erkinlik bilan bog‘liq qarashlar ham asosan ayollar mental ongida mavjud ekanini kuzatish mumkin. Mazkur qarash bilan bog‘liq 4 ta so‘rovnama uchradi. Yoshi 18-30 atrofidagi ayol respondnet (2 ta) va yoshi 30-50 atrofidagi ayol respondent (1ta) va 18-30 atrofidagi erkak respondent. Muhim jihatidan biri, ularning barchasi oila qurmagan erkak va ayollar, shu bilan birga ish joyiga ega respondentlardir. Yuqorida keltirilgan barcha modellar so‘rovnama asosida erkak va ayol respondentlarga ajratilgan bo‘lib, ular orasidagi farq model ko‘rinishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biroq, umumiy ko‘rinishdagi model barcha respondentlar bergen javobi $f=n(f)$: m formulasi asosida tahlil qilindi va quyidagi umumiy so‘nggi model ko‘rinishiga keldi:

(13-model)



Mazkur modelda hozirgi kunga kelib, xitoyliklar milliy mental ongida baxtga bo‘lgan yondashuv o‘zgarganini kuzatish mumkin. 寿 [shòu] uzoq umr komponenti ichiga kiruvchi 健康 [jiànkāng] sog‘liq birlamchi ma’noga aylangan, ikkinchi o‘ringa esa 喜 [xǐ] quvonch komponenti ichiga kiruvchi 家庭 [jiātíng] oila ko‘tarilib, 祿 [lù] martaba komponenti ikkinchi o‘rindan pastga tushgan, 財 [cái] boylik komponenti so‘nggi o‘rindan to‘rtinchiga ko‘chgan. Ahamiyatlisi esa, 福 [fú] baxt (安宁 [ān níng] farovonlik sememasini o‘z ichiga oladi) komponenti so‘nggi o‘rinni egallagan, ya’ni har tomonlama farovonlikka erishish birlamchi o‘rindan boshqa o‘ringa ko‘chgan.

Baxtga bo‘lgan munosabat – bu insonning ma’naviy mohiyatini belgilovchi xususiyatlaridan biridir. U haqidagi g‘oyalari, fikrlar dunyoqarashning eng qadimiy qatlamini tashkil etadi. Baxt xuddi yaxshilik, qalb, o‘lim, ozodlik, muhabbat kabi tushunchalar bilan birga shaxsiy ong aksilogik maydonining markaziy qismini qamrab oladi va aynan shu sababdan ham uni o‘rganish jarayonida ma’lum bir millatning mental xususiyatlari bilan tanishish mumkin. Demak, baxt har bir millatning in’ikosidir.

XULOSA

Xitoy millatida “baxt” tushunchasi yagona model sifatida “Chjou sulolasi (mil.av.1046-256) davrda shakllangan. “五福 [wǔfú] baxt” modeli aniq bir strukturaga ega ekanligi, komponentlar miqdori o‘zgarmasligi, sun’iy ravishda yaratilgani, sodalashtirilgani, takomillashtirilgani tilshunoslikdagi model sun’iy ravishda yaratilganini, soddalashtirilganini, takomillashtirish orqali aqliy yoki haqiqiy qurilma definitsiyasiga to‘liq mos tushishini, uning aynan model ekanini tasdiqlaydi. Xitoy tilidagi “五福 [wǔfú] baxt” modeli yuqorida qayd etilgan manba asosida 100 ta frazeologik birlik doirasida tahlilga tortilishi natijasida uning zamonaviy $P(A)= m:n$ (m - absolyut chastota, n -umumiyl chastota) modeli aniqlandi.

“五福 [wǔfú] baxt” modeli tadrijiy rivojini o‘rganish jarayonida mazkur modelning uchta ko‘rinishi yuzaga keldi:

Birinchi modelda quyidagi beshta komponent: 壽[shòu] uzoq umr, 富[fù] moddiy-ma’naviy boylik, 康寧[kāngníng] xotirijamlik va sog‘lik, 優好德 [yōu hǎo dé] ezgulikka bo‘lgan muhabbat, 考終命 [kǎozhōngmìng] keksalikdagi tabiiy o‘lim komponentlarining iyerarxik munosabati Xan sulolasi davriga (mil.a. 206–220-yillar) qadar o‘zgarmagan.

Xan sulolasi davrida (mil.av. 206–220-yillar) faylasuf Huan Tan (mil.av. 43-28-yillar) qayd etgan ikkinchi modeldagи beshta komponent: 壽 [shòu] uzoq umr ko‘rish, 富 [fù] moddiy-ma’naviy boylik, 貴 [guì] hukumatga itoat, farovonlik, 安樂 [ānlè] xotirijamlikda yashash, 子孫眾多 [zǐsūn zhòngduō] unum dorlik (avlod qoldirish) iyerarxiyasi mavjud bo‘lib, ikki komponent: 壽 [shòu] uzoq umr, 富 [fù] moddiy-ma’naviy boylik o‘zgarishsiz qolgan. Qadimgi Xitoy jamiyatidagi ijtimoyi-siyosiy, falsafiy-diniy hamda iqtisodiy qarashlar tanatosdan erosga o‘zgarishi baxt modelida ham aks etib, uning qolgan uchta: 貴 [guì] hukumatga itoat, farovonlik, 安樂 [ānlè] xotirjamlikda yashash, 子孫眾多 [zǐsūn zhòngduō]

unumdorlik (avlod qoldirish) kabi komponentlari ham Xan sulolasi davriga kelib o‘zgarganligi aniqlandi.

王树邨 Wang Shucun (Min sulolasi 1368-1644) qayd etgan uchinchi modelda 喜 [xǐ] oila va quvonch, 祿 [lù] martaba (ish joyidagi yuksalish) komponentlari ikkinchi modeldagи 安樂[ānlè] farovonlik va 子孫眾多[zǐsūn zhòngduō] unumdorlik (avlod qoldirish) bilan almashib, oila va quvonch komponenti 喜 [xǐ] Min sulolasi davriga kelib birlamchi komponentga aylangan. Min sulolasi davri baxt modelida 福 [fú] komponenti “omad” ma’nosidan tashqari, yuqoridagi ikki modeldagи 安樂[ānlè] “xotirijamlik” va “farovonlik” ma’nolarini ham qamrab olgan. Ya’ni zamonlar osha baxt modeling komponentlari soni o‘zgarmay qolsa-da, iyerarxiyasi, tarkibi doirasi yangilanib borgan. Demak, model tizimli rivojlanib, uning tarkibidagi komponentlar bir-birini to‘ldirib boradi.

“五福[wǔfú] baxt” komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar umumiyligi miqdorning 6foizini tashkil qiladi (15 ta). Shu tariqa, xitoyliklar milliy mental ongida baxt modeli mavjud bo‘lsada, biroq mazkur model ular lisoniy ongida baxtga ishora, ya’ni metaforalar orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi.

100 ta misol assosiy uchta katta guruhga ajratilganida, komponentsiz frazeologik birliklar ichida 15 ta fitonim, 12 ta zoonim, 58 ta mifologik obraz ishtirok etgan misollar mavjudligi aniqlandi. Mifologik obrazlar barcha xalqlar adabiyoti, urf-odatlari, madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, zaminida olamning sodda tasviri, ilk diniy qarashlar yotishi sababli ushbu guruhga diniy, tarixiy obrazlar ishtirokidagi eng ko‘p frazeologik birliklar qamrab olingan.

Xitoy tilidagi frazeolgik birliklarining boshqa tillardagi iborallardan farqli jihat shundaki, mazkur frazemalar tarkibida omofon iyerogliflar keng qo‘llanadi. “Baxt” tushunchasi ifoda etilgan frazeologik birliklarda talaffuzi bir xil, biroq yozilishi turlicha bo‘lgan so‘zlarning metafora yordamida yana qo‘srimcha ma’no anglatishi fenomenal hodisa sanaladi. Ba’zi iyerogliflar faqat talaffuzda ma’lum bir o’simlik yoki hayvonot nomini ifodalab, yozma shaklida umuman boshqa iyerogliflar bilan qayd etilishi aniqlandi.

Har bir frazeologik birlik baxt modelidagi beshta komponent orqali o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ular komponentli yoki komponentsiz bo‘lishiga qaramasdan, iboralar tarkibidagi asos domen va nishon domen bir-birini taqozo qiladi. Zoonim guruhiga oid frazeologik birliklarda asos domen sifatida nafaqat hayvonot olami, balki parrandalar nomlari ham ishtirok etgan. Ular asosan “olianoblik”, “halollik” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Xitoy xalqining bir necha asrlik kumulyativ tajribalarini jamlagan farzeologik birliklarga bo‘lgan zamonaviy yo‘ndashuvlarni aniqlash maqsadida sotsiolingvistik anketa so‘rovnomasini asosida “五福 [wǔfú] baxt” modeli o‘zgarishga uchragani $P(A) = m:n$ (m -absolyut chastota, n -umumiylashchaya chastota) formulasi orqali aniqlandi. Ushbu model: 健康 [jiànkāng] (寿 shòu) komponentining konnotativ ma’nosisi, 喜 [xǐ] (家庭 [jiātíng]) oila, 喜 [xǐ] komponentining konnotativ ma’nosisi), 祿 [lù] martaba, 福 [fú] baxt (farovonlik) va 财 [cái] boylik komponentlaridan tashkil topgan. Mazkur yangi modelni ifodalovchi frazeologik birliklarda jinsga xoslik belgisi mavjud. Demak, ayollar va erkaklar nazdida “baxt” tushunchasi farqlanadi.

Sotsiolingvistik anketa so‘rovnomasini natijasida erkaklar modeli bilan ayollar modeli o‘rtasida tafovutlar quyidagi komponentlarda aks etishi aniqlandi:

喜 [xǐ] quvonch komponenti tarkibiga kiruvchi 家庭 [jiātíng] oila komponenti ayol respondentlar modelida birlamchi hisoblanadi (29 %);

福 [fú] baxt (farovonlik) komponenti ayol respondent javoblarida uchinchi o‘rinni egallaydi (17 %);

寿 [shòu] uzoq umr ko‘rish komponenti tarkibiga kiruvchi sog‘lik 健康 [jiànkāng] erkak respondentlar uchun birlamchi sanaladi (37 %);

福 [fú] baxt (farovonlik) komponenti erkak respondentlar modelida so‘nggi pog‘onada aks etgan (8,7 %).

“五福 [wǔfú] baxt” modeli zamonaviy ko‘rinishida bitta tarkibiy o‘zgarish uchraydi: 寿 [shòu] uzoq umr ko‘rish komponenti

tarkibiga kiruvchi sog‘lik 健康 [jiànkāng] ajralib chiqib, birlamchi komponentga aylangan (35 %).

Zamonaviy “五福 [wǔfú] baxt” modelida komponentlar iyerarxiyasida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y bergan:

- 寿 [shòu] uzoq umr ko‘rish komponenti tarkibiga kiruvchi sog‘lik 健康[jiànkāng] birlamchi hisoblanadi (35 %);
- 喜 [xǐ] quvonch komponenti (tarkibiga 家庭 [jiātíng] oila konnotativ ma’nosи kiradi) ikkinchi o‘rinda qayd etilgan (31 %);
- 祿 [lù] martaba komponenti uchinchi pog’onani egallaydi (15 %);
- 财 [cái] boylik komponenti to‘rtinchi o‘rinda aks etgan (13 %);
- 福 [fú] baxt komponenti (安宁 [ān níng] farovonlik konnotativ ma’nosini o‘z ichiga oladi) so‘nggi – beshinchi o‘rinni band qilgan (6 %).

So‘rovnoramadagi respondentlar javoblari orasida istisno tarzida berilgan (4ta respondent) xulosalarning barchasida 自 [zì] o‘zim, shaxsan, ya’ni egosentrizim kayfiyatini ifoda etuvchi iyeroglfif qo‘llanishi kuzatildi. Ushbu misollar zamonaviy yoshlarning aksariyati hozirda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini ta’minlash, o‘zi haqida o‘ylash kabi qarashlarni baxtning bir qismi deb hisoblashini ko‘rsatadi. Bu esa yaqin kelajakda mazkur model tadrijiy rivojlanib, erkinlik, o‘zini anglash kabi iyeroglfiflar baxt modelining komponentiga aylanishi ehtimoli mavjudligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-6084-sonli Farmoni// O‘zbekiston Qonun hujjatlari to‘plami 06/20/6084/1398.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/3171590>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/5426736>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4791086>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 10-fevraldagi 75-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish markazi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4730312>

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar **1) Milliy nashrlar**

7. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 119 b.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.– 98 б

9. Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар: лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил. – Тошкент, 2003. – 119 б.
10. Мустафаева С.Т. Хитой тили тилшунослик терминлари тизимиning шаклланиши ва тараққиёти. – Тошкент, 2016. – 196 б.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992. – 127б;

2) Xorijiy nashrlar

12. Арутюнова Н.Д. Журинская М.А. Теория метафоры: Сборник/ Под ред. Арутюновой Н. Д и М. А. Журинской. – М.: Прогресс, 1990. – 52 с.
13. Fishman J.A. The sociology of language: an interdisciplinary social science approach to language in society. – Rowley (MA): Newbury House, 1972. – XIII, – 250р.
14. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. – The University of Chicago Press. 2003. – 241 р.
15. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества – М.: ИГ «Прогресс», 2000. – 400 с.
16. Гуревич Т.М. Человек в японском лингвокультурном пространстве. Монография. – М.: МГИМО(У) России, 2005. – 25 с.
17. Joseph Needham. Science in Traditional China: A Comparative Perspective. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1981. – 267 р.
18. Labov W. The social stratification of English in New York City. – Washington: Center for applied linguistics, 1966. – XXII, – 501 р.
19. Lakoff J. Women, fire, and dangerous things. – The university of Chicago press, 1987. – 631 р.
20. Лань Сяньлинь. Искусство благопожеланий Китая. Карьера / Сяньлинь Лань. – Цзянси: Искусство, 2004. – 155 с.
21. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2007. – 208 с.
22. Маслова, В. А. Когнитивная лингвистика: учеб. пособие [Текст] / В. А. Маслова. – М.: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.
23. Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка, – Воронеж, 2007. – 250 с.
24. Roy D. T., Tsien T. H. Ancient China: Studies in Early Civilization. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1978. – 267 р.
25. Соссюр Фердинанд де. Труды по языкознанию. – М., 1977. – 840 с.

26. Sung V. Five-fold happiness: Chinese concepts of luck, prosperity, longevity, happiness, and wealth. 9050 Shaughnessy Street, Canada: Raincoast Book. – Canada, 2002. – 154 p.
27. Coulmas F. Sociolinguistics: the study of speakers' choices. – N.Y.: Cambridge univ. press, 2005. – VIII, – 263 p.
28. Toromov A. A. Chenyu and their properties // Controversial Issues of the Chinese Language. – Moscow, 1965. – 111 p.
29. Тан Аошуан. Китайская картина мира. Язык, культура, ментальность. – М., 2012. – 155 с.
30. Титаренко М. Л. История китайской философии / пер. с кит. – М.: Прогресс, 1989. – С.75–77.
31. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. – Краснодар: КТУ, 2002. – 142 с.
32. Зусман В.Б. Концепт в системе гуманитарного знания: понятие и концепт. – Москва, Академия пед. наук, 2003. № 2. – 129 с.
33. 中国语言学大辞典. 江西: 江西教育出版社, 1991. – 1174 页.
34. 现代汉语词典. 北京: 商务印书馆, 2012, – 1790 页.
35. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 福, 华语教学出版社, – 北京 2003. – 245 页
36. 俞敏, 黄智显. 语言学概论. 1956. – 198 页.
37. 史式. 汉语成语研究. 成都: 四川人民出版社, 1980. – 577 页.
38. 王庆峰. 中国吉祥图说 –北京, 1990. – 331 页.
39. 李立 近年来关于幸福感研究的文献综述中南民族大学民族学与社会学学院, 武汉, 2013, – 35 页.
40. 郁福敏、郭珊莲, 英汉习语对比, 上海交通大学出版社, 1999 年, – 23 页.
41. 蒋磊, 英汉习语的文化观照与对比, 武汉大学出版社, 2000 年, – 45 页.
42. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 禄, 华语教学出版社, – 北京 2003. –245 页.
43. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 寿, 华语教学出版社, – 北京 2003., –245 页.

44. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 喜, 华语教学出版社, – 北京 2003., – 245 页.
45. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 财, 华语教学出版社, – 北京 2003., – 245 页.
46. 孙维张, 汉语熟语学, 吉林教育出版社, 长春, 1989 年.
47. 温端政, 中国俗语大词典, 上海, 1989 年, – 97 页.
48. 温端政, 汉语语汇学, 商务印书馆, 北京, 2005 年 1 月.
49. 温端政, 新华惯用语词典, 商务印书馆, 北京, 2007 年 1 月.
50. 温端政, 中国谚语大辞典”. 商务印书馆, 北京, 2011 年 1 月.
51. 沈米成、宋聚福, 常用成语词典, 2008 年, – 87 页.
52. 陈光磊, 中国惯用语, 上海文艺出版社, 上海, 1991 年, – 123 页.
53. 马国凡, 谚语·歇后语·惯用语, 辽宁人民出版社, 沈阳, 1961 年, – 230 页.
54. 徐宗才、应俊玲, 惯用语例释, 北京语言学院出版社, 北京, 1985 年.
55. 赵忠宝. 中华谚语. 中国经济出版社, 2013 年.

IV. Lug‘at va ensiklopediyalar

56. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллии энциклопедияси, 2002. – 164 б.
57. Кобзев А. Добротель. Китайская философия. Энциклопедический словарь. – <http://slovare.coolreferat.com>.
58. Кравцова М.Е. У фу (Пять [условий/проявлений/видов] счастья). Духовная культура Китая: энциклопедия: в 6 т. Т.2. Мифология. Религия. Ред. М.Л. Титаренко и др. – М., 2007. – С.631-632.
59. Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов, Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, – М., 1997. – 265 с.
60. Кубрякова Е.С. “Краткий словарь когнитивных терминов”, Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, – Мн., 1997. – 165 с.
61. Михальченко В.Ю. Словарь социолингвистических терминов. – М.: Институт языкоznания РАН, 2006. – 312 с.

62. Ошанин И. М. Большой китайско-русский словарь. Т. 1-4. – М.: Наука, 1983–1984. – 1062 с.
63. Ярцева В. Н. Лингвистический энциклопедический словарь, – Москва, 1990. – 685 с.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

64. Agzamova D.B. “Xotira” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi umumiy o‘ziga xos xususiyatlari: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2012. – 150 b.
65. Akimov T. Xitoy tilidagi somatik frazeologizmlar: kelib chiqishi va semantikasi: filol.fan.nomz. ... diss. – Т., 2020. – 162 b.
66. Baxronov D.K. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o‘zbek va ispan tillari misolida): f.b.b. f. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 52 b.
67. Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/сўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: диссертация кандидата филологических наук. – Ташкент, 2010. – 156 с.
68. Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. – Т., 1985. 162с.
69. Глозман Б.Г. Лингвокультурный аспект изучения фразеологических единиц, репрезентирующих концепт дом в русском языке: дисс...канд. филол. наук. – Орск. 2010. – 239 с.
70. Гошнаг Ш.А. Языковая концептуализация феномена счастья в русской и адыгской лингвокультурах: автореф. дисс...канд. филол. наук. – Майкоп. 2015. – 21 с.
71. Изотова Н.Н. Своеобразие концепта «счастье» в японской лингвокультуре: дисс...канд. филол. наук. – М., 2012. – 154 с.
72. Мавлянова У.Х. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил: филология фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 155 б.
73. Маматов А., Б.Болтаева Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи, – Т., 2018. – 100 б.
74. Насирова С.А. Ҳозирги хитой тили дипломатик терминларининг лексик-семантик ва структур таҳлили: филология фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2008. – 160 б.

75. Насирова С.А. Ҳозирги хитой тили ижтимоий-сиёсий терминологияси: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 240 б.
76. Rahmatova M.M. Ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyatida “go‘zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi – Toshkent, 2019. B.81. – 151 b.
77. Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация, аффиксация ва конверсия: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 240 б.
78. Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация: филология фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2009. – 154 б.
79. Xajiyev S.K. So‘z manosining ko‘chish bilan bog‘liq lingvistik hodisalar, filol.fan nom. diss. – Toshkent. 2007, – 123 b.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

80. Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики// Преподование языка и литературы. – Ташкент, 2007. – №3. – С.94.
81. Ан С.А., Ворсина О.А., Песчанская Е. В. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств, 2012.– №4 (32). – С.66–70.
82. Ашуррова Д.У. Когнитивная метафора в художественном тексте//Филология масалалари. – Ташкент, 2016 – С.45.
83. Бабушкин А.П. Концепты разных туров в лексике и фразеологии и методика их выявления. // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2001. – С.52-58.
84. Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики, //Вопросы когнитивной лингвистики, – М., 2004. – С.18– 36.
85. Bright W. Social factors in language change // The handbook of sociolinguistics /ed. by F. Coulmas. – Oxford : Blackwell, 1998. –P. 81– 91.
86. Dana K.A. Influence of Usin philosophy on the etymology and semantics of the Chinese language (on the example of certain groups of words) // Russia-China: history and culture. – Kazan: 2020. –P.35–40.

87. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. №1(7). – С 35–46.
88. Duranti A. Linguistic anthropology // International encyclopedia of the social and behavioral sciences / ed. by N.J. Smelser, J. Wright, P.B. Baltes, D. Hodgson. – Oxford: Elsevier, 2002. – Р. 8899–8906.
89. Евсеева Я.В. Исследования языка в социолингвистике и других социальных науках: проблемы и перспективы: введение к тематическому разделу // Социальный и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Серия 11. Социология. – 2021. – №1. – С.9.
90. Клеменчук С.В. О методах социолингвистического исследования// Альманах современной науки и образования – Тамбов: Грамота, 2010. № 3 (34): в 2-х ч. Ч. II. – С.148.
91. Кубрякова Э.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики// Вопросы когнитивной лингвистики. – Москва, 2004. – С.10.
92. Currie H. A projection of sociolinguistics: the relationship of speech to social status // A various language: perspectives on American dialects / ed. by J.V. Williamson, V.M. Burke. – N.Y.: Holt, Rinehart & Winston, 1971. – Р. 39–47.
93. Лаков Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем// Теория метафоры/ Под ред. Н.Д. Арутюновой. – М.: Прогресс, 1990. – С.387-416.
94. Ли Цианьхуа, И. Б. Смирнов. Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С. Пушкина. Серия Филология / гл. ред. В. Н. Скворцов. – СПб.: ЛГУ имени А.С. Пушкина, 2013. – № 3. – С.175–185.
95. Mardiyev T.K “Baxt” konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o‘zbek tillari qiyosida)//Xorijiy filologiya. №4, – Samarqand, 2016. – В.36–43.
96. Мартынева Н.В. К вопросу изучения феномена благопожелательных изображений в традиционном искусстве Китая // The scientific heritage No 42 2019. – С.3-7.
97. Пименова М.В. Концептуализация и объективизация истины и правда// Язык. История. Культура: К 50-летию Кемеровского

Государственного Университета и 25-летию юбилею кафедры исторического языкознания и славянских языков КемГУ: тез.док. – Кемерово: Графика, 2003. – С.6–17.

98. Эшбоева Т.С. Cognitive analysis of the concept «woman» in the French language // Молодой ученый Международный научный журнал № 30 (320), 2020. – С.312.

VII. Internet saytlari

99. http://www.kitaichina.com/se/txt/2016-02/05/content_712836.htm
100. <https://baike.baidu.com/item>.
101. <https://bkrs.info>
102. <https://confuciusinstitute.unl.edu/The/Documents.pdf>
103. <https://confuciusinstitute.unl.edu/The/Documents.pdf>
104. <https://sociolinguistics.academic.ru>
105. <https://www.britannica.com/topic/wuwei-Chinese-philosophy>
106. http://chengyu.t086.com/c_b4f4
107. <https://ru.wikipedia.org>
108. <http://www.dslib.net/soc-filosofia/socialno-filosofskij-analiz-fenomena-schastja.html>
109. <http://moralphilosophy.ru/pg/felicitotologiya.htm>
110. <http://xh.5156edu.com/html5/79339.html>
111. <https://n.ziyouz.com/159-bet>

MUNDARIJA

KIRISH	3
XITOY TILIDA “五福 [WŪFÚ] BAXT” KONSEPTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	6
Zamonaviy tilshunoslikda tushuncha, konsept va model: o‘zaro munosabati va chegaralari	6
Xitoy lisoniy tafakkurida “五福[wūfú] baxt” haqida tasavvurlar va uning konsept sifatida shakllanishi	12
Zamonaviy tilshunoslikda xitoy tilidagi “五福[wūfú] baxt” baxt konseptini o‘rganishga doir yondashuvlar	24
Xitoy tilida frazeologik birliklarni tavsiflash mezonlari	32
“五福 [WŪFÚ] BAXT” MODELINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI	38
Xitoy tili frazeologik birliklarida baxtning “五福[wūfú] baxt” modeli komponentlari orqali ifodalanishi	38
“五福[wūfú] baxt” modelining 祿[lù] komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar	41
“五福[wūfú] baxt” modelining 寿[shòu] komponenti qatnashgan iboralar	43
“五福[wūfú] baxt” modelining 喜[xǐ] komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar	49
“五福[wūfú] baxt” modelining 财[cái] komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar	55
“五福[wūfú] baxt” modeli komponenti ishtirok etmagan frazeologik birliklarda baxtning ifodalanishi	58
Frazeologik birliklarda baxtning fitonimlar orqali ifodalanishi.....	59
Frazeologik birliklarda baxtning zoonimlar orqali talqini	67
Frazeologik birliklarda baxtning mifologik obrazlar orqali talqini	72
ZAMONAVIY XITOY LISONIY TAFAKKURIDA “五福 [WŪFÚ] BAXT” MODELI TALQINI	102
Xitoy tili frazeologik birliklarida “五福[wūfú] baxt” modelini aniqlashda anketa so‘rovnomasining o‘rni.....	102
Xitoy tili frazeologik birliklarida “五福 [wūfú] baxt” modeli so‘rovnomasini natijalari	111
Xulosa	126
Foydalanilgan abiyotlar ro‘yxati	131

NOIBA VALIYEVA ABBOSXANOVNA

**XITOY TILIDA “BAXT” KONSEPTINING
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI**

Monografiya

Mas’ul muharrir:
Saodat Nasirova
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Mavjuda Bolibekova
Dotsent, PhD
Sabohat Hashimova
filologiya fanlari doktori, professor

*Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2024-yil 8-iyundagi 10-sonli majlisi bayoni asosida
nashrga tavsiya etilgan.*

*Bosishga ruxsat etildi: 07.12.2024
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 8,75 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20 uy.*

© Valiyeva N.A.
© Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti, 2024.
ISBN 978-9910-8913-8-0